ВАЖНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальные на сегодняшний день проблемы кардинальной реформы системы образования, важнейшие направления повышения эффективности обучения в высшем образовании, а также рассматривается один из распространенных в настоящее время методов эффективного обучения - "модульная система обучения".

Ключевые слова: система образования, деятельность, педагогическая технология, модуль, специалист, инновация, прогресс.

IMPORTANT DIRECTIONS TO INCREASE LEARNING EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION

Annotation

This article discusses the current problems of the cardinal reform of the education system, the most important directions for improving the effectiveness of teaching in higher education, and also considers one of the currently common methods of effective teaching - the "modular learning system".

Key words: education system, activity, pedagogical technology, module, specialist, innovation, progress.

Hozirgi kunda oliy ta'limi tizimini, xususan, ta'lismi faoliyatining mazmuni va tuzilishi va uning tashkiliy - iqtisodiy jihatlarini isloq qilish dolzarb masalalardan birdir. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ta'lismi-tarbiya asosiy o'rinni tutadi, shu sababli ta'lismi tizimidagi tub islohotlarning hozirgi kundagi dolzarb muammolaridan biri chuqur bilimli, raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash hamda bilim sifatini ob'ektiv baholash maqsadida, yangi zamonaliviy pedagogik texnologiyalarni kiritish, ularni amaliyotga tadbiq etishni ta'minlashdan iboratdir.

Innovatsiya davri sifatida tavsiflangan zamonaliviy dunyoda mutaxassislarning fikriga ko'ra ta'lismi jahon ahamiyatiga ega bo'lgan muhim yo'nalishlardan birdir. Bugungi kunda ushbu keng ko'lamli faoliyat bir milliarddan ziyod o'quvchilarni qamrab oladi va unda qariyb 50 million o'qituvchi ishlaydi. Ta'larning ijtimoiy roli ham sezilarli darajada oshdi: bugungi kunda insoniyatning rivojlanshan istiqbollari uning yo'nalishi va samaradorligiga bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi o'n yilliklarda dunyo ta'larning barcha turlari va elementlariga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi. Ta'lismi, ayniqsa, oliy ta'lismi, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Ushbu e'tiborning sababi zamonaliviy jamiatning eng muhim qiymati va asosiy kapitali yangi bilimlarni topish va rivojlantirishga va nostandard qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan shaxs ekanligini tushunishdir. Bu kapital, o'z navbatida, oliy ta'lismi tizimida – universitetlar,

institutlar, oliy maktablar, akademiyalar va boshqa muassasalarda shakllantiriladi.

Ayni paytda ta'lismi samaradorligini oshirish uning imkoniyatlardan yanada kengroq foydalanish, ta'lismi hozirgi zamona asosiy talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lismi jarayonini qay yo'sinda tashkil qilsak, uning amalga oshirilish mexanizmini ixcham, tushunarli, amalda qo'llash uchun qulayligi, mustaqil bilim oshirishning eng qulay usul va vositalarini tanlay olsak va shu bilan bir vaqtida kam vaqt sarf qilib, o'zlashtirish suratini oshirish kabilalar ilg'or o'qituvchilarni, metodist olimlarni befarq qoldirgan emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonining 4.4-bandida belgilab qo'yilgan "Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlanirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish" [1] ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo'yilgan[1]. Ushbu vazifani ayniqsa, samarali o'qitishni hozirgi davrida keng tarqalayotgan usullaridan biri "O'qitishning modulli tizimi" hisoblanadi.

"Modul" lotincha so'z bo'lib "qism" yoki "bo'lak" degan ma'noni bildiradi. Professor N. X. Avliyoqulov ta'biri bilan aytganda, "Modul bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanning bir yoki bir necha

fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgan” [3]. Modulli o'qitish tizimi inson miyasining o'zlashtirish tizimiga asosan vujudga kelgan. Inson miyasi informatsiyani (axborotni) oqim sifatida yaxlit xolicha emas, balki kvant (bo'linmas miqdor) ko'rinishda yaxshi qabul qiladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, ta'limni ya'ni o'qitishni inson bosh miyasining o'zlashtirish tizimiga moslashtirish g'oyasi asosida tashkil qilish eng samarali yo'l ekanligini e'tirof etilmoqda. O'qitishning modulli tizimi hozirgi vaqtida oliv va o'rtá maxsus o'quv yurtlarida keng qo'llanilmoqda. Bunda mutaxassis tayyorlashdagi o'quv rejani chuqur tahlil qilish asosida o'zarob bog'liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya'ni umumiy o'quv rejsasi alohida modullar (mutaxassislikga oid fanlar) to'plami sifatida qaraladi. Har bir mikro modul mutaxassislikni shakllantirishda ma'lum maqsad va vazifani bajaradi, uning maqsadlari davlat ta'lim standartlarida aks ettiriladi va mutaxassisi tayyorlashning bosh maqsadini ifodalaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lak, har bir mutaxassislik yaxlit bir modul sifatida qaraladi va unda o'rganiladigan fanlar tizimi yaxlit modulning mikro modullari hisoblanib, ushbu mikro modul o'z navbatida yanada kichikroq modullarga bo'linadi va talaba ana shu modullar tizimidan o'tish asosida mutaxassislikni egallab boradi.

O'qitishning modulli tizimini oliv ta'lim o'quv jarayoniga tadbiq qilish ayniqsa, “Elektrotexnika va elektronika” fanini o'qitishda, o'qitishning modulli tizimini amalga oshirish yuqori samara beradi.

Modulli o'qitish texnologiyasi modullarga asoslanadi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha modulni olishiga qarab tegishlicha darajadagi modullar deyiladi. Modul texnologiyasining mohiyati, ta'lim jarayonini modullar (o'quv predmeti va uning bo'limlari mazmunini tartibga solish, ta'limning muayyan bosqichidan boshlab bo'linmaydigan kasbiy faoliyatni mantiqan tugallangan qismlarga ajratish) asosida loylighashtirishdan iboratdir. So'ng'ra ajratilgan har bir modul bo'yicha shu modulning o'zigagina taalluqli bo'lgan faoliyat mazmuni va ta'siri doirasi belgilanadi.

Modul texnologiyasi maqsadini ro'yogba chiqarish uchun modul bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda sodir etilayotgan har bir harakatga o'quv elementi sifatida qaraladi. Modul texnologiyasi o'quv elementi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: faoliyatning aniq elementlarini o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy axborotlar: ta'lim uchun zarur bo'lgan faoliyatni ta'minlovchi materiallar haqidagi ma'lumotlar:maqsadlar idenifikatsiyasi: o'quv materiallari: o'quv sharoitini nazorat qilish (o'quvchilarning ko'zlangan natijalarga erishishlari uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlar: testlar: maqsad etalonasi va boshqalar). Modul texnologiyasi jarayonining umumiy maqsadi quyidagi darajalarda oydinlashadi: ta'lim muassasasining maqsadi hamda o'qituvchi va uning metodik faoliyati idenifikatsiyasi, o'quv predmetining maqsadi, modul maqsadi va o'qituvchining talabalar bilan hamkorlikdagi faoliyatining moduli, uning tashxis qilinadigan oxirgi natijalari.

Modul o'qitish texnologiyasiga o'tishda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim: Metodik majmular yaratish, O'UM yaratish, ta'lim jarayonini didaktik, metodik va tashkiliy jihatdan ta'minlash nazarda utiladi. O'qitishning modulli texnologiyasi – o'qitishning qabul qilingan tamoillariga muvofiq ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bularga faoliyatilik, tizimli kvantlash, motivatsiya (qiziqtirish), modullilik, kognitiv vizialilik xatoliklarga tayanish tamoillari kiradi. Modul texnologiyasi asosida o'qitish quyidagi ketma – ketlikda amalga oshiriladi:

1. Modul texnologiyasi asosida o'qitishni tashkil etishda dastlabki shart – sharoitlarni tahlil etish. Modul texnologiya asosida o'qitishga tayyorgarlik ko'rish, ya'ni

nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchun dastlab uch yo'nalishda ish olib boriladi: tayyorgarlig holati, mavjud shart – sharoitlar, o'quv metodik jihatlar tahlil qilinadi.

2. Modulning o'quv maqsadi va mazmunini belgilash. Modul texnologiyasi asosida o'qitishda dastlab o'quv fanini o'qitishning maqsadi va mazmuni, modullarning maqsadi va mazmuni belgilanadi. O'quv maqsadlari modul yakunida ta'lim – tarbiya natijasi sifatida o'quvchi erishishi lozim bo'lgan bilim, malaka va shaxsiy fazilatlarni belgilaydi. O'quv maqsadlari tarmoq ta'lim standarti talablari asosida ishlab chiqiladi. Modulni o'rganish maqsadi qanchalik aniq bo'lsa, unga erishaganlik darajasini baholash shunchalik oson bo'ladi. Ushbu bosqichda DTC, TTC, namunaviy o'quv reja va dastur asosida ishchi o'quv reja, fan dasturlari ishlab chiqiladi. Mazkur bosqichning eng muhim jarayonlaridan biri – bu o'quv materiali mazmunini belgilashdir. O'quv materiallarni asosiy muhim jihatlarini ajratib olish va ixchamlashtirish, hayotiy misollar keltirish, o'qituvchi va talabalar tomonidan o'rgatish, o'rganish lozim bo'lgan eng asosiy mazmun belgilanadi hamda o'qitish tamoyillariga ko'ra ma'ruza matn tayyorlanadi.

3. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish. Ushbu bosqichda DTS, TTS, o'quv reja va dasturlar asosida ta'lim modeli, uni amalga oshirishning texnologik xaritasi ishlab chiqiladi. Ta'lim modeli va texnologik xaritada dars bosqichlari, unga ajratilgan vaqt, pedagog va talabalar faoliyatining olib borish uchun o'qitishning maxsus tanlangan metod, shakl, va vositalari keltiriladi.

4. Modul bo'yicha o'quv – didaktik materiallar va o'quv vositalarini tayyorlash. Mashg'ulotning xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv – didaktik materiallar, texnik va real vositalarni to'g'ri tanlash xamda ulardan talab doirasida foydalanish nazarda utiladi. Audiovizual vositalar tegishli soxalar bo'yicha texnologik jarayonlarda funksiyalar to'g'risida keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

5. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Modul tarkibiga kiritilgan nazariy mashg'ulotlarni quyidagi ketma – ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi: Qiziqtirish (motivatsiya uyg'otish).

“Elektrotexnika va elektronika” fannini modul texnologiyasi asosida o'qitishda nazariy mashg'ulotlarni qiziqarli, hatto darsga taalluqli bo'limgan ma'lumot bilan boshlash mumkin. Masalan: mavzu bilan bog'liq qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikmatni tushuntirish bilan dars boshlanadi. Bu talabalar kayfiyatiga ijobji ta'sir ko'rsatadi va ularning shu sohaga yoki keyingi darslarda o'rganiladigan mavzuga qiziqishiga yordam beradi. O'qituvchi o'qitishning faol metodlari yordamida o'quv materialini tushuntiradi. Yangi modul birligini o'rganishdan avval o'tilgan modul birliklari qisqacha umumlashtirilgan holda takrorlanadi. Talabalarga modul birligiga mos tarqatma materiallar beriladi. Talabalarni guruhlarda hamkorlikda ishlash, mustaqil ravishda topshiriqlar bajarish, erishgan natijalarini taqdim etishga o'rgatish samarali o'qitish usullari hisoblanadi. Modul birliklari tahlil qilish va sintezlash orqali o'zlashtiriladi. O'zlashtirilgan bilimlar fanning boshqa modullariga oid ma'lumotlar bilan sintezlanadi va amalda qo'llaniladi. Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin talabalarning o'zlarini bajargan ishlarini baholash lozim. Modulni o'rganish oxirida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi lozim. Bu – o'qituvchi va talabalarning faoliyati natijalari, ularning amalga oshgan va oshmagan ishlari yuzasidan mulohaza yuritish uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi.

6. Talabalarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakasini baholash. “Elektrotexnika va elektronika” fannini modul texnologiyasi asosida o'qitishda talabalarning bilimi va ko'nikmalari o'quv maqsadlariga muvofiq holda muntazam aniq mezonlar asosida baholanadi. Talabalarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakasini baholashda o'quv

maqsadlarga asoslangandik, haqiqiylik, haqqoniylik, ishonchlik, qulaylilik kabi tamoyillarga rioya etiladi. Bu bilan modulli o'qitish kutilayotgan natijani berayotgani yoki bermayotgani aniqlanadi. Xulosa qilib aytganda, "Elektrotexnika va elektronika" fannini o'qitishda ushbu

texnologiyani qo'llash talabalarda nazariy bilimlarni amaliyatga qo'llash, mustaqil fikrlesh, tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z bilim va qobiliyatlarini baholay olish, xato va kamchiliklarini anglash hamda ularni tuzatish ko'nikmalarini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.–Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.
3. Avliyoqulov N.X. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, – Buxoro, 2000.
4. Панарина Н.А. Дистанционное обучение: к вопросу об основных понятиях // социологические исследования. 2004. № 4. с. 116-121.



Abror NORTOJIYEV,

O'zbekiston Milliy Universiteti mustaqil izlanuvchisi,

E-mail: a.nortojiv86@gmail.com.

Toshkent arxitektura qurilish instituti "Matematika va tabiiy fanlar" kafedrasи dotsenti, f-m.f.n. Xudayberdiyev S.S. taqrizi asosida

METHODS OF TRAINING PHYSICS BASED ON INTEGRATIVE AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Abstract

The article discusses the methodological features of the teaching process of physics in higher education institutions in the field of construction. Given the introduction of a credit-module system in the educational process, the role of physics in the training of future civil engineers and its integration with other special general engineering disciplines is discussed. There are guidelines and recommendations for the effective organization of the teaching process and independent learning.

Key words: Credit-module, physics, trainings, interdisciplinary integration, inertial damper, buildings and structures, vibrations, construction, career guidance, civil engineer.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНЫХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В статье рассматриваются методические особенности процесса преподавания физики в высших учебных заведениях в области строительства. С учетом внедрения кредитно-модульной системы в учебный процесс обсуждается роль физики в подготовке будущих инженеров-строителей и ее интеграция с другими специальными общепрофессиональными дисциплинами. Даны указания и рекомендации по эффективной организации процесса урока и самостоятельного обучения.

Ключевые слова: Кредитный модуль, обучение физике, занятия, междисциплинарная интеграция, инерционный демпфер, здания и сооружения, колебания, строительство, профориентация, инженер-строитель.

FIZIKA MASHG'ULOTLARINI INTEGRATIV VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada fizika fanining qurilish sohasidagi oliy ta'lif muassasalarida o'qitish jarayonining uslubiy xususiyatlari ko'rib o'tilgan. Bunda ta'lif jarayoniga kredit-modul tizimining joriy etilganligi inobatga olinib, fizika fanining bo'laqak quruvchi-muhandislarni tayyorlashdagi o'rni va uning boshqa maxsus umummuhandislik fanlari bilan integratsiyasi xususida so'z yuritiladi. Dars jarayonlarini va mustaqil ta'lifni samarali tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul, fizika fani, mashg'ulotlar, fanlararo integratsiya, inersion dempfer, bino va inshootlar, tebranishlar, qurilish sohasi, kasbga yo'naltirish, quruvchi-muhandis.

Kirish. Bozor munosabatlariaga asoslangan iqtisodiy tizimlar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirdor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'mini topadi. Buning uchun ta'lifni tashkil etish jarayonida talabaning mutaxassislikka oid qobiliyatlari, ehtiyojlari va o'ziga xos jihatlarini xisobga olish lozim. Qurilish sohasidagi mutaxassislar tayyorlashda "Umumiy fizika" fanini o'qitishning nazariy masalalari asosiy ahmiyatga ega masalalardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdag'i "Fizika sohasidagi ta'lif sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lif tizimida fizika fanlarini sohalarga moslashtirilgan holda o'qitishni yo'lgan qo'yish masalasi belgilangan. Shu sababli, ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'munlash maqsadida fizika fanidan tashkil etiladigan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlaridagi mavzularni bevosita qurilish sohalariga tadbiq etilishiga katta e'tibor qaratish ko'zda tilimoqda. Bunda fizika faninig fan dasturi va sillabuslarini ishlab chiqishda shu jihatlar e'tiborga olinadi.

-Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Qurilish yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali

mutaxassislarini tayyorlash fanlararo integratsiya orqali amalga oshiriladi. O'qitishning fanlararo yondashuvni talabalarga mustaqil ravishda fan va ishlab chiqarishning turli sohalaridagi bilimlarni olish, ularni guruhash va muayyan kasbiy muammolarini yechishga imkon beradi. Bunda, D. I. Faxertdinovning fikriga ko'ra, ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etishda kursning taqdimotini zamonaviy fizika nuqtai nazardan amalga oshirish kerak. Kelajakda kasbiy faoliyatda fizik bilimlarni qo'llashning asosiy yo'nalishlarini namoyish etishi va ularning amaliy qo'llanilishiga yetarli miqdorda misollar keltirish lozim. Amalda keltirilgan misollar talabalar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Nazariy materialni taqdim etish jarayonida o'rganilayotgan ayrim tushunchalarining amaliy qo'llanilishiga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi [1]. R.G. Yaxin esa, kurslar va fanlar o'rtasidagi chegaralar o'zgaruvchan bo'lib, bu talabalarga bilimlarning ajralmas tizimini shakllantirishga imkon beradi. Fizika bilimlarining tub mohiyati shuni nazarda tutadiki, oliy o'quv yurtlarida talabalar tomonidan fizika darslarida shakllanadigan bilimlar umum texnik va maxsus fanlarni o'rganishda, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish uchun asos bo'ladi. Fizika kursining mazmuni talabalarning dunyoning zamonaviy fizik tasavvuri haqidagi g'oyalarini shakllantirishga xissa qo'shishi kerak. Bu holda fizika bilimlar yaxlitlashadi va

o‘qitiladigan fanlarning fanlararo aloqalarga yo‘naltirilgan umumiy qurilish metodologiyasi birlashtiradi degan fikrda [2]. D. I. Faxertdinova fizikaning “Majburiy tebranishlar. Rezonans hodisasi” mavzusida bo‘lajak quruvchi-muhandislarga asosan qurilish inshootlari va boshqa muhandislik inshootlarining tebranishlari haqida ma’lumot berish kerak. Bunda, ma’ruzaning batafsil taqdirmoti quyidagi tartibda tashkil qilinishi mumkin. Mavzuning asosiy tushunchalari aniqlanadi-tebranishlar, majburiy tebranishlar, rezonans. Tebranish tizimlarining differensial modeli ko‘rib chiqiladi, rezonans chastota va amplituda uchun matematik ifodalar topiladi. Tebranishlar va rezonansning qurilishdagi foydali va zararli ta’sirlarini eslatib o‘tishni tavsiya qiladi. V.V. Soboleva fizika darslarida kasbiy faoliyat obe’ktlarini loyihalashtirish uslubini amalga oshirishning muvaffaqiyati tabiyi va kasbiy fanlari o‘qituvchilarining hamkorligiga bog‘liq degan fikrda. Buni ta’minalash uchun fizika o‘qituvchisi quyidagilar haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak:

- kasbiy fan bloklarining fundamental asoslarini mazmuni bilish;

- kasbiy fan bloklaridagi ishlataladigan fizik qonunlarni, tushunchalarni, ta’riflarni to‘g‘ri talqin qilish. Bu bir xil fizik tushunchalarni turli fan bloklaridagi o‘qituvchilar tomonidan talqin qilinishdagi noaniqlikni yo‘q qilishga imkon beradi. Kasbiy faoliyat obe’ktlarini loyihalashtirish uslubining didaktik modelida ichki va tashqi aloqalar farglanadi. Ichki aloqa-bu umumiy fizika kursining tarkibidagi yetakchi qoidalarni va undagi asosiy bog‘lovchi elementlarni aniqlash maqsadida tahlil qilish natijasidir. Tashqi aloqa-bu o‘quv

rejasidagi maxsus fanlarning mavzularini tarkibiy va mantiqiy tahlil qilish, ularning mazmunini fizikaning asosiy qonunlari, tushunchalari bilan o‘zaro bog‘liqlik darajasini ajratib ko‘rsatish va mutaxassislarini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan asosiy mavzulararo bilimlarni aniqlashdan iboratligini ta’kidlaydi [3].

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Fanlararo integratsiyani amalga oshirishda laboratoriya, amalii mashg‘ulotlarni va mustaqil ta’limni tashkil etishda ham e’tibor qaratish lozim. Masalan, fizika fanidan “Matematik mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishini aniqlash” nomli laboratoriya mashg‘ulotini bajarish orqali talabalarning ma’ruza mashg‘ulotlarda egallagan nazariy bilmirlari amalii jihatdan mustahkamlanadi. Shu bilan birga, bu orqali talabalarning kasbga yo‘naltirish ishlarini ham amalga oshirish mumkin. Bu laboratoriya ishini bajarish davomida, mayatniklarning zamonaviy qurilish binolarida zilzila bardoshlikni ta’minalashda qo’llanilishi haqida ma’lumotlar berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunga misol qilib, AQSh da qurilayotgan “111 West 57th Street” binosida ishlatilayotgan inersion dempferni keltirish mumkin. Bu “eng ingichka osmono‘par bino” hisoblanib (1-rasm), balandligi 438 metr, eni 18 metr bo‘lib, unga og‘irligi 800 tonna bo‘lgan inersion dempfer o‘rnatish rejalashtirilgan. Bu dempfer binoning zilzila va shamol ta’sirlariga qarshi turishida muvozanatini saqlash uchun foydalaniladi. Inersion dempfer ikkita ustama-ust joylashgan yuklardan tashkil topgan bo‘lib, ulardan biri trosga osilgan, ikkinchisi esa asosga mahkamlangan.




1-rasm. “111 West 57th Street” binosi va inersion dempferning ko‘rinishi.

Agar bino tashqi kuch (shamol yoki yer silkinishlari) ta’sirida ma’lum bir tamonga og‘adigan bo‘lsa, dempfer qarama-qarshi tamonga og‘adi va o‘z og‘irligi tufayli binoning muvozanat holatiga qaytaradi hamda binoning buzilishini oldini oladi.

Bu kabi misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Dunyoda birinchi bo‘lib bunyod etilgan uzunligi yarim kilometrdan baland bo‘lgan “Taybey 101” binosida tayfun va yer silkinishlariga bardosh berish uchun umumiy og‘irligi 660

tonna bo‘lgan shar-mayatnikdan foydalanilgan. Bu shar-mayatnik binoning 87-91 qavatlariga joylashtirilgan bo‘lib, shamol tezligi 216 km/h ga yetganda ham binoning muvozanat holatini saqlashga imkoniyat yaratadi [4]. Inersion dempferlardan nafaqat, osmono‘par binolarda balki, qurilish inshootlarida ham foydalanilgan. Masalan, Londonda shahrida 2000-yilda qurilgan tebranuvchi ko‘prikda ham tebranishlarni susaytirish uchun inersion dempferlar ishlatilgan (2-rasm).





2-rasm. "London Millennium Footbridge" ko'prigining umumiy ko'rinishi.

Inersion dempferning afzalliliklari va kamchiliklari "T-sxema" asosida tahlil qilinsa, talabalarning ushbu mavzuni o'zlashtirish darajasi yanada ortadi.


Afzalliliklari:	Kamchiliklari:
<ol style="list-style-type: none"> 1. Ishonchli. 2. Oddiy tuzilishi. 3. Ishlash tamoyili Soddaligi. 4. Keng sohalarda ishlatalishi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'lchami katta. 2. Tan narxi qimmat.

Fizika fanidan amaliy mashg'ulotlarni olib borishda maxsus ishlab chiqilgan va tanlangan kasbiy yo'naltirilgan vazifalar to'plamidan foydalanish kerak [5]. Bunday turdag'i masalalar fizika fanini o'qitishning asosiy amaliy yo'nalishi hisoblanadi [6].

Quyida fizika fanidan qurilish sohasiga bevosita bog'liq bo'lgan masalalardan na'munalar keltirilgan:

a). Yassi devor issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 0,25 \text{ W/m} \cdot \text{K}$ bo'lgam materialdan qilingan. Devor qalinligi $d = 50 \text{ mm}$. Devorning mos ravishda sirtlaridagi temperaturalari: $T_1 = 50^\circ\text{C}$, $T_2 = 20^\circ\text{C}$. Yassi devor orqali o'tuvchi issiqlik oqimi zichligini toping [7].

Biz bir qatlamli tekis devorda issiqlik o'tkazuvchanlik jarayonining harorat grafigini tasvirlaymiz (3-rasm).



3-rasm. Biz bir qatlamli tekis devorda issiqlik o'tkazuvchanlik jarayonining harorat bog'liqlik grafigi.

Yassi bir qatlamli devorda issiqlik o'tkazuvchanligining issiqlik qarshiligi quyidagicha aniqlanadi

$$R_t = \frac{d}{\lambda} = \frac{0,05}{0,25} = 0,2 \frac{\text{m}^2 \cdot \text{K}}{\text{W}}$$

Yassi devor orqali o'tuvchi issiqlik oqimi zichligi quyidagi formula bo'yicha topish mumkin,

$$q = \frac{T_1 - T_2}{R_t} = \frac{50 - 20}{0,2} = 150 \frac{\text{W}}{\text{m}^2}$$

Demak, issiqlik oqimining zichligi $q = 150 \frac{W}{m^2}$ ga teng ekan.


b). Yuzasi 25 m² bo'lgan kvadrat shaklidagi xonaning o'rtasiga lampa osilgan. Lampa poldan qanday balandlikda osilsa, xona burchaklaridagi yoritilganlik maksimal bo'ladi [8]?

Yoritilganlik ifodasiga ko'ra,

$$E = \frac{I}{r^2} \cos \alpha$$

bu yerda, I —yorug'lik manbai kuchi, r —yorug'lik manbaidan xonaning burchagigacha bo'lgan masofa, α —yorug'likning tushish burchagi. 4-rasmdan ko'rinish turibdiki, $a = r \sin \alpha = \frac{b}{\sqrt{2}} = h \tan \alpha$ ekanligini hisobga olib,

$$E = \frac{I}{a^2} \cos \alpha \sin^2 \alpha$$



4-rasm. Xonada osilgan lampadan tarqalayotgan yorug'likning tarqalishi.

Yoritilganlikning maksimal qiymatini topish uchun yuqoridagi ifodadan α bo'yicha hosila olamiz va nolga tenglashtiramiz,

$$\frac{dE}{d\alpha} = \frac{I}{a^2} (2\cos^2 \alpha \sin \alpha - \sin^3 \alpha) = 0$$

Bu yerdan, $\tan^2 \alpha = 2$ va $h = \frac{b}{\sqrt{2} \tan \alpha} = \frac{\sqrt{2}}{\sqrt{2} \tan \alpha} = 2,5$ metr ekanligi kelib chiqadi.

Demak, yuqorida keltirilgan barcha masalalar bevosita qurilish sohasiga bog'liq bo'lib, bu talabarning fizika faniga qiziqishlariha zamin yaratadi.

-Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ma'lumki, hozirgi kunda ko'plap oliy o'quv yuturlarining ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etilgan. Kredit tizimi ta'lim jarayonida o'qilgan saatlar miqdorini emas, balki erishilgan natijani ko'rsatib beruvchi o'Ichov birligidir. Ya'ni mutaxassisini kompetentlik darajasiga baho beruvchi natijaga qaratilgan o'Ichov birligidir. Demak, kredit nafaqat o'quv faoliyatiga berilgan baho, balki, bajarilgan o'quv yuklamasini ko'rsatib turuvchi birligidir. Kredit-modul tizimining joriy etilishi professor-o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchingin o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahatlar beradi, nazorat qiladi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarining mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi [10].

Kredit-modul tizimida fizik mutaxassislar tayyorlamaydigan yo'nalishlarda umumi fizika fani uchun ajratilgan kredit miqdori o'rtacha 8 ga teng. Bundan ko'rindaniki, umumi fizika fanidan ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun ajratilgan saatga nisbatan, mustaqil ta'lim uchun ajratilgan saat ko'proq. Demak, kam vaqt ichida katta miqdordagi ma'lumotlarni talabalarga yetkazib berish talab etiladi. Chunki, auditoriya mashg'ulotlari uchun ajratilgan saatlar avvalgiga nisbatan o'rtacha 1,6 marta kamaydi. Bu muammoni qanday qilib hal

elesh mumkin? Bu muammoni yechishning eng to'g'ri yo'li bizning nazarimizda, auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limni to'g'ri hamda samarali tashkil etishdir. Bunda talabaning kelajakda qaysi yo'nalishda mutaxassis bo'lishini hisobga olish muhimdir. Ya'ni, fanlararo integratsiyani ta'minlash lozim. Misol uchun, Bino va inshootlar qurilishi (sanoat va fuqaro binolari) ta'lim yo'nalishida tasbih olayotgan talabalar kelajakda quruvchi-muhandis bo'lib yetishadi. Bu ta'lim yo'nalishidagi talabalar fizika fani bilan bevosita bog'liq bo'lgan: qurilish mexanikasi, qurilish materiallari va buyumlari, binolarning injenerlik kommunikatsiyalari, yog'och konstruksiylari, metall konstruksiylari, temirbeton va tosh konstruksiylari, qurilish fizikasi va binolar energiya samaradorlik injineringi kabi fanlarni 4-yil davomida o'zlashtirishlari talab etiladi. Yuqorida keltirilgan fanlarni puxta o'zlashtirishlari uchun albatta fizika fanidan olingan bilmal va ko'nikmalar zarurdir. Chunki, fizikaning oddiy qonun va qonuniyatlarni bilmay turib, qurilish binolarda ro'y berayotgan fizik hodisa hamda jarayonlarni tushuntirib bo'lmaydi.

Fizikani ma'ruza eshitish, amaliyot darslarida masalalar yechish va laboratoriya mashg'ulotlari eksperimentlar bajarish orqali chuqur o'rganib boriladi. Agar talaba ma'ruza darsida o'tilgan materiallarni chuqur o'rganmasa va o'z ustida mustaqil ishlamasaga yetarli bilinga ega bo'lmaydi. Talabalar uchun mustaqil ishlarning muhimligini hisobga olib O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlarida mustaqil ta'limga alohida ahamiyat berilgan. Fizika fani uchun ajratilgan o'quv yuklamalar hajmining deyarli 50% mustaqil ta'limga ajratilgandir. Talabalarning mustaqil ishlarni tashkil etishda agar iloji bo'lsa, axborot texnologiyalari (IT) va shu bilan birga nazariy, amaliy, sinov va nazorat materiallari, kasbiy qo'llaniladigan muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalardan foydalangan holda kasbiy yo'naltirilgan didaktik materiallar yordamida tashkil etilishi kerak. Talabalarning mustaqil ishlarni tashkil etishga bunday yondashish nafaqat talabalarning fundamental bilimlari sifatini

oshirishga yordam beradi, balki ularning olgan bilimlarini keyingi ta'lif jarayonida va kelajakdag'i kasbiy faoliyatida qo'llash qobiliyatini shakllantiradi. Mustaqil ishlarni to'g'ri va samarali tashkil etililishi talabalarning fundamental bilimlari sifatini oshirishga yordam beradi hamda olgan bilimlarini keyingi ta'lif jarayonida va kelajakdag'i kasbiy faoliyatida qo'llash qobiliyatini shakllantiradi. Buning uchun ma'rzu, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'shimcha materiallardan foydalanimustaqil ishlarni tashkil etish lozim [9]. Ushbu ishlarni amalga oshirishda fizika fani professor-o'qituvchisi va maxsus fanlarning professor-o'qituvchilar o'rtaida yaqin hamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Umuman olganda, fizika fani qurilish sohasidagi oliy ta'lif muassasalaridagi bo'lajak

quruvchi-muhandislarning ixtisosliklarini muvaffaqiyatlari egallashda eng muhim fundamental fanlardan biridir [11].

-Xulosalar va takliflar

(Conclusion/Recommendations). Yuqorida keltirilgan fizika fanidan tashkil etilayotgan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida bevosita qurilish sohasiga tegishli bo'lgan misollar orqali talabalarning fizika fani bo'yicha olgan bilimlari mustahkamlanadi. Bunda, "T-sxema" va "Integratsiya" metodlarining qo'llanishi darslarning samarali tashkil etilishiga olib keladi. Buning natijasida bo'lajak quruvchi-muhandislar fizika va qurilish bilan chambarchas bog'liqligini tushinib yetadi hamda talabalarning bu orqali kasbga yo'naltirish ishlari amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR

- Д. И. Фахердинова, В. В. Кондратьев, А. И. Осипова. Методические особенности преподавания физики в строительном вузе. Вестник Казанского технологического университета. 2014. 319-323 стр.
- Р.Г. Яхин, Л.И. Потапова. Особенности преподавания физикив строительном вузе. Казанский педагогический журнал. 2015 - 75-79 стр.
- Соболева В.В. Формирование основ проектировочной деятельности в курсе общей физики в инженерно-строительном вузе МПГУ; Часть 3-М.: МПГУ, Издатель Карпов Е.В. - 2012 г., стр. 213-216.
- Begmatova D.A., Nortojiyev A.M. Umumiy fizikada integrativ yondashuv, "Fizika, matematika va informatika" ilmiy-uslubiy jurnal., Toshkent-2020 yil., 5-son, 28-33 betlar.
- Nortojiyev A.M. Fizikani o'qitishda integrativ ta'limg'oning o'rni. Fizika fanining rivojida istedotli yoshlarning o'rni. RIAK respublika ilmiy anjuman. O'zMU-2020 y.19-may. 371-376 betlar.
- Б.В. Соболева. Дис. канд. пед. наук, АГУ, Астрахань 2019. 41 стр.
- Б.В. Бухмиров, Т.Е. Созинова. Пакет задач по разделу «Стационарная теплопроводность и теплопередача» курса тмо. Учебно-методическое пособие. Иваново 2018, -88 стр.
- Волькенштейн В.С. Сборник задач по общему курсу физики- М.:1985. -384 стр.
- Е. Р. Ригер, Ю. Р. Гильманов, Р. К. Лукс, В. В. Ефимов. Методические указания к самостоятельной работе студентов при изучении физики. Ульяновск-2008-36 стр.
- Begmatova D.A., Nortojiyev A.M. "Qurilish sohasidagi oliy ta'lif muassasalarida fizika mashg'ulotlarini o'tkazishning integratsiyasi". Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal. 2020-yil 12-son. 40-45 betlar.
- Мирзабекова О.В., Соболева В.В., Агафонова А. Формирование проектной деятельности при обучении физике студентов инженерно-строительных специальностей // Человек и образование. – 2013. –№ 1 (34). –113–116 с.



Ozoda NURALIYEVA,
Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti o'qituvchisi
ozodanuraliyeva251@gmail.com

Buxoro Davlat Universiteti dotsenti, PhD Akhmedova M.B. taqrizi asosida

ANALYSIS OF INNOVATIVE METHODS' EFFECTIVENESS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract

The article provides ideas on foreign language teaching methods, the effectiveness of the use of innovative methods in foreign language teaching. In addition, a number of foreign language teaching methods have been analyzed and examples have been provided.

Key words: foreign language teaching methods, innovative methods, types of teaching methods, effective ways of teaching, skills.

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация

В статье представлены идеи о методике обучения иностранному языку, эффективности использования инновационных методов в обучении иностранному языку. Кроме того, был проанализирован ряд методов обучения иностранным языкам и приведены примеры.

Ключевые слова: методы обучения иностранному языку, инновационные методы, типы методов обучения, эффективные способы обучения, навыки.

CHET TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

Annotatsiya

Maqlolada chet tili o'qitish metodlari, chet tili o'qitishda innovatsion usullardan foydalanishning samaradorligi haqida fikrlar keltirilgan. Shu bilan birga chet tili o'qitishning bir qancha metodlari tahlil qilingan va misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: chet tili o'qitish metodlari, innovatsion usullar, o'qitish metodi turlari, o'qitishning samarador yo'llari, qobiliyat.

Introduction. One of the most important tasks of higher education institutions is to train specialists who can adapt to changes in their professional life. In the late twentieth and early twenty-first centuries, some methods were developed by teachers to develop foreign language skills necessary for future professional activities. However, the effectiveness of these methods has not been studied. This fact aroused the interest of the authors and led to the idea that scientific research was needed to identify the most effective methods of teaching foreign languages for special purposes.

Literature review. This article is based on the analysis of the scientific work of foreign scholars, including the problem of teaching foreign languages to students of the humanities for special purposes, as well as the results of interviews with undergraduate students, the results of a survey conducted among teachers specializing in the teaching of foreign languages for special purposes in the humanities, as well as special-purpose special languages [1]. According to students, the most effective methods of teaching foreign languages for special purposes in the humanities are: discussion, ICT (information and communication technologies) and SCRUM (framework that helps teams work together, encourages team to learn through on a problem). According to teachers, the most effective method is discussion, ICT and roundtable discussion. According to students, the "dilemma" method has the least impact. As for teachers, a less effective method is CLIL (content and language integrated learning) [2].

Research Methodology. Teaching a foreign language can be a difficult but rewarding endeavor that reveals completely new ways for students to communicate. It is useful for teachers to have knowledge of different language learning

methods, including ESL teaching methods, so that they can adapt to the teaching methods and adapt as needed [3].

Keep reading all the information you need to know about the most popular foreign language teaching methods. Some of them are communicative approach, complete physical response, direct method, task-based language learning, grammar-translation, audio-lingual approach and so on [4].

Here is a useful brief description of the most common methods of language teaching and ESL teaching methods. You might think so: he teaches a foreign language philosophy.

Direct method

Directly, all learning is done in the target language, which encourages the reader to think in that language. The student does not engage in translation and does not use the native language in class. Practitioners believe that students should know a second language from their mother tongue without any interference [5].

Teachers do not emphasize strict grammatical rules, but teach indirectly through induction. This means that students independently determine grammar rules through language practice. The goal of the students is to develop a connection between experience and language. They focus on developing good pronunciation and speaking skills [6].

This method improves our students' comprehension, fluency, reading and listening skills. Standard methods are question and answer, conversation, reading aloud, writing, and correcting students' language learning style.

Grammar-translation

Using this method, the student first learns by translating into the target language. Teachers encourage students to memorize grammar rules and vocabulary. Speech and listening are given little or no attention at all. Teachers

conduct classes in the student's native language with this ESL teaching method.

The two main goals of this method are to increase the student's ability to understand literature in a second language and to promote the student's overall intellectual development. Grammar exercises are a general approach. Another popular exercise is the translation exercise, which emphasizes the form of writing instead of its content [7].

Although the grammar-translation method used to be one of the most popular methods of teaching a language, it has significant shortcomings that make it unattractive in modern schools. Basically, students have difficulty speaking a second language because they are not taught to speak [8].

Analysis and results. Audio-Lingual. The audio-lingual approach encourages students to develop habits that support language learning. Students learn primarily through patterned exercises, especially dialogues that the teacher uses to help students practice and memorize the language. These dialogs conform to standard communication configurations.

This method uses four types of dialogs:

Repetition, in which the student clearly repeats the teacher's words

A deviation in which one of the words has a different appearance from the previous sentence (for example, the word may vary from singular to plural)

Substitution, which involves replacing one word with another, leaves the sentence structure unchanged

Rewriting, where the student repeats the teacher's words

The name of this technique comes from the order of teaching language skills. It begins with listening and speaking, then reading and writing, i.e., emphasizing listening and speaking the language before experiencing the written form. Therefore, teachers use only the target language in the classroom with this TESOL method [9].

Many online language learning programs and applications today are closely following the method of teaching audio-lingual language. Although this is an old way of teaching ESL, it is a good option for distance and / or independent language learning.

Communicative Language Teaching (CLT)

Today, CLT is one of the most popular approaches and methods of language teaching. Keep reading to learn more about it [10].

This method emphasizes interaction and communication for effective second language teaching. Students engage in everyday situations, in the language they may encounter. For example, students may submit introductory interviews, suggestions, invitations, complaints, or indicate a time or place.

Teachers also cover learning topics beyond the usual grammar so that students develop the ability to respond to a variety of situations.

CLT teachers focus on being assistants, not ordinary teachers. It helps students achieve the main goal of the CLT, learning to communicate in the target language instead of emphasizing grammar skills.

Role-playing games, interviews, group work, and brainstorming are exercises that are widely used in teaching communicative language, as well as information space exercises that encourage hunter-gatherer and student interaction.

Modern ESL textbooks like Four Corners, Smart Choice, or Touchstone emphasize communicative activity.

Conclusion. The study provided a general understanding of the effectiveness of foreign language teaching methods for professional purposes such as discussion and ICT among teachers and students. The effectiveness of the discussion method is explained by the fact that it allows students to combine their knowledge in different fields and apply their language knowledge and skills in practice in solving this problem. It helps students to think clearly, to take information critically, to identify tools and evidence to emphasize the main idea, to validate and substantiate it, and as a result to improve their understanding of any theoretical material. The use of ICT in the educational process can significantly improve the effectiveness of the educational process and lead to new approaches and organizational forms of educational work.

REFERENCES

1. ALCARAZ VARÓ, E. 1990. Three Paradigms of the Investigator! Linguistic. Alkoy: Marfil.
2. Alexander, L.G. 1967. The first thing first. London: Longman.
3. ALLWRIGHT, R.L. 1982. "Understanding and Searching for Student Needs," M.A. Geddes and G. Sturridge (ed.), Individualization. Oxford: Modern English Publications.
4. BLOOMFIELD, L. 1942. A Guide to the Practical Study of Foreign Language Languages. Baltimore: American Linguistic Society.
5. BREEN, M.P. 1987. "Modern Paradigms in Curriculum Design."Teaching, XX, 3 and 4. Cambridge: Cambridge University Press.
6. GNALE, M. and SWAIN, M. 1980. "Theoretical Foundations of Communicative Permission to teach and test a second language. "Applied Linguistics, 1.1.
7. CANDLIN, C.N. 1984. "Syllabus design as an important process," in C.J. Bramfit (ed.), General English Curriculum. ELT documents, 118.
8. CHOMSKI, N. 1957. Syntactic structures. The Hague: Mouton.
9. DEWEY, J. 1974. Educational experience. New York: Koller.
10. ELLIS, R. 1985. Understanding Second Language Acceptance. Oxford: Oxford University Press.



УДК: 37.013.46

Rashid OMONOV,

Termiz davlat universitetining pedagogika instituti Sirtqi bo'lim boshlig'i

E-mail: shav_74@mail.ru

Termiz davlat universitetining pedagogika instituti dotsenti, p.fff.d. Qosimov Sh.U. taqrizi ostida

A SYSTEM OF CLASSES ORIENTED ON THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN CHILDREN OF YOUNG SCHOOL AGE IN NATURAL LESSONS

Abstract

One of the most important ways out of the ecological crisis is ecological education and training of children and their development, this contributes to the formation of new ecological thinking and new ecological relations in children. The article discusses the system of classes focused on the formation of ecological thinking in children of primary school age in the classroom on ecology.

СИСТЕМА ЗАНЯТИЙ, ОРИЕНТИРОВАННАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА УРОКАХ ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ

Аннотация

Одним из важнейших путей выхода из экологического кризиса является экологическое воспитание и обучение детей и их развитие, это способствует формированию у детей нового экологического мышления и новых экологических отношений. В статье рассматривается система занятий, ориентированных на формирование экологического мышления у детей младшего школьного возраста на занятиях по экологии.

Ключевые слова: экология, ребенок младшего школьного возраста, мышление, окружающая среда, занятие, средство, программа, теоретическое мышление.

TABIATSHUNOSLIK DARSALARIDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA EKOLOGIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR TIZIMI

Annotatsiya

Ekologik inqirozdan chiqishning eng muhim yo'llaridan biri bo'lib bolalarga ekologik tarbiya va ta'lif berish hamda uni rivojlanishi hisoblanib, bu bolalarda yangicha ekologik fikrlashni va atrof-muhitga yangicha munosabatlarning shakllanishiga yordam beradi. Maqolada atrof-muhit darslarida kichik maktab yoshidagi bolalarda ekologik fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tizimi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, kichik maktab yoshidagi bola, fikrlash, atrof-muhit, mashg'ulot, vosita, dastur, nazariy fikrlash.

Kirish. O'qitish jarayonida ilmiy tushunchalar tizimini egallab borish kichik maktab yoshidagi bolalarda tushunchali yoki nazariy fikrlash asoslari rivojalanayotgani haqida gapirish imkonini beradi.

Nazariy fikrlash rivojlanib borayotganda ko'rgazmali-harakatchan fikrlash ham, ko'rgazmali-namunaviy fikrlash ham albatta, yo'q bo'lib ketmaydi, balki ular qayta o'zgaradi, takomillashadi, o'zлari yangicha rivojlanish bosqichiga ko'tariladi. Ular orasida ko'p qiyofali, murakkab, bir vaziyatdan ikkinchi vaziyatga turli xil individual variatsiyalarda o'zgarib boruvchi munosabatlardan yaratiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar ko'pincha umumlashtirish o'rниga sintezlashni amalga oshiradilar, ya'ni, barcha predmetlarni umumiy belgilari bo'yicha emas, balki ayrim sabab-oqibat aloqadorliklari hamda predmetlarning o'zaro harakatlari bo'yicha birlashtiriladilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Psixologik-pedagogik adabiyotlarning tahlili fikrlash atamasini tushunishdagi turli xil yondashuvlarni ko'rsatdi. Psixologlar kichik maktab yoshidagi bolalarda umumlashtirishni rivojlanishining bir nechta darajalar - hissiy, amaliy-harakatchan, qiyofali-tushunchali, tushunchali-qiyofaviy, ilmiy darajalarini belgilaganlar [2].

Fikrlash - sub'ekt tomonidan yangi g'oyalarni ijodiy yaratishda, voqeja va hodisalarini bashorat qilishda voqelikni maqsadga yo'naltirilgan, vositali va umumlashtirilgan tarzda aks ettirishidan iborat bo'luchchi ahamiyatlari aloqalarni faol

aks ettirishning oliv shakli (falsafiy til bilan aytganda); oliv nerv faoliyat funksiyasi (fiziologiya tili bilan aytganda); o'rganilayotgan fenomenlar orasidagi aloqadorliklar va munosabatlardan tushunchalar yordamida belgilanadigan, faqat odamga xos bo'ladigan psixik aks ettirishning tushunchali shaklidir (psixologiya tilim tizimida) [1].

Fikrlash - bu narsalarning mohiyatini ochadigan g'oyalar harakatidir. Uning natijasi bo'lib qiyofa emas, balki biron-bir fikr yoki g'oya sanaladi. ikrlashning o'ziga xos natijasi bo'lib tushuncha, predmet (narsa)lar sinfining ulardagi eng umumiy va ahamiyatli o'ziga xosliklarning umumlashtirilgan aks etishi sanaladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Metodology). Biz tadqiqot muammosini tahlil qilib chiqqidik va uning nazariy-metodologik asosi sifatida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar fikrlashining umumiy qonuniyatlarini aniqlandi. Kichik maktab yoshi davrida bolalarning fikrlashlari tushunchalardagi zichlashish, tartiblashish va integratsiyalashish tomonga qarab yo'naltiriladi, bu yaxlit tizimni tashkil etuvchi ob'ektiv o'zaro bog'langan hodisalarning sohasini kengaytirishga imkon beradi.

To'g'ri shakllantirilgan ekologik fikrlash bilish faolligini ifodalaydi, ekologik qonuniyatlarining tushuntirilishiga yordam beradi va tabiatni muhofaza qilish zaruratinining tushunib etilishiga ishonch paydo bo'lishiga olib keladi, maktab o'quvchilari tomonidan tabiat hodisalarining mohiyatini tushunib etishlarida asos bo'lib hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Fikrlash darajasiga ega bo'lgan bola mahsuldor faoliyatning belgilangan vazifani hal qilish uchun namuna bo'yicha ish olib borish, predmetlar o'chami va shakllarini taqoslash talab qilinadigan istalgan turlari bilan yaxshi ishlay oladi. ko'rgazmali-qiyofaviy fikrlash uchun vazifaning eng avvalo, taqdim etilishi borasida, faqat mana shundan keyingina konkret predmetli asosda hal qilish mahorati xos bo'ladi.

Bunday tizimni ishlab chiqishda biz ekologik fikrlashni shakllantirish jarayonida rioya qilish ancha samarali bo'ladigan bir qator shart-sharoitlarni ajratib ko'rsatdik:

tabiat dunyosi bilimlarning tuganmas manbaiga aylanganda, chunki bunda bola uchun qulay shaklda faktlar, hodisalar, bog'liqliklar, qonuniyatlar berilgan bo'lib, bu bolalarga tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash, ya'ni, fikrlashning mantiqiy operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi;

ko'rgazmali-qiyofali fikrlash bosqichma-bosqich ravishda odamning ekologik fikrashi uchun asosni yaratadigan nazariy fikrlash bilan o'rinn al mashib boradi,

chunki ekologik fikrlash organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorliklarini tushunishga tayanib, bularni anglab etish uchun kuzatishlardan boshlab ma'lum bir xulosalar, umumlashtirishlarni chiqarishgacha katta hajmdagi aqliy mehnat zarur bo'ladi;

bolalarning faoliyati faol, izlanishli xususiyatga ega bo'lishi;

bolalarning emotsiyonal hozirjavobligi va qabul qiluvchanligi rivojlanishiga yordam beradigan muhit yaratilishi;

ekologik fikrlashni shakllantirish jarayoni ta'lim mazmunida tabiiy-ilmiy va gumanitar komponentlarning integratsiyalashuvni sharoitlarida faoliyatning kuzatish, tajriba qilish, tadqiqotchilik ishi, modellashtirish, o'yin, badiiy faoliyat, bashorat qilish kabi usullari orqali boradi;

pedagoglar tomonidan ekologik o'yinlar, loyiha himoyasi, sayohat, bayram, majmuaviy sayohat kabi o'quv jarayonini tashkil etishning noan'anaviy shakllari va metodlari, rivojlaniruvchi texnologiyalardan foydalanish.

Mashg'ulotlar tizimi 1-jadvalda tasvirlangan "Yashil uy" dasturi asosida ishlab chiqilgan.

1-jadval

Ekologik fikrlash komponentlarini shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tizimi

№	Дарс мавзуси	Дарснинг дастурий мазмуну (экологик компонент)	Ekologik fikrlashning shakllantiriladigan komponentlari	Ekologik fikrlashni shakllantirish bo'yicha ishlar mazmuni
1	Tabiat nima?	Jonli va jonsiz tabiat, ularning o'zaro aloqadorliklari. "Tabiat va odam – bir butun yaxlit narsa". Mdellashtirish: "Odam – tabiatning bir qismi".	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, bashorat qilish, gipotetiklik	"Tabiat yaxlit bir butun narsa" jumlasini tushuntiring. Tabiat komponentlarini belgilari bo'yicha 2 ta guruhsiga ajrating: jonli, jonsiz. Tuproqni qaysi guruhsiga kiritingiz? Isbotlang. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun kapalak va gullar xuddi do'stlashgandek doim yonma-yon? Farazlaringizni aytинг. Quyidagilar orasidagi o'zaro aloqadorlikni belgilang: A) o'simliklar va havo; B) o'simliklar va hayvonlar. Jonli va jonsiz tabiatdagi elementlar bo'yicha keyingi kun ob-havosini oldindan aytib bering. Quyosh tomonidan Erdagi hayot uchun yaratiladigan shart-sharoitlar nomlarini ajratib ko'rsating: issiqlik, suv, yorug'lik, mineral tuzlar, havo.
2	Tabiatning xilma-xilligi (ekskursiya)	Tabiatning xilma-xilligi, uning asosiy komponentlari, tabiatdagi o'zaro aloqadorliklar haqidagi materialni kengaytirish	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, bashorat qilish, gipotetiklik, originallik	Jonli mavjudotlarni jonsiz tabiat predpetlaridan farqini aytинг. Jonli tabiat ob'ektlari tabiatdagi jonsiz ob'ektlar bo'lmasa ham yashay oladimi? Isbotlash kerak: Berilgan: quyosh, yomg'ir-qor – jonsiz tabiat ob'ektlari. Gul, asalari, odam – jonli tabiat ob'ektlari. Ko'rsatib o'tilgan ob'ektlarning qaysi birlari bir-biriga bog'liq? Agarda quyosh yo'q bo'lib ketsa, suv o'tlari va krotlar yashay oladimi? Ekologik belgilarni ishlab chiqing, ularni kerakli joylarga qo'yib chiqing.
3	Tabiatning inson ta'siri ostida o'zgarishi	Oxo'jalik faoliyati va insonlar nojo'ya xulq-atvoring tabatga salbiy ta'siri	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, bashorat qilish, muqobililik	Odamning tabiatga turli xil ta'sirlariga misollar keltiring: a) ijobiy ta'sir ko'rsatish; b) salbiy ta'sir ko'rsatish. № 1- mashq. "Ehtimoliy echimlar".

4	Tabiat xavfxatar ostida	Kishilarning tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishlarining omillari, ularning natijalari haqidagi tasavvurlarni tizimlashtirish va kengaytirish, inson aybi bilan yo'qolib ketgan, shuningdek, yo'qolish xavfi ostonasiga kelib qolgan organizmlarning konkret turlari bilan tanishtirish	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, bashorat qilish, muqobillik	Misol namunasida tabiiy aloqalarning buzilishi natijasini ko'rsating. O'simliklar va hayvonlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kishilarning harakatlarini aytib bering. №2-mashq. "Muqobilni tanlash". Agarda inson ilgarigidek daryo, ko'l, dengizlarni ifloslantrishda davom etaversa, bir oy, yil, o'n yildan keyin nima bo'ladi? Guruhlarga ajrating: shoxlar sinishi; suv va havoning ifloslanishi; qurbaqa va baqalarning yo'q bo'lib ketishi; o'rmonlarning yo'q qilinishi; kapalaklarni tutish; mo'yna va go'sht uchun hayvonlarni ovlab, qirish. Birinchi ustunga kam uchraydigan, ikkinchi ustunga esa yo'q bo'lib ketgan hayvonlarni yozing. "Insonning tabiatga ta'siri" modelini tuzib chiqing.
5	Tabiatni muhofaza qilish	Tabiatni muhofaza qilish haqida bilimlarni tizimlashtirish va kengaytirish, mahalliy miqyosdagagi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar bilan tanishishni davom ettirish: havo va suvni ifloslanishdan himoya qilish; o'rmonlarni tiklash; kamyob o'simliklar va hayvonlarni muhofaza qilish; qo'riqxonalarni tashkil etish.	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, bashorat qilish, muqobillik	"Tabiatni muhofaza qilish" modelini tuzib chiqing. "Tabiatga faol yordam berish – har bir fuqaroning burchi" iborasini tushuntiring. №3-mashq "Aloqadorlikni belgila". Jonli tabiat ob'ektlarini toping, ularning holatini baholang. Ular bilan nima ro'y berishi mumkin edi? Ma'lumotlarni va izlanayotgan narsani ajratib ko'rsating. Gipotezani tuzing. Tabiatning "Shikoyat daftari" loyihasi. Tabiatni muhofaza qilishda sen qanday ishlarda qatnashgan bo'lar eding? Qushlarni qishda ovqatlantirish uchun oziq-ovqat zahiralarini, tarvuz, qovun, qovoq urug'lari toplash. "Tabiat xavfxatar ostida". Oxur tayyorlash. Kamyob va yo'qolib borayotgan o'simliklar hamda hayvonlarni muhofaza qilish.
6	Hayvonlar hayoti	O'simlikxo'r, go'shtxo'r va hamma narsani eyaveradigan hayvonlar, oziqlanish zanjirlari va tarmoqlari, ekologik piramida, organizmlarning atrof-muhit bilan jips aloqadorligining nmaoyon bo'lishi sifatida o'simliklar va hayvonlardagi himoya vositalari, "hayvonlar turlari" va "hayvonlar guruhlari" tushunchalari.	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, bashorat qilish, gipotetiklik	Hayvonlarning hayotida yorug'likning qanday o'rni bor? O'z fikringizni aytинг. Shamolning, ya'ni, havo oqimining hayvonlar va o'simliklar hayotida tutgan o'rni nimadan iborat? Istalgan hayvonni u yashayotgan shart-sharoitlardan mahrum qilish mumkin emasligini isbotlang. Nima uchun o'simlikxo'r hayvonlar yirtqich hayvonlarga nisbatan oziq-ovqatga ko'p ishlatalidi? O'z fikringizni aytинг. O'simliklar, hayvonlar, qo'ziqorinlar shohligi orasidagi o'zaro aloqadorliklarning sxemasini tuzing va ko'rsatib o'ting. Nima uchun qumursqalar o'rmon sanitarlari deyiladi? №1, 2,3,4-o'yinlar [5, 31-37-b], 6 [6]. O'simlikdan tayyorlangan ovqatlar go'shtdan tayyorlangan ovaqtga nisbatan kam to'yimli bo'ladi, demak... gapni davom ettiring. Go'shtxo'r hayvonlar o'simlik bilan, o'simlikxo'r hayvonlar go'shtxo'r hayvonlar bilan, o'simliklar o'simlikxo'r va go'shtxo'r hayvonlar oziqlana oladimi? Ular nima bilan oziqlanadilar? O'simlikxo'r hayvonlar va tinch yuradigan go'shtxo'r hayvonlar orasida qanday umumiy moslamalar bor? Yirtqich go'shtxo'r hayvonlar qanday moslamalarga ega bo'lishlari zarur? Oziqlanish zanjirlari sxemalari go'shtxo'r hayvonlarning yashashi tinch ekanligi haqida

				faraz qilishga asos beradi? Bu shundaymi? Hayvonlarni guruhlarga ajrating: ayiq, tulki, kapalak, ilon, chivin, bo'ri. Qanday belgiga ko'ra tasnifladingiz? Agarda odamlar zaharli ximikatlar yordamida biron-bir hasharotlardan qutulishga harakat qilsalar, nima bo'ladi? Agarda erda qurbaqa, ilon, boyqush, ninachilar qolmasa, nima ro'y berган bo'lar edi?
7	O'simliklar qanday ko'payadilar?	O'simliklar va hayvonlarning o'zarlo aloqadorliklari, mevalar va urug'larning tarqalishga moslashganligi belgilarini aniqlash	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, gipotetiklik	O'simliklarning urug'lari va mevalarini ko'zdan kechiring, ular nima uchun uchib ketishi, suzib ketishi, sochilib ketishi, ona o'simlikdan "mushuklar va kuchuklarning elkasiga o'tirib olib" tarqalib ketishlari haqida fikr yuriting. Gipotezalarni olg'a suring. Hasharotlar va gulli o'simliklarning o'zarlo moslashganligini aytib berishga urinib ko'ring. Bu organizmlar bir-birisiz yashay oladimi? O'simliklar urug'lari odatda qog'oz paketchalarda saqlanadi. Nima uchun bunday vaziyatda urug'lari o'sib chiqmaydi? Agarda o'simlikni doka bilan qoplab yopib qo'yilsa, nima ro'y beradi va nima uchun?
8	O'simliklarni muhofaza qilish	Odamning o'simliklarga salbiy ta'siri omillarini yoritib berish, qo'riqlanadigan o'simliklarning ayrim konkret turlari bilan tanishitirish	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, bashorat qilish, muqobillik originallik	"O'simliklarning odam va hayvonlar uchun ahamiyati" mavzusida konsept tuzing. Bolalarning quyidagi bahsini hal qilib bering: A) butalar o'rmon uchun kerak; B) butalar o'romn uchun kerak emas. O'z javobingizni asoslang. "Erda o'simliklarsiz bir kun" o'yin-muloqoti.
9	Hayvonlarni muhofaza qilish	Odamning hayotida va tabiatda hayvonlarning ahamiyati haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, odamning hayvonlarga salbiy ta'siri omillarini yoritib berish.	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, bashorat qilish, originallik	"Erda hayvonlarsiz bir kun" o'yin-muloqoti. O'rmon yong'inlari o'rmondag'i hayvonot dunyosiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Agarda yovvoyi yirtqich hayvonlar yo'q qilib yuboriladigan bo'lsa, nima ro'y beradi? Ninachilarni atrash kerakligini bolalarga qanday tushuntirishni o'ylab ko'ring.
10	Tabiatda hamma narsa o'zarlo bog'liq	Tabiatdagi o'zarlo aloqadorliklar haqidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish	Tahlil, sintezlash, umumlashtirish, bashorat qilish	O'simliklar tabiatda qanday o'zarlo aloqadorliklarda bo'ladi? O'zarlo bir-biri bilan tur ichidagi munosabatlarda bo'ladigan so'zlar jufti tanlab olingan: o'simlik, kurtak; o'simlik, quyosh; o'simlik, odam; hayvon, o'simlik. O'yinlar №3 [5], №5 [4], №7, №8 [4]. O'simliklar va hayvonlar orasida qanday farqlar mavjud?

Ishlab chiqilgan tizimni tahlil qilishda ta'kidlab o'tish zarurki, unda tabiatshunoslik darslarida kichik yoshdag'i mifik o'quvchilarida ekologik fikrlashni shakllantirishning biz ajratib ko'rsatgan shart-sharoitlari yuzaga chiqarilgan. O'quv materiali mazmunini tanlab olish muammolilik tamoyillari asosida amalga oshirilgan bo'lib, o'qitish jarayonida atrof-muhitni bilish-anglashning reproduktiv, tadqiqotchilik, qisman izlanishli va ijodiy usullari uyg'unlashtirildi[8].

Maktabda tabiatning turli hildagi hodisalarini differenqiallashgan holda o'rganish atrof-muhit, unda odamning tutgan o'rni va roli haqida yaxlit tasavvurni shakllantirishga imkon beradi. Kichik sinflarda tabiatshunoslikning ayrim bo'limlarini ekologizatsiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan urinishlar mavjud holatni to'la hal qilishga imkon bermaydi. Bola tirk organizmlar haqida, unga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillar to'g'risida, eng asosiysi esa – o'zining bu omillar tizimidagi passiv yoki faol

tutgan o'rni haqida o'zarlo bog'liqlikdagi har tomonlama to'laqonli axborotlarni ololmaydi. Shuning uchun o'quvtarbiya jarayonlariga ekologik fikrlashni shakllantirishga yo'naltiriladigan mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish hamda uni joriy qilish o'ta dolzarb bo'lib sanaladi.

Xulosa va takliflar
(Conclusion/Recommendations). Mavzuni o'rganish davomida ekologik fikrlash shakllanishining psixologik-pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi. Ajratib ko'rsatilgan shart-sharoitlar asosida biz diagnostik choralar tadbirini ishlab chiqdik, u o'z ichiga ekologik fikrlash shakllanganligi ko'rsatkichlari va darajalarini, shuningdek, ekologik fikrlash shakllantirilishiga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tizimini oladi. O'quv materiali mazmunini tanlab olish muammolilik tamoyillari asosida amalga oshirilgan bo'lib, o'qitish jarayonida atrof-muhitni bilish-anglashning reproduktiv,

tadqiqotchilik, qisman izlanishli va ijodiy usullari uyg'unlashtirildi.

Tadqiqot xulosalari ko'rib chiqilayotgan mavzuning har tomonlama to'liq va tugal hal qilinishiga da'vo qilmaydi.

Aksincha, bu faqat atrof-muhit darslarida kichik maktab yoshidagi bolalarda ekologik fikrashni shakllantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini anglab etish yo'lidagi bir urinish bo'lib sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Мухина В.С. Возрастная психология. М.: Академия, 1997.
2. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер Ком, 1999.
3. Страунинг А.М. Решаем экологические рассказы-задачи. // Начальная школа. 2002. № 2 .
4. Фетисова Н.В., Лазарева О.Н. Игровые технологии на уроках естествознания в начальной школе: Методические рекомендации по организации детских игр. Екатеринбург.: УрГПУ, 1999.
5. Богданец Т.П.. Экологические игры с младшими школьниками. // Начальная школа: плюс – минус. 2000. № 8
6. Петровска Р.А. , Голов В.П., Сивоглазов В.И. Методика обучения естествознанию и экологическое воспитание в начальной школе. М.: Академия, 1999.
7. Ермаков Д.С., Суравегина И.Т. Учимся решать экологические проблемы. // Биология в школе. 2002. №7.
8. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta'limni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish / Ped. fan. fal. dok dis.– T., O'MKHTTKMOQTI, 2018. – 176 b.



Шуҳрат ОТАҚУЛОВ,

МТТДМҚТМОИ "Ижтимоий фанлар" кафедраси доценти PhD

МТТДМҚТМОИ профессори ф.ф.д. Н.Маматов тақризи асосида

GENDER EQUALITY POLITICS AS A REALITY

Abstract

The article pays special attention to the fact that women in our country have the same rights and freedoms as men, strengthening the position of women in public life, increasing their political activity, expanding their participation in government. It is also said that today in our country the institutional framework for the implementation of the policy of gender equality is expanding, all conditions have been created for women to show their initiatives and talents in accordance with their abilities.

Key words: gender equality, society, family, social policy, strategy, gender policy.

ГЕНДЕР ТЕНГЛИККА АМАЛ ҚИЛИШ СИЁСАТИ РЕАЛЛИК СИФАТИДА

Аннотация

Маколада мамлакатимизда хотин-қизларнинг эркаклар билан бир хил хукуқ ва эркинликларга эга эканлиги, оналик ва болалик билан боғлиқ давлат сиёсати юритилаётгани, хотин-қизларнинг ижтимоий ҳаётдаги мавқеини кучайтириш, сиёсий фаоллигини ошириш, давлат ва жамият бошқарувидаги иштирокини кенгайтириш билан боғлиқ олий борилаётган ишларга алоҳида эътибор берилаётганлиги ёритилган. Шунингдек бутунги кунда мамалакатимизда гендер тенглик сиёсатига амал қилиш бўйича институционал асослар ҳам кенгайтирилаётганлиги, хотин-қизларнинг ўз иқтидорларини намоён қилиши, жамиятдаги мавқеини янада кучайтириши, қобилиятига яраша ишлари учун барча шароитлар яратилганлиги ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: гендер тенглик, жамият, оила, ижтимоий сиёсат, стратегия, гендер сиёсат.

ПОЛИТИКА ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА КАК РЕАЛЬНОСТЬ

Аннотация

В статье уделяется особое внимание тому факту, что женщины в нашей стране имеют те же права и свободы, что и мужчины, укрепления положения женщин в общественной жизни, повышения их политической активности, расширения их участие в государственной власти. Также говорится, что сегодня в нашей стране расширяется институциональная база для реализации политики гендерного равенства, созданы все условия для того, чтобы женщины могли проявить свои инициативы и таланты в соответствии со своими способностями.

Ключевые слова: гендерное равенство, общество, семья, социальная политика, стратегия, гендерная политика.

Кириш. Гендер тенглик нафакат инсон хукукини таъминлаш, балки, жамиятни сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этадиган эзгу қадриятдир. Бундан ташқари гендер тенглик-бу, мамлакатнинг демократик тараққиёт даражасини белгиловчи мезонларидан бири ҳисобланади. Шу боисдан, бутунги глобаллашув даврида жамиятда бу масалага жиддий эътибор қартилмоқда.

Гендер тенглигига эришиш масаласи Ўзбекистон учун устувор сиёсат йўналиши ҳисобланади. Сўнгти йилларда бу борада бир неча қонун ва норматив-хукукий ҳужжатлар қабул қилинди. Қабул қилинган нормалар етарли даражада бўлса-да, лекин уларни амалиётга тадбик қилишда ҳали ҳам кўплаб муаммолар мавжуд.

Жамият ривожланиши ва демократлашишига доир устувор муаммолар муқаррар равишда эркаклар билан хотин-қизлар ўртасидаги тенгликка эришиш билан боғлиқ масалаларга бориб тақалади ва натижада, хотин-қизлар мақомини ошириш ҳамда уларнинг ҳак-хукукларини кенгайтириш зарурати вужудга келади.

Шу мақсадда Республикаизда жамиятнинг барча соҳаларида аёл ва эркаклар тенг хукуклигини таъминлашни мақсад килувчи 2020-2030 йилларда Гендер тенгликка эришиш стратегияси қабул қилинди.

Стратегиядан кўзланган асосий мақсад – барча хотин-қизлар, эркаклар ва болалар учун уларнинг ирки,

ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, мавқейидан қатъи назар ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ҳаётдаги фундаментал инсон хукукларининг таъминланишига эришиш ҳисобланади.

Жамиятимизда барча соҳаларда аёл ва эркакларнинг тенг хукуқ ва имкониятларидан фойдаланишига ҳаракат қилинмоқда, – Стратегияда 9 та мақсад қарраб олинган:

- ижтимоий-сиёсий ҳаётда эркак ва аёлларнинг иштироқ этишида тенг имконият ва хукукларни яратиш;
- аёл ва эркакларнинг иқтисодиёт, бандлик ва меҳнат мигрантлари хукукларини химоя қилишда гендер тенглигини таъминлаш;
- бутун ҳаёт давомида барча учун адолатли ва сифатли таълимни таъминлаш;
- барча хотин-қизлар учун гендер тенглигини таъминлаш, зўравонликдан химоялаш, одам савдосига чек кўйиш;
- барча эркак ва аёллар учун ижтимоий ҳимоя, соғлом турмуш тарзини таъминлаш;
- миллий гендер статистикасини ривожлантириш;
- режалаштириш ва бюджетлаштиришда гендер масаласини инобатта олиш;
- ОАВда гендер муаммоларининг кенг ёритилишини таъминлаш;

– барча учун хавфсиз экологик мухитни таъминлаш масалаларига хотин-қизларни жабл қилиш[1].

Гендер тенглилкка эришиш стратегияси БМТнинг 2030 йилгача мўлжалланган Барқарор ривожланиш мақсадлари, 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси, “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг хукуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги конунларга асосланган.

Президент Шавкат Мирзиёев Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-юбилей сессиясидаги ўз чиқиши давомида халқаро ҳамжамият эътиборига минтакавий ва глобал аҳамиятга эга долзарб масалалар юзасидан ўз нуқтани назарини тақдим этди. Хусусан, Ўзбекистонни сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий модернизация қилишининг устувор йўналишларини кўрсатиб берди. Йўналишлар орасида гендер масаласи алоҳида аҳамиятни касб этди.

Давлатимиз раҳбари ўз нуткида “биз учун гендер тенглик сиёсати устувор масалага айланди. Хотин-қизларнинг давлат бошқарувидаги ўрни тобора кучмояқда. Янги Парламентимизда аёл депутатлар сони икки баробарга кўпайди”[2], деб мамлакатимизда хотин-қизлар сиёсати бўйича амалга оширилаётган ишларни назарда тутди. Дарҳакикат мамлакатимизда хотин-қизларнинг ўз имкониятларини тўлақонли рўёбга чиқаришлари учун барча шарт-шароитларни таъминлаш давлат сиёсати даражасига кўтарили.

Бугунги кунда дунё ҳамжамиятия хотин-қизларнинг инсоният тараққиётида ўрнини тўғри англаган ҳолда халқаро механизмларни яратишга ҳам ҳаракат қилмоқда. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1979 йил 18 декабрда “Хотин-қизлар хукуқлари камситилишининг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисида”ги конвенциянинг кабул қилингани фикримизнинг далилидир[3]. Мазкур конвенция хотин қизлар ва эркакларнинг амалдаги тенглигига эришиш, яъни гендер тенгликни таъминлаш, хотин-қизлар томонидан ўз хукуқларидан амалда фойдаланиш масалаларига боғлиқ бўлган муаммоларни аник-равшан белгилаган асосий хужжатdir.

Конвенцияда белгиланган муаммолар кўп кирралилиги билан акралиб туради. Унда турли шаклда намоён бўладиган камситишларга барҳам бериш муаммоларининг долзарблигини аниқлаб берилиши билан бирга, хотин-қизларнинг тенг хукукли инсон сифатида мавқенини ошириш, унинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий хукуқлари, эркак билан тенг хукуклиги, оналиқ лаёқати билан боғлиқ муҳим қоидалар акс эттирилган.

Халқаро мажбуриятларни бажаришда барча погоналарда қонунлар ва норматив-хукукий хужжатларни такомиллаштириш, уларнинг амалга оширилишини аниқ мониторинг қилиш ва халқаро-хукукий актларнинг имплементациясини назорат қилишни талаб этади. Мамлакатимизда гендер тенгликни таъминлашга оид халқаро-хукукий хужжатларни миллий қонунчиликка уйғунлаштириш орқали мустаҳкам хукукий асослар яратилмоқда.

Хотин-қизларнинг эркаклар билан бир хил хукуқ ва эркинликларга эга бўлишининг, оналиқ ва болалик билан боғлиқ давлат сиёсати юритилаётгани, хотин-қизларнинг ижтимоий ҳаётдаги мавқенини кучайтириш, сиёсий фаоллигини ошириш, давлат ва жамият бошқарувидаги иштирокини кенгайтириш билан боғлиқ олиб борилаётган ишлар алоҳида эътиборга лойиқ.

Бугунги кунда мамлакатимизда гендер тенглик сиёсатига амал қилиш бўйича институционал асослар ҳам кенгайтирилмоқда. Айни пайтда, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати таркибида аёллар хукуқларини таъминлаш ва камситишнинг ҳар

кандай шаклига барҳам бериш бўйича миллий қонунчиликка халқаро стандартларни уйғунлаштириш билан шуғулланувчи янги Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари кўмитаси ташкил килинди.

Ҳақиқатан ҳам, мамлакатимизнинг қарийиб 50 фоизини хотин-қизлар, уларнинг 64 фоизини 30 ёшгача бўлган хотин-қизлар ташкил этар экан, албатта бу йўналишида алоҳида давлат сиёсати олиб боришга тўғри келмоқда. Мамлакатимизда гендер тенгликни таъминлаш ва хотин-қизларнинг ижтимоий турмуш шароитларини яхшилаш, оила институтини ҳар томонлама кўллаб-куватлаш ва ривожлантириш, аёллар хукуқлари камситилишининг барча шаклларига барҳам бериш бўйича умумътироф этилган халқаро нормаларни миллий қонун хужжатларига имплементация қилиш, шунингдек, аёллар хукукий маданиятини ошириш каби йўналишларда катор амалий ишлар олиб борилди.

Давлатимиз томонидан “Хотин-қизлар хукуқлари камситилишининг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисида”ти конвенциянинг аъзоси сифатида миллий қонунчиликка унинг нормаларини уйғунлаштириш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, мамлакатимизда бу борада муҳим қадамлар кўйилди. 2019 йил сентябрь ойидан Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг хукуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги хамда “Хотин-қизларни тазиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонунлар қабул килинди.

“Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг хукуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги қонунда аёлларни жинси бўйича бевосита ва билвосита камситишини тақиқланишига алоҳида урғу берилган[4].

Ушбу қонуннинг мақсади хотин-қизларни турмушда, иш жойларида, таълим муассасаларида ҳамда бошқа жойларда тазииклар ва зўравонликнинг барча шаклларидан ҳимоя қилишга қаратилган. Ушбу соҳадаги муносабатларни тартибиға солиши, шунингдек, тазииклар ва зўравонликдан жабрланганларни хукукий ҳамда ижтимоий ҳимоя қилиш кафолатларини таъминлаш ҳам қонуннинг муҳим мақсадларидан бири ҳисобланади.

Мамлакатимизда гендер тенгликка эришишда хотин-қизларнинг жамиятдаги мавқенини янада кучайтириш, шу орқали оилани мустаҳкамлаш, юкори интеллектуал даражадаги ёш авлодни вояга етказиш, жамият барқарорлигини таъминлашнинг гарови хисобланади.

Президент Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида “Давлат ва жамият бошқарувида аёлларнинг ўрни ва мавқенини янада мустаҳкамлаш – ислоҳотларимизнинг энг устувор йўналишларидан бириид” деб таъқидлади [5].

Бугун республикамиз давлат ва жамоат ташкилотлари тизимида 1 минг 400 га яқин хотин-қизлар раҳбарлик лавозимларида фаолият олиб боришмоқда. Уларнинг улуши соглиқни саклаш ва ижтимоий хизмат соҳасида 82 фоизни, илм-фан, таълим-тарбия, маданият ва санъат соҳасида 72 фоизни, кишлоп ҳўжалигига 45 фоизни, саноатда 38 фоизни ташкил этмоқда.

Мурожаатномада давлат бошқарувидаги самараదорликка оид ислоҳотлар юзасидан фикр билдирад экан, Хотин-қизлар масаласига алоҳида тўхталиб ўтди. 2020 йилда юзага келган пандемия шароитида республикамиз бўйлаб б миллиондан ортиқ хотин-қизларнинг муаммолари пухта ўрганилди. Шулар асосида “Аёллар дафтари” шакллантирилди ва бу жараёнда хотин-қизларни қийнаётган кўплаб ижтимоий-иқтисодий муаммолар маҳаллий ҳокимиятларнинг дикқат марказидан жой эгаллади. Бу жараёнга маҳаллаларда янги

ташкел этилган “Аёллар маслаҳат кенгашлари” ҳам яқиндан кўмак бермоқда.

“Биз мамлакатимизда истиқомат қилаётган 17 миллиондан зиёд опа-сингилларимиз, қизларимиз, онахон ва момоларимизга муносиб шароит яратиб бериш учун барча имкониятларни ишга солишимиш лозим” [6], - деб таъкидлари давлат раҳбари ўз Мурожаатномасида.

Хотин-қизларнинг давлат бошқарувидаги ролини ошириш бўйича олиб борган ислоҳотлар натижасида парламент янги таркибининг 30 фоизи аёллардан иборат бўлди. Вилоят, шаҳар ва туман хокимларининг хотин-қизлар масалалари бўйича маслаҳатчиси лавозими жорий этилди.

Давлатимиз раҳбарининг ташаббуси билан хотин-қизларнинг жамият хаётидаги ўрни ва нуфузини ошириш, уларга янги имкониятлар яратиши мақсадида Республика Хотин-қизлар жамоатчилик кенгаши ташкил этилди. Жойлардаги Хотин-қизлар кенгашлари фаолиятига эса хокимларнинг ушбу масалалар бўйича маслаҳатчilari раҳбарлик қилиши белгилаб берилди.

Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш бўйича Республика ва худудий жамғармаларни янги ташкил этиладиган кенгашлар ихтиёрига ўтказиб бериш таклифи ҳам ушбу масалани бажаришнинг ижтимоий-иктисодий механизмини белгилаб беради.

Хотин-қизлар кенгashi хотин-қизларнинг жамиятдаги манфаатларини ва мавқеини муносиб ҳимоя қилиш, уларнинг ижтимоий-сиёсий, иктиносий, маданий хаётдаги ролини ошириш мақсадида хотин-қизлар ташаббуси билан ташкил этиладиган ихтиёрий, ўз-ўзини бошқарадиган, нотижорат, мустакил жамоат ташкилотидир. Кенгашнинг асосий мақсади сифатида кўйидагиларни кўриш мумкин:

- ўзини-ўзи бошқариш маҳаллий органлари ва хотин-қизлар ташкилотларининг ўзаро ҳамкорлиги;

- жамиятда эрқаклар ва аёллар тенглигининг конституциявий тамоилини амалга ошириш бўйича умумий стратегия ва давлат сиёсатининг устувор йўналишларини амалга ошириш учун зарур шарт-шароитларни яратиш;

- сиёсий, ижтимоий-иктисодий, хукукий, психологик ва бошқа омилларнинг эрқаклар ва аёлларга тегишли конституциявий хукуқларини амалга оширишга нисбатан таъсирини ўрганиш;

- хукукий эҳтиёжларини амалга ошириш, эрқаклар ва аёлларнинг манфаатлари ва имкониятларини хисобга олиш, уларни меҳнат ва ижтимоий фаолиятда ўз-ўзини англаш, аёлларни янги иктиносий шароитларга мослаштириш;

- жамиятда оиланинг ролини мустаҳкамлаш, оналиқ, оталиқ, болаликни муҳофaza қилиш, эрқаклар ва аёлларнинг репродуктов хукуқларини амалга ошириш учун шарт-шароитларни таъминлаш;

- оиланинг ўз вазифасини амалга ошириши, оила ҳаётининг сифатини ошириш учун зарур шарт-шароитларни яратиш.

Хотин-қизлар Кенгашининг асосий вазифалари этиб кўйидагиларни белгилаш мақсадга мувофиқ хисобланади:

- туман хотин-қизлар бирлашмаларини ижтимоий-иктисодий, сиёсий ва фуқаролик хукуқлари бўйича ҳаракатларда бирлаштириш, вояга етмаганларнинг ва оила аъзоларининг ноқонуний ҳатти-ҳаракатларининг олдини олиш, жойлардаги хотин-қизлар уюшмаларига амалий ёрдам кўрсатиш;

- хотин-қизларнинг жамиятдаги манфаатларини ва муносиб мавқеини муносиб ҳимоя қилиш, уларнинг ижтимоий-сиёсий, иктиносий, маданий хаётдаги ролини ошириш.

- оилани мустаҳкамлаш, оналиқнинг аҳамиятини ошириш;

- болаларни баркамол қилиб ривожлантириш, моддий ва маънавий эҳтиёжларини қондириш, ватанпарварлик ва инсонпарварлик ғояларини тарбиялаш учун кулай шарт-шароитларни шакллантиришга кўмаклашиш;

- антисоциал ҳаракатларни амалга оширишга ёрдам берадиган сабаблар ва шарт-шароитларни аниқлашда иштирок этиш, хукуқни муҳофaza қилиш органларини хабардор қилиш;

- болаларнинг назоратесиз колиши ва ўсмилик даври жиноятларининг олдини олишда кўмаклашиш;

- нотинчликнинг дастлабки босқичида оилаларни аниқлаш ва барча манфаатдор идоралар ва муассасалар томонидан салбий ҳолатларни бартараф этиш бўйича ўз вақтида чора кўришда иштирок этиш;

- хотин-қизлар ва болаларнинг хукуқлари ва конуний манфаатлари бузилгани, вояга етмаганлар ва ноқонуний ҳатти-ҳаракатлар содир этишга мойил бўлган оила аъзоларини аниқлаш бўйича кўрилаётган чоратадбирлар тўғрисида туман раҳбарини тизимли равишида хабардор этиш [7].

Таъкидлаш жоизки, 2020 йилда Ўзбекистон Республикаси Бирлашган Миллатлар Халқаро Ташкилотининг муҳим органи бўлган Инсон Хукуклари бўйича Кенгашига аъзо бўлиб кирди. Бу ўз-ўзидан бўлгани йўқ. Бунинг учун мамлакатимиз инсон хукуклари бўйича жаҳон миқёсида қабул килинган халқаро талаблар ва стандартларга мувофиқ равишида катор ислоҳотларни олиб борди ва ушбу жараённи давом эттироқда. БМТнинг Инсон Хукуклари Кенгашига аъзо бўлганимиздан кейинги жараён ҳам ўзига хос мураккаб вазифаларни олидимизга кўяди. Бу вазифаларнинг энг муҳими эса, хотин-қизларнинг ҳак-хукуки, уларнинг жамиятдаги роли, турмуш даражасини ошириш борасидаги амалий ҳаракатлардир.

Ўзбекистонда хотин-қизларнинг хукуқ ва манфаатларини, гендер тенглиники таъминлаш, аёллар ўтасида тадбиркорликни ривожлантириш, улар учун янги иш ўринлари яратиш, меҳнат ва турмуш шароитларини яхшилаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Натижада ҳар жабҳада аёллар фаоллиги ортиб, жамият хаётидаги иштироки йил сайин кенгайб бормоқда.

Худудларда хотин-қизлар тадбиркорлик марказлари ташкил этилиб, уларда аёлларга бизнесни бошлаш бўйича зарур билим ва кўнкимлар бериладигани туфайли тадбиркор аёллар сони тобора ошиб, улар томонидан минг-минглаб янги иш ўринлари яратилияпти.

Ҳар қандай жамиятнинг маданияти даражаси унинг хотин-қизларга бўлган муносабати билан белгиланади. Президентимиз бу борада мамлакатимиз аёлларнинг ҳаётий муҳим манфаатларини таъминлаш, турмуш шароитларини ҳар томонлама яхшилаш бўйича муҳим вазифаларни белгилаб берди. Шундай экан, уларнинг муносиб меҳнат қилиши ва қобилиятларини рўёбга чиқариш учун зарур шарт-шароит яратиш, жамиятдаги ўрни ва макомини мустаҳкамлашга кўмаклашиш ҳаммамизнинг асосий вазифамизга айланishi лозим.

Бугунги кунда ҳар қандай жамиятнинг асосий “кўзгуси” – хотин-қизлар эканлиги шубҳасизdir. Чунки жамиятнинг ижтимоий тузуми қандай бўлишидан қатъий назар, ўша жамият аҳолиси турмушининг фаровонлик даражаси, оилалар барқарорлиги, келажак авлод – фарзандлар тарбияси, иктидори, жамиятдаги интеллектуал салоҳият, маънавият ва маданият, маърифат, кўйингки, барча жабҳаларда эришилган ютуклар шу жамият

тараққиётига хотин-қизларнинг қўшадиган хиссаси ва ўша жамиятнинг аёлларга муносабати билан белгиланади.

Мамлакатимизда аёлларнинг ўз иктидорларини намоён килиши, қобилиятига яраша ишлаши учун барча шароитлар яратилган. Ана шу имкониятлардан фойдаланиш даражаси эса унга боғлик. Агар аёл ўзини нафақат аёл, балки инсон сифатида жамиятдаги ўрнини англаса, унга табиат ато этган қобилиятни тўғри йўналтира олса, факат оила куришини эмас, балки ҳалол меҳнати билан жамият тараққиётига муносаби хисса кўшиши лозимлигини ҳаётининг мақсади деб билса, бу аёл албатта ўз ҳаётидан каноатлана олади, рози бўлиб яшайди. Агарки факат оиласи ҳаётининг асосий мақсади килса, пишорад натижада намоён қилинмаган қобилият, фойдаланилмаган имконият, эришилмаган ютуклар у учун армон бўлади ва қалбida барча нарсага эриша олган аёлларга нисбатан ҳасад туйғуси шаклланади.

Фитратнинг “Оила” асарида шундай фикрлар бор:

- Аёлларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллиги миллий озодлик, эрк учун зарур: аёллар факат уй-рўзгор, бола тарбияси билан банд бўлиб қолмаслиги керак” [8], - дейди.

Ер юзи ахолисининг ярмидан кўпроғини аёллар ташкил этиди. Шунинг учун ҳам гендер муаммолари бугунги куннинг долзарб масалаларидан бирига айланган. Ҳозирги кунда хотин-қизлар ижтимоий-маънавий, сиёсий-иктисодий ҳаётнинг барча соҳаларида самарали ва фаол меҳнат килиб келишмоқда. Асосий қонунимиз - Конституцияда ҳам хотин-қизларнинг барча соҳаларда тенг ҳукукли эканлиги эътироф этилган. Ҳукумат томонидан чиқарилаётган қарор ва фармойишларда аёллар, оиласи, фарзандлар манфаати хамиша устувор бўлиб қелмоқда. Бу саъй-харакатлар аёлларнинг жамият ҳаётида фаоллиги орқали ўз ифодасини топаётганлиги ҳам айни ҳаққиат. Хотин-қизларимизнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишда эътибор кучайтирилаётганлигининг яна бошқа жиҳатлари ҳам бор. Ҳусусан, уларнинг ҳукукий маданияти ва ҳукукий саводхонлигини ошириш, иктисодий фаолиятни кенг йўлга қўйиш, ижтимоий химоя тизимини такомиллаштириш масалалари давлатнинг муҳим мақсадлари каторидан жой олди.

Тенглик, инсон ривожланиши концепцияси билан боғлик ҳолда барча одамларга моддий ва маънавий эҳтиёжларни кондиришда тенг имкониятлар яратилишини кўзда тутади ва авваламбор, бу ҳол таълим, соғлиқни сақлаш, бандлик ва жамиятнинг сиёсий ҳаётида иштирок этиш имкониятларига таалуклиdir. Имкониятлар тенглиги, аввало, моддий фаровонлик даражаси, ижтимоий мавқе, эътиқоди, жинси ва қайси миллатга мансублигидан қатъи назар инсон ҳукуклари ва асосий эркинликлари тенглигига асосланади, Инсон Ҳукуқлари Умумжаҳон Декларациясида кайд этилганидек, инсон қадр-киммати “озодлик, адолатлилик ва умумий тинчлик асосидир”. Асосий ҳукуқ ва эркинликларнинг йўклиги инсон ва жамият таназзулига олиб келиши, ижтимоий ва сиёсий тартибсизликлар, зўравонликнинг ёйилиши ва ихтиофлар туғилиши учун шарт-шароит яратishi мумкин.

БМТнинг инсон ривожланиши муаммоларига оид ҳужжатларда таъкидланганидек, “ҳеч бир жамиятда хотин-қизлар эркакларнидек имкониятларга эга эмас. Бундан тенгсиз мақом хотин-қизларнинг инсон салоҳиятини ривожлантиришга қўшаётган салмоқли улуши билан ушбу жараён берадиган имтиёзлардаги улушининг кичиклиги ўртасидаги номутаносибликнинг сақланиб қолишига олиб келмоқда”. Шу муносабат билан инсон ривожланиши ва демократлаштиришга доир устувор муаммолар муқаррар равишида эркаклар билан

хотин-қизлар ўртасидаги тенгликка эришиш билан боғлик масалаларга бориб тақалади, ва, натижада, хотин-қизлар мақомини ошириш ва уларнинг ҳақ-ҳукукларини кенгайтириш зарурати вужудга келади.

Ўзбекистон, Марказий Осиё давлатлари ўртасида биринчилардан бўлиб хотин-қизларга эркаклар билан тенг ҳукуклар берилиши борасида қатор тадбирларни амалга ошириди. 1995 йилда Ўзбекистон Хотин-қизлар ҳукуклари камситилишининг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисида конвенция(CEDAW)ни ратификация қилди. Унинг қатор маддалари миллий қонунчилика киритилди. Шу муносабат билан, жинслар тенглигига эришиш бўйича тегишли дастурни ишлаб чиқиши ва амалга ошириши энг долзарб муаммога айланмоқда. Бу узок муддатли мақсад бўлиб, у маданий, ижтимоий, сиёсий ва иктиносидий меъёрларда жиддий принципиал ўзғаришларни ва мутлако янги тафаккурнинг шаклланишини такозо этади.

Гендер тенглик XXI асрда ривожланиш соҳасида БМТ мақсадларига эришиш борасида принципиал жиҳатдан аҳамияти омилдир. Шунга мувофиқ тарзда гендер ёндашувларнинг такомиллаштирилиши ва жорий этилиши ижтимоий адолат, инсон ривожланишининг тенг ҳукуклилиги ва барқарорлилигига эришиш йўлида асосий масала бўлиб қелмоқда. БМТ томонидан қўйилган масалаларнинг самарали тарзда ижро этиш йўлларини излаш янги гендер ёндашувларни ишлаб чиқиши олиб келди.

Ахолининг турли гурухларининг ўзларининг ижтимоий роллари ва ўзига хос талабларига мос равишида ривожланиш бўйича фаолиятда иштирок этишига нисбатан гендер ёндашувнинг кўпланилиши ривожланишининг гендер стратегиясини ишлаб чиқиши имконини берди ва унга кўйидаги таркибий қисмлар кирди:

- жамиятда хотин-қизлар аҳволини эркакларнинг аҳволига нисбатан аниқлаш ва яхшилаш;
- хотин-қизлар томонидан ўз аҳволини, талаб ва эҳтиёжларини англаш;
- хотин-қизлар аҳволини яхшилашга ҳалал берувчи тўсикларни аниқлаш;
- хотин-қизлар фаолият соҳаларини кенгайтириш, улар томонидан анъанавий эркаклар роллари ва касбкорларининг ўзлаштирилиши;
- ўтмишдаги камситишнинг бевосита ёки воситали оқибатларини бартараф этиш;
- хотин-қизларнинг ночор гурухларини устун равишида ривожлантириши.

Гендер тенглиги - аёллар ва эркаклар, қизлар ва ўғил болалар учун тенг ҳукуқ, масъулият, имконият, қадрият ва натижалардир. Гендер тенглиги фақат аёлларга таалукли масала бўлмасдан у, эркаклар ҳукуқ ва мажбуриятларини ҳам англатади. Чунки жамият ҳар икки жинсдан гендер нормалари ва стандартларига мувофиқ ҳаракат килишини кутади. Тенглик аёллар ва эркаклар бир хил бўлиб қолишини билдирилди. Лекин уларнинг ҳукуклари, масъулияти ва тенглиги ўзлари қиз ёки ўғил бола бўлиб тугилганларига боғлиқдир. Гендер тенглиги аёлларнинг ҳам, эркакларнинг ҳам манфаатлари, эҳтиёжлари ва устуворликлари хисобга олинганлигини кўрсатади.

Жумладан, давлат органларида, нодавлат ва хусусий ташкилотларда, айниқса, қарорлар қабул қилиш билан боғлик юқори лавозимларда аёлларнинг тенг вакилларини таъминлаш сиёсатини такомиллаштириш, жамоатчилик онгига эркаклар ва аёлларнинг ўрни ҳақидаги тушунчаларни ўзғартиришга қаратилган саъй-харакатларни амалга ошириш каби масалалар икки тоифа вакилларининг ҳукукларини тенглаптириб, ғуурларини юксалтиради.

Аёл қадрини қанчалик юкорига қўтаришга мұяссар бўлсак, миллий ғуурумиз, маънавият ва маданиятимиз янада юксалиши, оиласаримиз барқарорлиги таъминланиши, ҳалол ва пок, фидойи, ватанпарвар, жамиятга фойда келтирувчи, миллатимизни бутун жаҳонда кўз-кўз қилувчи фарзандларимиз сони қундан-кунга кўпая бориши табиий ҳолдир. Зеро, ҳар томонлама фаол ва оқила, доно, изланувчан, замонавий аёл меҳнатидан, салоҳиятидан нафақат унинг оиласи, балки бутун жамият манфаатдор бўлиши чин ҳакиқатидир ва биз кураётган жамиятнинг оғир юкини дадил қўтариб, унинг пойдеворини мустаҳкамлаб турадиган асосий куч-жамиятимиздаги ҳар бир оила, ҳар бир инсон, ҳар бир фукаро, шу жумладан, хотин-қизлар эканлигини унутмаслигимиз керак.

Хулоса. Шу жиҳатдан кейинги йилларда мамлакатимизда хотин-қизларнинг хукук ва манфаатларини, гендер тенгликни таъминлаш, оила, оналик ва болаликни химоя килиш, аёллар ўртасида тадбиркорликни ривожлантириш, улар учун янги иш ўринлари яратиш, меҳнат ва турмуш шароитларини яхшилаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди.

Энг муҳими, юртимизда аёл раҳбарлар – вазирлар, ҳокимлар, ишлаб чиқариш бирлашмалари, банк ва компаниялар раислари, хукуқ-тартибот идораларида масъул вазифаларда хизмат қилаётган хотин-қизлар сони ортиб бормоқда.

Бинобарин, мамлакатимизда хотин-қизларни ҳар томонлама кўллаб-куватлаш, уларнинг оғирини сенгил килиш, қобилияти ва салоҳиятини рўёбга чиқариш максадида ўтган йиллар давомида салмоқли ишлар килинди. Жумладан, республикамизнинг барча ҳудудларида хотин-қизлар тадбиркорлик марказлари ташкил этилиб, уларга тадбиркорлик, хунармандчилик, қасбга қайта тайёрлаш, бандликин таъминлаш юзасидан амалий ёрдамлар кўрсатилди. Ана шундай имкониятлар туфайли тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйган аёллар сони тобора ошиб, улар томонидан минглаб янги иш ўринлари яратилмоқда.

Шуни таъкидлаш керакки, Конституциямизда белгиланган аёлларнинг ҳак-хукукларини рўёбга чиқариш, уларнинг кадр-кимматини ошириш бўйича юкоридан қўйигача амалий тизим яратилди. Мана шу янги тизим самарали ишлаши учун ҳамжиҳатлиқда ишлаш зарур бўлади.

АДАБИЁТЛАР

1. 2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегияси. Тошкент. 2021 йил.
2. Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеяси 75-сессиясида сўзлаган нутки.
3. Хотин-қизлар ҳукуклари камситилишининг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги БМТ Бош Ассамблеянинг 1979 йил 18 декабрдаги Конвенцияси.
4. “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳукуклар ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги конун. 2019 йил 2 сентябрь, ЎРҚ-562-сон
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь
7. “Хотин-қизларни қўллаб-куватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштироқини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Президент қарори (ПҚ-5020-сон, 05.03.2021 й.)
7. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. Тошкент. “Маънавият” 2000 йил. 28-бет.



УДК:123.5(326.3)

Natal'ya RADJPOVA,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: nradjapova@inbox.ru

NDPI professori, f.f.d. Safarova N.O. taqrizi ostida

GENDER STEREOTYPES IN FAMILY RELATIONSHIPS

Abstract

This article examines family gender stereotypes that describe the qualities and characteristics of men and women. Such stereotypes contain normative patterns of behavior taking into account gender and reflect generalized opinions and ideas about men and women in the family. Certain social roles in society are assigned to both women and men. Examples are given when a man's activity is assessed by his professional success, and a woman's assessment is assessed by having a family and children.

Key words: gender, gender equality, gender stereotypes, family, man, woman, family relations, work.

ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

Данная статья рассматривает гендерные стереотипы семейного характера, которые описывают качества и характеристики мужчины и женщины. Такие стереотипы содержат нормативные образцы поведения с учётом пола и отражают обобщённые мнения и представления о мужчине и женщине в семье. Определённые социальные роли в обществе закреплены как за женщиной, так и за мужчиной. Приводятся примеры, когда деятельность мужчины оценивается по его профессиональным успехам, а оценка женщины по наличию семьи и детей.

Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, гендерные стереотипы, семья, мужчина, женщина, семейные отношения, труд.

OILAVIY MUNOSABATLARDA GENDER STEREOTIPLARI

Аннотация

Ushbu maqolada erkaklar va ayollarning fazilatlari va xususiyatlarini tasvirlaydigan oilaviy gender stereotiplari o'rGANILADI. Bunday stereotiplar jinsni hisobga olgan holda xulq -atvorning me'yoriy modellarini o'z ichiga oladi va oiladagi erkaklar va ayollar haqidagi umumiy fikr va g'oyalarni aks ettiradi. Jamiyatda ma'lum ijtimoiy rollar ham ayollarga, ham erkaklarga yuklatilgan. Misollar asosida erkakning faolligi uning kasbiy yutug'i bilan, ayolning bahosi esa oilasi va farzandlari bilan baholanishi keltiriladi.

Kalit so'zlar: jins, gender tengligi, gender stereotiplari, oila, erkak, ayol, oilaviy munosabatlar, mehnat.

Kirish. Jamiyat tarixiy gender stereotiplarini yengib o'tishga qiynaladi va har doim ayol yetakchiligini qabul qilishga qiynaladi. Demokratik institutlarning shakllanishi va siyosiy madaniyatning rivojlanishi, o'z navbatida, jamiyatda siyosiy qonunlarga nisbatan tenglikni rivojlantirishga yordam beradi [1]. Qobiliyatlar va rol funktsiyalari haqidagi stereotiplar turli inqirozlar paytida o'zini turlicha namoyon qiladi. Qoida tariqasida, ayollar ishdan bo'shatish uchun nomzod bo'lishadi va ishga yollashda erkakka ustunlik berishadi. Shu sababli ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi erkaklarnikidan yuqori. Jamiyatda shunday shakllanganki, ayollar bir xil ish uchun erkaklarga nisbatan kamroq maosh oladilar, bundan tashqari ayollarni yuqori maoshli va istiqbolli lavozimlardan chetlashtirish jarayoni seziladi. Gender munosabatlarda o'zaro aloqa shaxsiy sohada, ya'ni uning asosini boshqa ijtimoiy institutlar orasida hukmronlik qiladigan oilada shakllanadi. Asosan, bu yerda odamning oilaviy muhitida paydo bo'ladigan shaxslararo munosabatlар shakllanadi. Genderni shakllantirishda, aynan uy va oilaning kontseptsiyalari ayolning ma'lum bir tajribasi va shu bilan birga, unga nisbatan zulm va zo'ravonliklarning yuzaga kelishida muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Gender tengligi masalasi xalqaro olimlarning muhim tadqiqot mavzularidan biridir. Jinsiyo yo'naliish bo'yicha birinchi ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar XX asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari boshlarida paydo bo'la boshladi. Ya'ni,

tarixning ushbu davri, o'zining feministik, ayollar va yoshlar harakatlari xos g'oyalari bilan, jamiyatni gender tengligi muammolarini o'rganishga jalb eta boshladi. Bir qator mamlakatlarda sotsiologlar, sotsiopsixologlar, tilshunoslar va siyosatshunoslar "jins" va uning shaxs va shaxsga ta'siri sohasida tadqiqotlar olib borishni boshladilar [2]. Erkin ayol shaxsining paydo bo'lishi antropologlar, genetiklar, tarixchilar, psixologlar, sotsiologlar, faylasuflar, filologlar, etnologlar o'rtasida tortishuvlarga sabab bo'ldi. Asosan, ilmiy ma'ruzalar jamiyat madaniyatining ierarxik jinsiylarini va jamoaning individual xususiyatlarini sifatida diniy e'tiqodlarni chuqur o'rganib chiqdi. Erkaklar va ayollar tengligi haqidagi dastlabki mulohazalar Platon, Aristotel' kabi qadimgi yunon faylasuflarining asarlarida uchraydi. Agar Aristotel' ayollar baxtsiz bo'lsa, jamiyat baxtli bo'lomaydi, deb hisoblagan bo'lsa, u holda Platon ayollar ham erkaklar singari ma'lumotga ega bo'lishi kerak degan fikrni bildirgan, u ayolni inson sifatida ko'rishni boshlagan ilk mutafakkirdir [3].

Sharq allomalari asarlarida, O'rta asrlarning boshidanoq, gender tengligi umumiy ma'noda ayollarning mavqeini oshirish sharoitida ko'rib chiqilgan. Turli davrlarning og'zaki va folklor ijodida ayollarni maqtash va takomillashtirish misollarini ko'rish mumkin. Bunga Ibn Rushid, Nizomiy, Al-Hamadoniy, xalifa Al-Muizz, shoir Abu-l-Ata, Xoqoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fizuli, Vojif, Vidad, Ogahiy, Maxtumquli ijodlari misol bo'la oladi. Ayol na qul, va kanizak sifatida,

balki o'z davrining ilg'or qarashlari hisoblangan jamiyatning to'laqonli vakili sifatida ulug'lanadi.

Gender siyosatini shakllantirish va rivojlantrish muammolarining ilmiy, falsafiy va siyosiy-huquqiy jihatlarini o'rganish, ayniqsa, mustaqillik yillarda yanada faollashdi. Shu munosabat bilan akademik R.A.Ubaydullaeva, M. Suxomlinova, S. T. Inamova va boshqa olimlarning assarlari alohida ahamiyatga ega. Shunga qaramay, Yangi O'zbekistonda demokratik o'zgarishlar davrida gender siyosati va gender tengligi sohalarida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan [4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Gender rollari an'anaviy gender sotsializatsiyasi asosida uyda va oilada patriarxal munosabat bilan belgilanadi. Aynan ayollar va erkaklar uchun teng bo'lmagan imkoniyatlarni qurishda "uy dunyosi" ning qoidalari va huquqlari, unda erkakning o'rni muhim rol o'ynaydi. Oilaviy ma'lumotlarni idrok etish va baholash kundalik hayotda namoyon bo'ladi va genderni ijtimoiy hayotning muhim toifasi sifatida belgilaydi. Masalan, O'zbekiston oilalarida «ayol» so'zi uy, onalik, bola tarbiyasi va boshqa shunga o'xshash tushunchalari bilan bog'liq "Erkak" so'zi esa oilani qo'llab -quvvatlash, moddiy daromad, ota va himoyachining roli va boshqa tushunchalarga yaqin. Shuning uchun, L.V.Shtylevaya gender stereotiplarini "ma'lum bir tarixiy davrda ma'lum bir jamiyat uchun barqaror, erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlar haqidagi g'oyalar" deb ta'riflaydi [5].

Maqolani tayyorlashda ilmiy bilish tamoyillari, tizimli yondashuv, tahlil usullari ishlataligan.

Tahsil va natijalar (Analysis and results)

Oilaviy xarakterdagi gender stereotiplari erkaklar va ayollarning fazilatlari va xususiyatlari tavsiflaydi, erkaklar va ayollar haqidagi umumiyligi fikr va g'oyalarini aks ettiruvchi jinsni hisobga olgan holda xulq-atvorning me'yoriy modellarini o'z ichiga oladi. Ayollarga ham, erkaklarga ham ma'lum ijtimoiy roller berilgan. Masalan, jamiyatda erkakni kasbiy muvaffaqiyati, ayolni esa oilasi va bolalari borligi baholaydi.

Oila, xulq-atvor modelini taqdim etish jarayonida, jinsiy ahamiyatga ega bo'lgan assimilyatsiya misolini ko'rsatadi. Oilaning ijtimoiy instituti bolalikdan ma'lum bir jamiyatning stereotiplarini o'zlashtirishga yordam beradi. Avloddan avlodga o'tishi tufayli ular yuz yillar davomida saqlanib qoladi [6].

Bo'lajak ota-onalar har doim bolaning jinsini oldindan bilishni xohlashadi. Bunga qarab, ular yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism, kiyim, o'yinchoqlar tanlashni boshlaydilar. Tadqiqot shuni ko'rsatadi, jinsiga qarab, qizlar uchun qo'g'irchoqlar, idishlar, yumshoq o'yinchoqlar kabi boshqa odamlar bilan muloqot qilishga qaratilgan o'yinchoqlar tanlanadi; O'g'il bolalarga esa motorli va kognitiv faollikni rivojlantridigan o'yinchoqlar sotib olishadi, masalan, avtomobillar, konstruksiylar, robotlar. O'g'illari bilan munosabatta otalar faol, qizlar bilan esa ular ko'proq hissiyoti bo'lishadi. Ota-onalar bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos yondashuvlarni qo'llaydilar, bu ayniqsa oilaviy hayotga tuyyorgarlik ko'rishda namoyon bo'ladi.

An'anaviy oilalar naslning vorislari sifatida o'g'il ko'rishni xohlaydilar va kelajakda undan moddiy yordam ko'radilar. Qizlarning huquqlari poymol etishiga aynan shu istak sabab bo'ladi. Natijada o'g'il bolalarda faollik, qat'iyatlilik, o'ziga ishonch, qizlarda esa aql va talablarga rioya qilish, passivlik, qaramlik paydo bo'ladi. Oila bo'lajak erkaklarda mas'uliyat, fidoyilik, erkaklik ayollarda esa kamtarlik va ayollik fazilatlarining shakllanish garoviga aylanadi. Bir tomonidan, gender stereotiplari jamiyatda shaxs sifatida shakllanish ushun kerak bo'ladi qoidalarni o'zlashtirishga yordam beradi, ular yordamida odam jamiyatda osongina o'zligini anglay boshlaydi. Boshqa tomonidan,

gender stereotiplari odamlarning barcha toifalari haqidada noto'g'ri xulosalar chiqaradi. Shaxsning keyingi rivojlanishida gender stereotiplari salbiy harakat qila boshlaydi. Masalan, maktabda va boshqa ta'lim muassasalarida o'qish jarayonida erkak jinsining afzalligi ayol jinsidan ustun turadi [7]. Natijada, bunday to'siqilar har bir insonga tabiat tomonidan berilgan ichki potentsialning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Biologik jinsni anglash hissi ichki motivatsiyani sekinlashtirib turadi, bu esa ijobjiy fazilatlarning faollashishi va rivojlanishiga yordam bermaydi. Bundan tashqari, gender tengsizligi iqtisodiy sohada, bandlik va boshqa imkoniyatlarni taqsimatida o'zini namoyon qila boshlaydi.

Jamiyat tomonidan genderning shakllanishi va oldindan belgilanishi nazariyasi shuni ko'rsatadi, genderning shakllanishi mayjud bo'lganligi sababli, genderning qayta o'zgarish holati ham tabiiyidir. Genderni qayta qurish erkak va ayol o'rtasidagi farqni yo'q qilishni anglatmaydi. Qayta qurish natijasida teng huquqli odamlar jamiyatni paydo bo'lishi kerak, bu yerda erarxik, maqom stereotiplari hukmron bo'lmaydi va teng imkoniyatlarni ustunligi ta'minlanadi.

Shu sababli, ayollarning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy tadbirlarda faol ishtiroy etishiga intilishi va intilishiga yordam beradigan strategik yo'nalishlar juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asrlar mobaynida islonning axloqiy tamoyillari zamonaviy oilanining o'zini jamiyatning bir bo'lagi sifatida tashkil etishiga yordam berdi. Jamiyatning axloqiy qarashlariga muvofiq qonunchilik bazasini mustahkamlashmusulmon oilalarda ajralishlar sonini kamaytirdi, buzuqlik va zinoning oldini oldi, o'z-o'zini boshqarish orqali oilaviy munosabatlarni yo'lini nazorat qildi.

Insoniyat tarixida uzoq vaqt davomida bir toifanining boshqasini boshqara boshlaganiga ko'plab misollar mavjud. Bunga misol sifatida xalqlar va qabilalar o'rtasidagi son-sanoqsiz urushlar, mustamlakachilik istilolari, quidorlikning ko'rinishlarini kiritish mumkin. Bu dushmanlik munozaralarini natijasida ozchilik ko'pchilikka bo'ysundirib kelingan. Zaif tomon kuchli tomonning talablarini qabul qilib bajarishga majbur bo'lgan. Bu yana savol tug'diradi: nima uchun deyarli teng sonli ayollar asrlar davomida o'z hukmronligini o'mata olmagan?

Ayollar har doim insoniyatning boshqa ijtimoiy qism va ommalarga nisbatan teng yarmini tashkil etishgan. Ammo boshqa ijtimoiy tabaqalardan farqli o'lar, ayollar hech qachon erkaklarga qarshi isyon ko'tarishmagan. Ayollar hech qachon imtiyozlar talab qilmadi va bundan tashqari, ularni erkaklardan qaytarishga urinmadidi. Balki u shunchaki erkak bergen imtiyozlardan bahramand bo'lishni yoqtirgandir? Ayollar jamiyatdagi o'rniga doim rozi bo'lmadilar, lekin yaxlit birlashmadilar. Yaratilgan kundan boshlab, ayol o'zini bir butun sifatida his qiladi, aslida u har doim ikkinchi butunlikka - erkakka intiladi. Buning sababi, ehtimol, uning yaratilishidir.

Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadi, insonda har doim himoya vositalari va asboblari bo'lgan. Ov va ish uchun har xil asbob-uskunalar ma'lum miqdorda jismoniy kuch talab qilgan. Erkak ayolga qaraganda biologik jihatdan jismonan sal qodirroq. Ibtidoiy davrda ayolning qobiliyatlarini asosan hayot va uyni tashkil qilishda ishlataligan. Tarixiy dalillar shuni ko'rsatadi, bu erda ham unga oson bo'lmagan: ayol avval yig'im-terim bilan shug'ullangan, keyin bog'dorchilik bilan shug'ullangan, turar-joy atrofidagi yerlarni o'zlashtirgan, og'irlik ko'targan va harbiy yurishlarda qatnashgan. Albatta, odam tabiatga va yovvoyi hayvonlarga qarshilik ko'rsatishi kerak bo'lgan paytda, jismoniy kuchdag'i ustunlik ustunlik qilgan.

Dunyoni zabt etish, tabiatni zabt etish bilan, ilgari ayolga imtiyozlar bergan oqibatlar, erkakka ustunlik berib, uni yana qul qila boshladidi. Agar ilgari erkakning ovchilik va

tijorat mehnati ayloning uy ishiga tenglashtirilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan uning mehnat faoliyati kengayishi ayloning uy ishlari bilan solishtirilmagan. Shunday qilib, erkak uyning xo'jayiniga aylanadi. Ammo texnologiyaning keyingi rivojlanishi va imkoniyatlari ikkalasining qobiliyatini deyarli tenglashtirdi, bu ayollarning jamiyatdagi mavqeiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mashinasozlik tufayli yuzaga kelgan inqilob insoniyatning iqtisodiy rivojlanishining natijasidir.

Bu vaqtida "ayollar savoli" uning ishlab chiqarishda ishslash qobiliyati muammosi bilan aloqa qila boshlaydi. Iqtisodiy taraqqiyot tufayli ayol mehnat va aqliy qobiliyatlar erkaklik fazilatlaridan past emasligini isbotlab, erkak bilan tenglashtirdi, lekin uni o'z manfaatlari yo'lida ishlatdi.

Agar ibtidoiy jamiyatda ayol erkak bilan teng bo'lgan bo'lsa, kapitalistik tuzum ayollarning maqomini pasaytirishga yordam berган. Bundan tashqari, sotsialistik jamiyat ayolni yuksaltirdi, lekin uni o'z manfaatlari yo'lida ishlatdi.

Xususiy mulk tushunchalarining paydo bo'lishi, ayloning o'zi uchun minimal shart-sharoitlar yaratib, foyda olishda ham o'z imkoniyatlaridan foydalananishga harakat qilmoqda.

Ammo zamonaviy dunyoda axloq va odob hukmronligi tufayli ayol jamiyatda yanada barqaror mavqeiga ega bo'la boshladi.

Davlat faol ravishda o'zbek xalqining mentaliteti va madaniyatining xususiyatlarini aks ettiruvchi Sharq falsafasi asoslariga ega demokratik institutlarni yaratmoqda.

Madaniyat, axloq, axloqning irsiy genetik xotirasini olib boruvchi milliy mentalitetni saqlab, xalqaro mezonlar va qadriyatlar yo'naliishlari joriy etilishi bilan normativ -huquqiy baza faol shakllamoqda.

Maxsus mafkura va ma'naviyat asosida jamiyatning barcha sohalarida gender tengligiga erishish maqsadida davlat dasturlari tuziladi, qonunlar qabul qilinadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Jamiyatda demokratiya g'oyalarining tarqalishi va ayollar harakatining faollashuvi gender tarafkashligining zaiflashishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, demokratik o'zgarishlarga qaramay, gender stereotiplari jamiyatga ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Asosan, ular urf-odatlar, qadriyatlar, ta'lim tizimi, tarbiya va insonning ma'naviy hayotining boshqa komponentlari bosimi ostida qayta namoyon bo'ladi. Zamonaviy jamiyatda bag'rikenglik, xilmassislik, tenglik va innovatsiyalarning shakllanishi an'anaviy gender stereotiplarini zaiflashirishi mumkin, lekin ularni yo'q qilmaydi. Chunki ma'naviy hayotning barcha tarkibiy qismlari insonning butun hayotining ajralmas qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. 2017-2021 yillarda O'zbekistonning Harakatlar strategiyasi va 2030 yilgacha bo'lgan davrda BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari 2017. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Toshkent, O'zbekiston.
2. Merlo-Ponti M. Ko'rindigan va ko'rinnmas / boshiga. c fr. Shparagida, tahr. T. V. Shchitzova. Minsk: Logvinov, 2006.400 b.
3. Orlova E., tarjima. Simone de Bovuar. Ikkinchı jild. 1997 yil. Radjapova N. Gender tengligini targ'ib qilish bo'yicha xalqaro tajriba, ISJ nazariy va amaliy fanlar, Filadelfiya, AQSh, 2020 yil 30 may.
4. Shtyleva LV, Maktabgacha pedagogikada gender yondashuvi: Monografiya ikki qismdan iborat, Pedagogika fanlari nomzodi L.V.Shtylevoy tahr.ost, Murmansk, 2001 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston. 2018 yil.
6. Voronina O.A. Feminizm va gender tengligi. M: URSS tahririyyati, 2004 yil.
7. Statistik to'plam. "O'zbekiston erkaklar va ayollar", O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy statistikasi nashri, statistika boshqarmasi, T., 2002, 61, 63-bet.
8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), 2 -modda.
9. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2018 yil.
10. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2011 yil.
11. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi - T.: O'zbekiston. 2019 yil.
12. "Ayollarni zulm va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" qonun, 2019, Toshkent, <https://www.lex.uz/docs/4494712>.
13. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2001 yil.



УДК: 159.9(575.1)

Dilafruz REJAPPOVA,

Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti katta o'qituvchisi
E-mail: Dpjid@mail.ru тел: 99 894-71-70

ANXTMO'VIBITI "Xalqaro baholash va ta'lim sifatini tadqiq qilish ilmiy-tadqiqot bo'limi" yetakchi mutaxassis, b.f.n.
M.Ergasheva tagrizi asosida

MODIFICATION OF PREPARATORY WORK FOR TALIS RESEARCH IN UZBEKISTAN

Abstract

Conducting research on TALIS, the researcher should start his or her main tasks by setting objectives based on the target aim of TALIS. For example, the researcher should study the issues related to how to improve the professional training of teachers: to increase the social status of teachers; selection of talented young people for pedagogical specialties; selection of moderators; to improve the process of continuous professional development.

Key words: TALIS, OECD, PISA, IEA, ACER, UNESCO, TALIS 2024 consortiums.

РЕФОРМА ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ TALIS (ТАЛИС) В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

При проведении исследований TALIS специалист должен прежде всего поставить перед собой следующие основные задачи. Например, для повышения профессиональной подготовки учителей надо научиться совершенствовать: повышение социального статуса учителей; отбор талантливой молодежи по педагогическим специальностям; подбор модераторов, а также процесс непрерывного повышения квалификации.

Ключевые слова: консорциумы TALIS, OECD, PISA, IEA, ACER, UNESCO, TALIS 2024.

O'ZBEKİSTONDA TALIS TADQIQOTLARIGA TAYYORGARLIK ISHLARINI ISLOH ETISH

Annotatsiya

TALIS izlanishlarini olib borishda tadqiqotchi birinchi navbatda uning asosiy vazifalarini o'z oldiga qo'yishi kerak. Misol uchun o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan bo'lsa: Pedagogning ijtimoiy mavqeini oshirish; pedagogika mutahassisligi uchun iqtidorli yoshlarni tanlash; moderator o'qituvchilarni tanlash; uzlusiz malaka oshirish jarayonini takomillashtirishni o'rganishi lozim.

Kalit so'zlar: TALIS, OECD, PISA, IEA, ACER, UNESCO, TALIS 2024 konsortsiumlari.

Kirish. XXI asrga kelib bir qancha davlatlarda umumiyo o'rta ta'lim mакtabalarini xalqaro baholash orqali o'rganish yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borildi. Jumladan hukumatimiz tomonidan umumiy o'rta ta'lim mакtabalarini rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilingan. "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" da ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; uzlusiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish va h.k [2]. larni bosqichma-bosqich amalga oshirish doirasida O'zbekistonda xalqaro baholashning TALIS tadqiqotini o'tkazish uchun tayyorgarlik jarayonida xalqaro TALIS tadqiqotini o'rganish muhim vazifalardan biri bo'lmoqda.

TALIS o'qituvchilar va mакtab rahbarlarining kasbiy va pedagogik rivojlanishi, shuningdek, ta'limdagi muhit va sharoitlar haqida tegishli tahlillarga imkon beruvchi mustahkam ko'rsatkichlar bo'yicha ishonchli va taqqoslanadigan ma'lumotlarni ishlab chiquvchi eng yirik xalqaro tadqiqotdir.

Tadqiqot doirasida hukumatlar, xalqaro konsorsium, OECD va o'qituvchilar kasaba uyushmalari o'rtasidagi hamkorlikda ishlar tashkil etiladi.

TALIS tadqiqoti xalqaro miqyosda 2008, 2013 va 2018-yillarda o'tkazilgan bo'lib, keyingi tadqiqot 2023-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli Farmonida ham umumiy o'rta ta'limni boshqarishga doir bir qator yo'nalishlar belgilab qo'yilgan. Jumladan mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, o'quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokinini kengaytirish va h.k. belgilangan [3]. Bu kabi vazifalarini amalga oshirishda o'z oldimizga maqsad qilib qo'yilgan xalqaro TALIS tadqiqotini o'rganish muhim deb hisoblayman.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). TALIS tadqiqotini o'rganish natijasida tadqiqot quyidagicha o'tkazilganligi aniqlangan.

1. 6500 mакtablardan 100 mingdan ortiq tasodifiy tanlangan quyi o'rta o'qituvchilar va ularning mакtab rahbarlari qatnashgan. 2. 34 mamlakatdan 4 milliondan ortiq o'qituvchi vakili (2013-yil holatiga ko'ra, 2018-yilda esa 46 ta mamlakatdan). 3.O'z mакtablaridagi mehnat sharoitlari va ta'lim muhiti haqida xalqaro miqyosda kelishilgan so'rovnomalar o'tkaziladi.

So'rovnoma o'qituvchilarga yaratilgan sharoitlar, ularning o'quv amaliyoti, qo'llab-quvvatlash va rivojlantrish masalalari, hamkasblari, talabalar va ularning maktab rahbariyati bilan munosabatlari yoritiladi.

O'qituvchilar va maktab rahbarlari uchun mo'ljallangan so'rovnomalari onlayn yoki qog'oz shaklda amalga oshirilib, buning uchun taxminan 45-60 daqiqa vaqt sarflanadi. So'rovnomaning asl nusxalari moslashtirilib, milliy tillarga tarjima qilinadi hamda barcha ma'lumotlar mamlakatlar bo'yicha maksimal darajada taqqoslanishini ta'minlash uchun keng ko'lamlari tekshirish jarayonlari qo'llaniladi.

Tadqiqot o'qituvchilar va maktab direktorlariga ta'limni tahlil qilish va ta'lim siyosatining asosiy sohalarida qarorlar ishlab chiqish bo'yicha o'z fikrlarini bildirish imkoniyatini beradi.

Izlanishning maqsadi ma'lumot to'plash va taqqoslash; o'quv jarayonlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun aniq mezonlarni aniqlash; xalqaro hamkorlikni takomillashtirish; ma'lumotlarni tahlil qilish va aniq ta'sir etuvchi omillarni aniqlash; foydasiz va foydalanimaydigan manbalarni aniqlash; yo'nalishlar bo'yicha hisobot tayyorlashdan iborat. Izlanishlar ish sifatini baholash; maktab boshqaruvi; o'qitish metodikasi; o'z ishidan qoniqish darajasi; professional qobiliyatlariga bo'lgan ishonch yo'nalishlariga bo'lingan holda o'tkaziladi.

Izlanish jarayonida uning asosiy qoidalariga amal qilish juda muhim hisoblanadi. Aynan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatini o'rganishga yo'naltirilganlik; har bir mamlakatdan 200 ta maktab qatnashadi; har bir maktabdan 20 ta o'qituvchi va 1 ta ma'muriyat hodimi so'rovnoma da ishtirot etadi; o'qituvchi va ma'muriyat hodimi uchun turli xildagi so'rovnama va vaqt beriladi (45-60 daqiqa); ma'lumot ham qog'ozda, ham onlayn ravishda yig'ilishi mumkin.

TALIS izlanishlarining maqsadi o'quvchilarning turli erishgan natijalarini tahlil qilishdan iborat emas. Balki, aynan shu natijalarga erishishga sabab bo'ladigan asosiy omillarni aniqlashdan iboratdir.

TALIS izlanishlarini olib borishda tadqiqotchi birinchidan navbatda uning asosiy vazifalarini o'z oldiga quyishi kerak. Misol uchun o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan bo'lsa: Pedagogning ijtimoiy mavqe'yini oshirish; pedagogika mutahassisligi uchun iqtidori yoshlarni tanlash; modirator o'qituvchilarni tanlash; uzuksiz malaka oshirish jarayonini takomillashtirishni o'rganishi lozim.

TALIS tadqiqotining rivojlanishiga keladigan bo'lsak: 2008 yilda 24 ta mamlakat; 2013 yilda 34 ta mamlakat; 2018 yilda esa 46 ta mamlakat ishtirot etganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotda 200 ta maktab, 4000 nafar o'qituvchi va 200 nafar maktab direktori ishtirot etadi. Ularni tanlash ham PISA tadqiqotlariga o'xshash bo'lib, qaysi bosqich o'qituvchilarini tanlash, nechta tilda so'rovnomalari bo'lishini belgilash OECD va davlat o'rtasida tuziladigan shartnomaga asosan ko'zda tutiladi.

Tadqiqotlar maktab o'qituvchilari va direktorlariga nafaqat milliy, balkim xalqaro darajada o'z fikrini bildirish imkonini beradi.

Ilgari TALIS tadqiqotlari har 5 yilda o'tkazilgan bo'lsa, endi esa har 6 yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan. 2018 yilda o'tkazilgan TALIS xalqaro baholash tadqiqotlarida 46 ta davlat qatnashgan bo'lib, natijalari 2020-yilning mart-aprel oyalarida e'lon qilindi.

OECD mutasaddilari TALIS tadqiqotlari aynan PISA o'tkazilgan maktabda bo'lishi shart emasligi, ularning natijalari alohida chiqarilishi, TALIS o'tkazishdan maqsad ta'lim muassasalaridagi ahvolni, o'qituvchilar kompetensiyalarini va muammolarini aniqlash, lekin uning

natijalari ham personal muhokama qilinmasligi, natijalariga ko'ra reyting chiqarilmasligini qayd etib o'tishdi.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim inspeksiysi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi jamoasi 2021-yil 15-sentabr kuni TALIS tadqiqotining Konseptual qamrov doirasi (Framework)ni takomillashtirishga bag'ishlangan xalqaro muhokama uchrashuvida qatnashdi.

2021-yil 15-sentabr kuni Iqtisodiy hamkorlik va tarraqqiyot tashkiloti (OECD), Ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA), Avstraliyaning ACER tashkiloti, TALIS 2024 konsortsiumlari, UNESCO, TALIS tadqiqoti boshqaruv kengashi ekspertlari hamda TALIS 2024 da ishtirot etuvchi mamlakatlarning milliy loyiha menejerlerining onlayn uchrashuvini bo'lib o'tdi.

Xalqaro darajada tashkil etilgan uchrashuvda, TALIS 2024 Konseptual qamrov doirasi (framework) loyihasi manfaatdor tashkilotlar hamda ishtirotchi mamlakatlar o'rtasida muhokama qiliindi. Shuningdek, uchrashuv davomida TALIS tadqiqotining ahamiyati, uning dizayni, o'tkazish rejasi, materiallarni ishlab chiqish va mavjud materiallarni sifat jihatidan takomillashtirish bo'yicha xalqaro ekspertlarning taqdimatlari tinglandi va ishtirotchi mamlakatlar bilan o'zaro fikr-mulohazalar almashildi.

Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, "O'qitish va ta'lim olish sharoitlarini o'rganish xalqaro TALIS tadqiqoti" ning to'rtinchi davriyilida, konseptual qamrov doirasi (framework) asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat, tadqiqot adabiyotlari va siyosiy qiziqishlarni aks ettirgan holda, OECD tashkiloti, xalqaro manfaatdor tomonlar, ishtirotchi mamlakatlar va iqtisodiyotlar bilan maslahatlashgan holda ishlab chiqilgan.

TALIS butun dunyo bo'ylab ta'limga ta'sir qiluvchi hamda davom etayotgan muammolar va yangi o'zgarishlarni hisobga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, TALIS tadqiqotining diqqat-e'tibori hozirgi kunda kichik yoshdan to'liq o'rta ta'limgacha bo'lgan barcha ta'lim bosqichlarining ahamiyatini hamda ta'lim imkoniyatlaridagi tengsizliklarni aniqlash zarurligini e'tirof etmoqda.

TALIS dasturining umumiy maqsadi o'qituvchilar, maktab rahbarlari va o'qitishning ishonchli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, vaqt o'tishi bilan o'zgarishlar yoki izchilliklar bo'yicha haqiqiy xalqaro taqqoslashlar va istiqbollarni ta'minlashdan iboratdir. Ushbu ko'rsatkichlarning tahlillarini talqin qilish ta'lim siyosati va amaliyoti bilan bog'liq manfaatdor tomonlarning uch guruhiga yo'naltirilgan:

Ularga o'qituvchilik kasbini rivojlantrishga ko'maklashuvchi siyosatni ko'rib chiqish va ishlab chiqishga yordam berish hamda samarali o'qitish va o'rganish uchun yaxshi sharoit yaratish; o'qituvchilar, maktab rahbarlari va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun ta'lim amaliyotini muhokamaga targ'ib qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish; tadqiqotchilar, har bir kontent sohasi bo'yicha o'tgan tadqiqot adabiyotlarni yaratish (konseptual doirada aniqlangan) hamda TALIS va boshqa ma'lumotlar yordamida keyingi tadqiqotlar uchun asoslovchi ma'lumotlarni yaratish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shuni alohida ta'kidlash lozimki, TALIS 2024 tadqiqoti uch bosqichda tashkil etilishi va o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, bunda: 1-bosqich 2022-yilda sinov bosqichi, uning maqsadi TALIS dasturining oz sonli ishtirotchilari bilan so'rovnomalari tarkibini ishlab chiqish va tasdiqlash; 2-bosqich 2023-yilda so'rovnomalari va tarkibiy qism formatlarini sinovdan o'tkazish, shuningdek so'rovnoma o'tkazish tartib-qoidalarini va ma'lumotlarni yig'ish; 3-bosqich esa 2024-yilda asosiy tadqiqotni o'tkazish nazarda tutilgan.

Yurtimizdag'i yumumta'lim maktablaridagi ta'limga muhitini baholash bo'yicha TALIS xalqaro tadqiqotlarini o'rganan ekanmiz:

TALIS tadqiqotining natijalari O'zbekiston Respublikasi ta'limga tizimining har tomonlama ko'rinishini muhim tarkibiy qismidir. Tadqiqot maktab bilan bog'liq muammo va masalalarini hal qilishga qaratilgan.


Ushbu tadqiqot O'zbekistonda A.Avlonyi nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan O'zbekiston Respublikasida boshqa mamlakatlarda olib borilgan TALIS-2018 tadqiqotlar natijalari asosida 2021 yilda 48 ta ichki tadqiqotlar olib bordi. Tadqiqot talablari asosida so'rovnomalari o'tkazilgan. Ushbu so'rovnomani o'tkazishdan maqsad o'qituvchi va maktab direktorlarini uzlusiz tayyorlash bo'yicha ta'limga tashkilotlari ichida yuzaga keladigan pedagogik, metodik va ijtimoiy jarayonlar haqida ma'lumot toplash uchun kompyuterlashtirilgan so'rov edi.

Tadqiqot namunasi asosida mamlakatimizning 14 ta hududida 4000 ta umumiy ta'limga tashkilotlari 12446 nafar respondentlardan so'rovlar olingan bo'lib, (2020 yil sentabr holatiga Respublika umumiy o'rta ta'limga maktablarida 501044 nafar o'qituvchilar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, so'rovnomada ishtiroy etgan o'qituvchilarining soni jami o'qituvchilarga nisbatan 2,5% tashkil etgan, TALIS tadqiqotlari talablariiga asosan so'rovlarda jami o'qituvchilarining 2% ishtiroy etishi talab etiladi), shundan 349 nafari maktab direktorlari, 1090 nafari direktor o'rinnbosarları, 10544 nafari o'qituvchilar va 463 nafari boshqa (xalq ta'limi tizimidagi boshqa lavozim) lavozimlarda ishllovchilardir. Tadqiqotlar xalq ta'limi tizimining 18 ta fanini o'z ichiga olgan. Direktorlarning ishtiroyi namunaga kiritilgan har bir umumita'limga tashkiloti uchun majburiy edi. Anketani to'ldirish uchun o'rtacha bir soatlik uzlusiz ish vaqtiga olib borildi [5].

Talis-2021 yilda O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan ichki tadqiqotlarda ishtiroy etganlar to'g'risida ma'lumot

t/r №	So'rovnomada ishtiroy etgan respondentlar	Ishtiroychilar soni	Jamiga nisbatan, %	
1.	Jami respondentlar, shundan:	12446	100 %	
	Ayollar	8838	71 %	
	Erkaklar	3608	29 %	
2.	Direktorlar, shundan:	349	2,8 %	
	Ayol direktorlar	152	1,2 %	
	Erkak direktorlar	197	1,6 %	
3.	Direktor o'rinnbosarları	1090	8,7 %	
	Ayol direktor o'rinnbosarları	469	3,7 %	
	Erkak direktor o'rinnbosarları	621	5,0 %	
4.	O'qituvchilar, shundan:	10544	84,8 %	
	Ayol o'qituvchilar	7904	63,6 %	
	Erkak o'qituvchila	2640	21,2 %	
5.	Xalq ta'limi tizimidagi boshqa lavozimdagilar, shundan:	463	3,7 %	
	Ayollar	313	2,5 %	
	Erkaklar	150	1,2 %	

So'rovnomada ishtiroy etgan respondentlar haqida statistik ma'lumot



Tadqiqot natijalari Singapur, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Finlandiya, Rossiya, Latviya, Niderlandiya, AQSh va boshqa mamlakatlarni o'rtaşıdagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida shu kabi muammolarini aniqlashga va ularni hal qilishning eng samarali amaliyotlarini o'rganishga yordam beradi.

Mamlakatimizda maktab direktorlari orasida ham ayollar ustunlik qilsada, 2021 yil TALIS xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnomada maktab

direktorlarning jami 349 nafaridan 152 nafarini ya'ni 43,5 % ni ayol maktab direktorlari tashkil etdi.

So'rovnomada ishtiroy etgan maktab direktorlarning o'rtacha yoshi 50 yoshgacha bo'lganlar, direktorlarning eng katta va kichik yoshlar kesimi 30 yoshgacha (15,4%) va 60 yoshdan katta (4,2%) yoshlar orasida bo'lib, bu tadqiqotda ishtiroy etayotgan barcha mamlakatlardagi o'rtacha ko'rsatkichiga to'g'ri keladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek o'qituvchisining o'rtacha yoshi 30-39 yosh (40,0%) orasida bo'lib qolmoqda,

biroq yosh o'qituvchilar nisbatining asta-sekin o'sishi va katta yosh guruhini ifodalovchi o'qituvchilar sonida pasayish tendentsiyasi mavjud. Shunday qilib, 30 yoshgacha bo'lgan o'qituvchilar soni 19,1%, 40-49 yoshgacha bo'lgan

o'qituvchilar soni 24,8% oshib borgan bo'lsa, katta yosh guruhidagi 50-59 yoshgacha bo'lgan o'qituvchilar soni 15,2%, 60 yosh va undan ortiq yoshdagagi o'qituvchilararning ulushi 0,76% gacha kamayib borgan [5].

Tadqiqot so'rovida ishtirok etgan respondentlarning yosh guruhi bo'yicha ko'rsatkichlari

Nº	Yosh kesimidagi farq	Direktor	Direktor o'rinnbosari	O'qituvchi	Xalq ta'limi tizimining boshqa xodimlari
1.	30 yoshgacha	15,4%	10,3%	19,1%	32,8%
2.	30-39 yoshgacha	26,6%	42,5%	40,14%	43,6%
3.	40-49 yoshgacha	29,7%	28,9%	24,8%	15,5%
4.	50-59 yoshgacha	23,7%	17,2%	15,2%	7,3%
5.	60 yosh va undan katta	4,2%	1,1%	0,76%	0,6%

Xulosa va takliflar

(Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur Xalqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta'lim tizimi mazmunini yangilash, innovatsion ta'lim muhitini yaratish, ta'lim sifatini oshirishni talab etadi va quyidagi qator vazifalarni amalga oshirishimiz zarur ekanligini ko'rsatadi.

Birinchidan, xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS kabi talablari assosida o'qish, o'zbek tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quv va nostandart adabtiv topshiriqlarni shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil ish daftalarini bosma shaklda va

modulli-kredit texnologiyasi asosida elektron variantini tayyorlash, axborot texnologiyalari vositasida baholash mexanizmini takomillashtirishni taqazo etadi.

Ikkinchidan, xalqaro baholash tizimi TALIS talablari asosida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini aniqlash uchun kvalimetrik diagnostika anketa so'rvonomasini tayyorlash va online tizim vositasida aniqlash lozim bo'ladi.

Uchinchidan, pedagog kadrlar tomonidan o'zining kasbiy kompetentligini mustaqil nazorat qilish va o'z o'zini baholash imkonini beradigan kvalimetrik diagnostika topshiriqlardan iborat metodik va elektron resurslar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasি
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent sh., 2020 yil 6 noyabr, PF-6108-son
4. TALIS xalqaro tadqiqotlari talablari assosida o'tkazilgan so'rvonoma va tadqiqotning hisoboti 1-qism. A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti Toshkent 2021.
5. Qarang. F.Karimov TALIS xalqaro tadqiqotlari talablari assosida o'tkazilgan so'rvonoma va tadqiqotning hisoboti 1-qism. A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti Toshkent 2021.



Замира САНГИРОВА,
Чирчиқ давлат педагогика институти мустақил изланувчи
sangirovazamira.rtm@gmail.com

доц.(PhD) Суяров К.Т. тақризу асосида

THE ROLE OF EDUCATION AND PROJECT WORK IN CREATING A MODERN EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN SECONDARY SCHOOL

Abstract

The article, discusses the methodology of organizing educational project work, which is one of the most optimal ways to develop personal intellectual and creative abilities of students in modern education.

Key words: educational project work, knowledge, skills, competence, research activity, planning of project work, methodological support.

РОЛЬ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СОЗДАНИИ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЙ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Аннотация

В работе рассматривается методология организации учебной проектной работы, которая является одним из оптимальных способов развития личностных интеллектуальных и творческих способностей учащихся в современном образовании.

Ключевые слова: учебная проектная работа, знания, умения, компетенция, исследовательская деятельность, планирование проектной работы, методическое обеспечение.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ МУХИТИНИ ЯРАТИШДА ЎҚУВ - ЛОЙИХА ИШЛАРИНИНГ ЎРНИ

Аннотация

Мақолада, замонавий таълим беришда ўқувчиларда шахсий интеллектуал – ижодий қобилиятларни ривожлантиришнинг энг мақбул йўлларидан бири бўйлануви ўқув лойиҳа ишларини ташкил этишининг методологияси ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: ўқув лойиҳа ишлари, билим, қўнікма, компетенция, тадқиқотчилик фаолияти, лойиҳа ишларини режалаштириш, методик таъминот.

Кириш. Бугунги кунда жамиятимизда олиб борилаётган ислохотларда мутахассислардан нафакат билим, балки уларда изланувчанлик, ихтирочилик, тадбиркорлик каби қобилиятларга эга бўлишни такозо этмоқда. Шу боис, ўқувчиларни ўқув лойиҳа фаолиятига жалб қилиш орқали уларда (мантикий, креатив, танқидий) фикрлашни ва изланувчанлик қобилиятларини ривожлантириш ҳамда ўқувчиларда фанга оид компетенцияларни шакллантириш долзарб педагогик муаммолардан бири сифатида қаралиши лозим.

- **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review).** Дунё олимлари томонидан ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтиришга бағишлиланган кенг қамровли илмий тадқиқот ишлари олиб

борилган, жумладан В.Г.Разумовский ўқувчиларда ижодий қобилиятларни ўстириш [1], А.И. Савенков ўқувчидаги тадқиқотчилик қобилиятини ривожлантириш [2], А.В.Леонтович томонидан ўқув лойиҳа фаолиятига ташкил этиш ҳамда ўқувчиларда тадқиқотчилик қобилиятини ривожлантириш каби муаммолар ўрганилган [3].

Хорижлик олимлар E. L.Chiappetta E.L., T. Koballa, A.T.Colleste [4] томонидан олиб борилган илмий тадқиқот ишларига анъанавий ўқув машғулоти ва ўқув-тадқиқот машғулотида ўзаро тақосланилиб, мазкур фаолиятлар ўртасидаги муносабатларнинг ўзига хос жиҳатлари ўрганилган ҳамда уларнинг фарқлари 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Анъанавий ўқув машғулоти	Ўқув - тадқиқот машғулоти
Ўқувчилар кўпинча ёлғиз ишлайди	Ўқувчилар кўпинча гурухларда ишлашади.
Фактларни ўзлаштиришга ургу бериш	Тушунчаларни англашга ургу бериш.
Аник белгиланган ўқув дастурига риоя килишни талаб қилади.	Ўқитувчи томонидан кўйилган муаммолари саволларни ўрганишга имкон беради.
Фаоллик асосан дарслеклиқда берилган материалларига асосланади.	Фаолият турли манбаларга асосланади.
Ўқувчилар "бўш вараклар" сифатида қабул килинади.	Ўқувчилар дунё ҳакида ўз нуктаи назарига эга мутафаккирлар деб хисобланади.
Одатда ўқитувчи ўқувчилар ўртасида маълумот таркададилар	Ўқитувчи интерфаол ўқув мухитини яратади.
Ўқитувчилар тўғри жавобларни излашга мойилдирлар.	Ўқитувчи ўқувчиларнинг гоя ёки фаразларини тушунишга интилади.
Баҳолаш ва ўрганиш бир-биридан ажralиб туради.	Баҳолаш билан ўрганиш бирлашади.

Таълим самарадорлигини таъминлаш кенг қамровли дидактик жараён ҳисобланади. Таълимни мазмунан янгилаш, умумий ўрта таълим мактабларида таълим-тарбия ишларининг янги шаклларини ташкил этиш ва амалга ошириш жиҳатидан ҳам ўзининг мантикий асосига эга бўлган психологик-педагогик, фалсафий жиҳатларни ўзида мужассамлаштирган, услубий ечимини тошиши лозим бўлган муаммо сифатида қаралади.

Шу ўринда республикамизнинг бир қатор олимлари томонидан таълимда компетенциявий ёндошув асосида ўкувчиларни амалий, яъни ўкув-тадқиқотчилик фалиятига жалб этиш масалалари ўрганилган [5]. Экспериментлар воситасида ўкувчи шахсига ўйналтирилган таълим технологияларини қўллаш тамоилии асосида уларда тадқиқотчилик қобилияtlарини ривожлантириш самарали усул эканлиги этилган [6].

Ўкув тадқиқотчилик фаолияти – таълим технологияси бўлиб, у ўкув тадқиқотда восита сифатида қўлланилади. Тадқиқотчилик фаолияти, тадқиқот ишининг раҳбари – мутахассис ўқитувчи раҳбарлигига, атроф – олам ҳодисалари тўғрисидаги тасаввурларини яратишга қаратилган, шунингдек, олдиндан ечими номаълум бўлган масала ўкувчилар томонидан ечилиши мумкин деб фарз қиласди. Ўкув-тадқиқот иши – таълимдаги жараён бўлиб, у тадқиқотчилик фаолияти асосида амалга оширилади [2].

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Умумий ўрта таълим тизимини мамлакатда амалга оширилаётган ислоҳотлар, илғор хорижий тажрибалар асосланган ҳолда ташкил этиш, мавънавий баркамол ва интеллектуал ривожланган шахсни тарбиялаш каби масалаларни назарга тутган Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирининг 2020-йил 5-мартдаги 67-сон бўйруги ижросини таъминлаш мақсадида ишлаб чиқилган “Миллий ўкув дастури” асосиётга жорий этиш арафасида [7] ва унинг амалдаги ўкув дастуридан фарқли жиҳатлари:

- физика фанидан ўкув дастурида ўкувчиларга кўйиладиган малака талаблари синклар кесимида белгиланган;
- ўкувчиларнинг назарий олган билимларини ҳаётда қўллаш, ҳалқаро баҳолаш стандартларига мос келувчи топшириклар билан ишлаш учун кичик лойиҳа ишларига алоҳида соатлар ажратилган;
- фанлараро узвийлиги таъминланилган;
- спиралсимон (оддийдан мураккабга) ўқитишга ўйналтирилган.

Мазкур ўкув дастури таълим самарадорлигининг методологик асоси бўлган ўкув муассасаларида бериладиган тизимли таълимни мустақил билим олишига яқинлаштириш, ўкувчиларнинг изланувчанлигига таянган ҳолда уларда илм олиш қобилиятини ривожлантириш, таълимга нисбатан тизимли назарий ва амалий ёндашувларни амалга ошириб боришни назарда тутади.

Энг аввало таълим соҳасига тақдим килинаётган мазкур хужжатнинг гоясида кўйидаги талаблар акс этган, биринчидан, ўкув дастурида берилаётган ўкув лойиҳа, ўкув амалий машғулот тавсифидаги ва ўкув-тадқиқот

ишларининг кўйилишида ўкувчининг ёши ва уларнинг психологик хусусиятларини инобатга олинганлиги, иккинчидан, ўкув-лойиҳа, ўкув амалий машғулот ва ўкув-тадқиқот ишларининг кўйилиши дарсда ўтилаётган мавзулар билан узвийлиги, уччинчидан, ўкувчилар томонидан лойиҳа ва ўкув-тадқиқот ишлари бажарилиши таълимда сифатий (интеллектуал маҳсулот, компетенцияларни эгаллаш) натижалари билан кафолатланиши лозимлиги уқтирилган.

Ўкув лойиҳа ёки ўкув-тадқиқот ишларининг бажарилиши жараёни ўқитувчи ва ўкувчи фаолиятининг ўзаро боғликлиги таъминланган тартибли ва мантикий кетма-кетлиги, ўқитиш жараёнининг бош вазифаларидан бўлган – таълимнинг тарбиявий ва ривожлантирувчи функцияларига амал килишни таъминлайди.

Фанни тадқиқот сифатида ўргатиш ўкувчилар ўкув-тадқиқотдаги илмий далилларни ва натижаларни тақдим этиш билан чекланиб қолмасдан, улар кундалик ҳаётида жамият ва атроф муҳит билан боғлиқ муаммоларга ўз фикрини билдириш; кузатишлар асосида далилларни тўплаш ва улардан фойдаланишда фаол иштирок этиш; илмий билимларга асосланниш тушунтира олиш каби кўнімаларга ҳам эга бўлиши лозим.

Тадқиқот орқали илм фанларини ўқитиш ва ўргатишнинг қандай хусусиятлари мавжуд? - деган саволга дидактик нуктаи назардан каралса тадқиқотга асосланган таълим жавобгарлик даражаси билан тавсифлаш мумкин. Бунда ўкувчи ўз олдига муаммо кўйиб тадқиқот гоясини шакллантирида ва ўкув-тадқиқот устида иш олиб боради, муаммога жавоб излайди, ўз билимини баҳолаб тадқиқоти ҳақида маълумот йигади (ўкувчи бошқарадиган тадқиқот). Ўқитувчи томонидан ўкувчини тадқиқотга жалб этилганлик даражаси (ўқитувчи бошқарадиган тадқиқот, таълимий натижажа) билан таққосланади.

Тадқиқотга асосланган ўқитишнинг асосий мақсади, ўкувчиларга фундаментал илмий тушунчалар ва назарияларни ўргатиш, шунингдек, ўкув-тадқиқотларни муваффақиятли амалга ошириш учун зарур бўлган ўкув фаолияти ва муносабатларни ривожлантиришдан иборатдир. Ўкувчиларда ўкув амалий ва илмий хабардорлик компетенцияларини шакллантиришда ўкув-лойиҳа, ўкув-тадқиқот ва ўкув амалий машғулотлар мухим восита бўлиб хизмат қиласди.

- Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Мазкур дастур асосида дастлабки умумтаълим муассасалари учун “Таббий фанлар” (1- синф ўкувчилари учун) яратилган дарсленинг барча бобларида болаларнинг ёши ва уларнинг психологик хусусиятларини инобатга олиниб, масалан, 8-бобда, яъни Иссиклиқ, Ёруғлик ва Товуш мавзуларига оид ўкув материаллари танланнилган. Шунингдек, ҳар бир мавзуга оид кичик тадқиқот иши ёки кичик ўкув-лойиҳа иши дарсликда ўз аксини топган. Дарслик мазмунида ўкув жараёнда ўкувчи томонидан ўзлаштирилиши лозим бўлган билим, кўнімка, мунособат ва қадриятлар ҳамда компетенцияларнинг шаклланиши назарда тутилган. Ўкувчи ўзлаштирилиши лозим бўлган билим, кўнімка, мунособат ва қадриятлар ҳамда компетенцияларнинг таркибий қисмлари 2-жадвалда келирилган.

2-жадвал

ЁРУҒЛИК ВА ИССИҚЛИК	
Сўров саволлари Ёруғлик нима? Иссиклик нима? - Табиатда қандай ёруғлик ва иссиқлик ҳодисаларини биласиз? - Ёруғлик ва иссиқлик қандай манбалари мавжуд?	
Куйидагилар ўрганилади	Таклиф қилинган ўкув машғулотларида

<p>Ўкувчилар табиатда ёруғлик ва иссиқлик ҳодисалари ҳақида билиш учун кузатувлар олиб бориш мумкинлигини билиб оладилар.</p> <p>Ўкувчилар ёруғлик ва иссиқлик манбаларини билиб оладилар ва уларга оид мисоллар келтирадилар.</p> <p>Ёруғлик ва иссиқликнинг тирик организимлар(инсон, ўсимлик ва ҳайвонлар) учун зарур эканлигини ўрганадилар.</p>	<p>Амалий фаолият</p> <p>Табиатда иссиқлик ва ёруғлик ҳодисаларини қандай билишлари ҳақида галириб беради.</p> <p>Атрофда ва синф хонасидаги ёруғлик ва иссиқлик манбаларини ажратиб беради.</p>
<p>Лойиха иши</p> <p>Ёруғлик ва иссиқлик ҳодисаларига оид кичик тадқиқот ишларини ўтказади. Кичик тадқиқот ишида ёруғлик таъсирида жисмларнинг қизиши ўрганилади ва хуласалар килинади.</p>	

Ўрганиш натижалари

Билим	Кўнимкамалар	Муносабат ва қадриятлар
<ul style="list-style-type: none"> Табиатда иссиқлик ва ёруғлик ҳодисаларининг муҳимлигини тушунтиринг. Иссиқлик ва ёруғлик ҳодисаларига мисоллар келтиринг. Иссиқлик ва ёруғлик манбаларини фарқини англайди. 	<ul style="list-style-type: none"> Табиатда иссиқлик ва ёруғлик ҳодисаларига оид кузатишлар ўтказишни намойиш қиласди. Иссиқлик ва ёруғлик ҳодисаларига билишини мисолларда намойиш қиласди. Кичик гурӯх муҳокамасида мустақил равишда фикрини баён эта олади. Табиатда иссиқлик ва ёруғлик ҳодисаларида атроф мухитга таъсирини хуласа қиласди. 	<ul style="list-style-type: none"> Атрофдаги ҳодисаларига қизиқувчанликни номоён қилиш. Табиатда иссиқлик ва ёруғлик ҳодисаларининг аҳамиятини англаш. Иссиқлик ва ёруғлик манбаларининг зарарли таъсиirlардан ҳимояланиш.

Компетенциялар:

Илмий хабардорлик компетенциялари:

- ёруғлик ва иссиқлик манбаларини ажратиб олади;
- табиатда ёруғлик ва иссиқлик ҳодисаларини оид саволларни бера олади;
- табиатда ёруғлик ва иссиқлик товуш ҳодисаларини ўрганиш учун кузатиш муҳим эканлигини билади;

Амалий компетенциялар:

- табиатда ёруғлик ва иссиқлик ҳодисаларини оид кузатиш ишларини амалга ошира олади;
- иссиқлик ҳодисаларини оид кузатиш ишларидаги ўлчов ишларини амалга ошира олади;
- табиатда ёруғлик ва иссиқлик ҳодисаларига оид саволларга жавоб беришни режалаштира олади;
- ўртоқлари билан ҳамкорликда фаолият олиб боради;
- ўртоқлари билан мулоқат олиб боради;
- хуласалар киласди.

- Хуласа ва таклифлар (Conclusion/Recommendations). Педагогнинг таълим жараёнида ўкув лойиха ёки ўкув-тадқиқот ишларини ташкил этиши орқали фан асосларни ўрганишга алоҳида ургу бериши хамда ўкув машғулотларда замонавий таълим технологияларидан самарали фойдаланиши, муаммони қўйиш асосида ўкувчиларни муаммони хал этишга далилларни кидиришга йўналтириши ва олинган маълумотларни қайта ишлаши учун зарур бўлган элементларни киритилиши ўкувчиларда фанга оид бўлган

билимларни ўзлаштиришга, қўнимка ва компетенцияларни шаклланишига имкон беради.

Хуласа ўрнида шунни таъкидлаб айтиш жоизки, замонавий таълим беришда ўкувчиларда шахсий интеллектуал – изходий қобилиятларни ривожлантиришнинг энг мақбул йўлларидан бири, уларни ўкув-войиха хамда ўкув-тадқиқот фаолият билан шугулланишларини ташкил этишдан иборат. Шунинг учун хам бу фаолият таълим жараёнининг муҳим ажralmas кисми хисобланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Разумовский В.Г. Ўкувчиларда изходий қобилиятларни ўстириш. –Тошкент Ўқитувчи, 1978. – 286 б.
2. Савенков А.И. Исследовательское обучение и проектирование в современном образовании // Исследовательская работа школьников. –М., 2004. – №1. – С. 22 – 32.
3. Леонович А.В. Об основных понятиях концепции развития исследовательской и проектной деятельности учащихся // Исследовательская работа школьников. – 2003. – №4. – С.12-17.
4. Chiappetta E.L., Koballa T., Collette A.T./Handbook of Science Teaching in Secondary Schools. Upper Saddle River, NJ: Merrill. Prentice Hall, – 2002.
5. Нарзиева Н.Н. Умумтаълим мактаб ўкувчиларида таянч компетенциялар асосида тадқиқотчилик қўнимкамаларини шакллантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, СамДУ, – 2019. – 21 б.

5. Суяров К.Т. Физик экспериментлар асосида ўқучиларда ўқув-тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Чирчик. ЧДПИ, – 2019. – 18 б.
6. Milliy o‘quv dasturi muhokamasi. https://t.me/dastur_muhokamasi – 2020.



УДК: 169.9 (129.1)

Асроржон САТТОРОВ,

Жамоат хавфсизлиги университети ўқитувчisi

Email: alfraganus@bk.ru

ЎзМУ доценти, ф.ф.н. А.А.Ташанов тақризи асосида

THE THREAT OF TERRORISM IN THE MASK OF RELIGION TO THE SECURITY OF THE CENTRAL ASIA REGION

Abstract

The article covers the development processes of extremism and religious sectarianism, which can threaten the security of the Central Asian region, the factors that cause the problems of Afghanistan, the interpretation of the activities of the borders of the region, the sources of international terrorism, the activities of actions that can threaten the security that is taking place on the borders of the region.

Key words: regional security, border security, ISIS, international terrorism sources, illegal migration, arms smuggling, drug trafficking, anti-terrorism.

УГРОЗА ТЕРРОРИЗМА ПОД МАСКОЙ РЕЛИГИИ ДЛЯ БЕЗОПАСНОСТИ ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИЙСКОГО РЕГИОНА

Аннотация

В статье рассматриваются процессы развития экстремизма и религиозного сектантства, которые могут угрожать безопасности Центрально-азиатского региона, факторы, вызывающие проблемы Афганистана, интерпретация деятельности на границах региона, источники международного терроризма, деятельность действий, которые могут угрожать безопасности на границах региона, источники международного терроризма, деятельность действий, которые могут угрожать безопасности, происходящей на границах региона.

Ключевые слова: региональная безопасность, безопасность границ, «ИГИЛ», источники международного терроризма, нелегальная миграция, контрабанда оружия, незаконный оборот наркотиков, борьба с терроризмом.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИ ХАВФСИЗЛИГИГА ДИН НИҚОБИДАГИ ТЕРРОРИЗМНИНГ ХАВФИ

Аннотация

Мақолада Марказий Осиё минтақаси хавфсизлигига таҳдид солиши мумкин бўлган экстремизм, терроризм ва диний ақидапарастликнинг минтақада ривожланиш жараёнлари, Афғонистон муаммоларига сабаб бўлган омиллар, ҳалқаро терроризмнинг манбалари, минтақа чегараларида юз берадиган хавфсизликка таҳдид солиши мумкин бўлган ҳаракатлар фаолияти ёритилиб, унга қарши курашда минтақада ҳамкорлик жараёнларининг аҳамияти кенг ёритилган.

Калил сўзлар: минтақавий хавфсизлик, чегаралар даҳлсизлиги, “ИШИД”, ҳалқаро терроризм манбалари, ноконуний миграция, курол-ярок контрабандаси, гиёхвандлик моддалар савдоси, терроризмга карши кураш.

Кириш. Марказий Осиё минтақаси сўнги йилларда хавфсизлик ва барқарорлик мустаҳкамланиб бораётган ҳудудга айланиб бормоқда. Минтақада хавфсизликни таъминлаш ва иқтисодий барқарорликни мустаҳкамлашда Ўзбекистон Республикасининг Марказий Осиёдаги минтақавий сиёсати таъсир этмай қолмаяпти. Сўнги йиллардаги кенг ҳамкорлик алоқалари ушбу жараёнларни янада ривожлантиришга ва минтақавий хавфсизликни таъминлашга хизмат килмоқда. Янгиланган “Мудофаа доктринаси” мамлакатимиз ташки сиёсатини, айниқса Марказий Осиё давлатлари билан мустаҳкам алоқаларни янада кучайтириш имконини берди.

Хусусан, “Мудофаа доктрина”сида “ўз навбатида Марказий Осиёдаги вазиятга терроризм, экстремизм, наркотрафик ва трансчегаравий жиноятчиликнинг сақланиб турган хавф-хатарлари ва таҳдидлари салбий таъсир кўрсатмоқда. Афғонистондаги ноконуний куролли тузилмалар фаолияти минтақа хавфсизлигига алоҳида хавф солмоқда” деб таъкидлангани ҳам бу муаммо хавфсизликка таҳдид соловчи терроризм, экстремизм, наркотрафик ва трансчегаравий жиноятчилик каби сақланиб турган хавф-хатарларнинг накадар жиддий эканлигини англади [1].

Минтақада кўзатилган хавфларнинг энг жиддийи ҳам терроризм ва экстремизм муаммолари хисобланади.

Бугунги кунда терроризм ҳалқаро муносабатлар тизимишинг мустақил шаклланган, ўзига хос тасниф ва хусусиятларга эга феномен хисобланади.

Бу муаммонинг инсон цивилизациясига, хавфсизлиги, ижтимоий тараққиетига бузгунчи ва вайронкор таъсири кўлами тобора кенгайиб бормоқда.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (*Literature review*). Мавзуга оид якин мавзуларда олиб борилган тадқиқотларга бир қатор изланишларни киритиш мумкин. Хусусан Р.Алимов, С.Сафоев, С.Сайдолимов, Ф.Толипов, С.Жўраев, Ч.Кучаров, Ш.Пахрутдинов, М.Шарипов, Ш.Хайдаралиев, А.Иброҳимова, Ш.Гойбизназаровлар минтақада хавфсизликни таъминлаш масалалари ва муаммолари, минтақага хавф солиши мумкин бўлган террористик ва экстремистик ҳаракатлар фаолиятининг айrim жиҳатлари ва манфаатлар умумийлиги, Марказий Осиёда трансформация шароитида Ўзбекистон стратегияси, минтақадаги хавфсизлик ва ҳамкорлик жараёнлари муаммоларининг айrim жиҳатлари тадқиқ этганлар.

Хусусан, слиёсий фанлар доктори, профессор Р.Алимов “Центральная Азия: общность интересов”

номли тадқиқот ишида, С.Сафаев “Марказий Осиёдаги геосиёсат” номли монографиясида, С.Сайдолимов “Проблемы обеспечени и безопасности в Центральной Азии” номли монографиясида Ф.Толипов “Большая стратегия Узбекистана в условиях геополитической и идеологической трансформации Центральной Азии” номли тадқиқотида, –муаммонинг у ёки бу жиҳатларига эътибор қаратиб Марказий Осиё минтақасида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашнинг муҳим омилларини санаб ўтади.

Масалан, Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш мавзусига оид О.Сирожов[11]нинг “Марказий Осиёдаги минтақавий ҳамкорлик жараёнларида Ўзбекистон манфаатлари” мавзусидаги докторлик диссертациясида минтақада Ўзбекистоннинг минтақа давлатлари билан кенг ҳамкорлик жараёнларида ўз манфаатлари юзасидан олиб бораётган сиёсати кенг ёртиб ўтилади. Хорижлик олимлар томонидан Марказий Осиёда минтақавий хавфсизликни таъминлаш муаммолари ўзига хос сиёсий манфаатлар нуткай назаридан ўрганилган. М.Абишева, Т.Шаймергенов, Т.Бордачев, Э.Смолл, Ван Цинсун, Д.Попов, С.Причин, З.Дадабаева, Е.Кузьмина, Ю.Румер, Р.Сокольский, П.Стронский, С.Кушкумбаева, З.Шаукенова, Т.Ибраимова ва бошقا шу каби олимлар томонидан Марказий Осиё Республикаларининг геосиёсий муҳити, ички ва ташки сиёсий муаммолари, Россия ва Хитой, АҚШ ва Европа Иттифоқи, Япония ва Жанубий Корея, Эрон ва Туркиянинг геосиёсий манфаатлари билан боғлиқ жиҳатлари атрофлича таҳлил килинган.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Марказий Осиё давлатлари, жумладан, Ўзбекистон Республикаси ҳам ҳалқаро терроризмнинг янги таҳдид ва тажовузларига, айниқса, диний-сиёсий экстремизм таҳдидларига дуч кела бошлади, минтақа хавфсизлиги ва сиёсий барқарорлигига жиддий хавфхатар пайдо бўлди.

Тероризм ва экстремизм хавф-ҳатарларини ўрганишдан олдин унинг таснифини англаб олиш зарурдир. Тероризмни ёки дин никобидаги экстремизмни таснифлашда унинг фаолиятининг субъектлари, мақсадлари, шакллари, унинг тарқалган географияси, террорчилликнинг мафкуравий концепсиялари асос бўлиб хизмат қиласи. Мисол учун, муайян мақсадга қаратилган терроризм ва тасодифий кишилар кўрбон бўладиган ёлланган терроризм ажратиб кўрсатилади. Шу усбёт нуқтаи назардан ҳам тадқиқ қилиш муҳимdir. Минтақавий хавфсизликка таҳдид солувчи дин никобидаги терроризм ва экстремизмнинг уч уч асосий таснифи мавжуд ҳисобланади. Ушбу таснифга биноан террорчилар фаолиятининг хусусияти принципига, яъни фаолият у ички, трансмиллий ёки ҳалқаро эканлигига кўра курилган.

Минтақаларга ички ва ташки таҳдид саналиши мумкин бўлган террорчилик фаолияти типи кўйдагиларга бўлинади:

Ички: фуқароларнинг ўз худудида ўз давлатига қарши ҳаракатлари.

Трансмиллий: бир давлат фуқароларининг бошқа давлат худудидаги ўз ватандошларига қарши ҳаракати.

Ҳалқаро: террорчилар ҳалқаро, миллатлараро гурухларининг бошқа давлат ёки давлатларга қарши ҳаракатлари [2, 24].

Хозирги шароитда ички терроризм жуда кенг тарқалган бўлиб, бу биринчидан, экстремистик йўналишдаги ички сиёсий кучлар, ташкилотлар ва алоҳида шахсларнинг мавжуд ҳокиятга нисбатан фаолияти; иккинчидан ҳокимят тепасида бўлмаган, бир-бирига қарши курашаётган, ўз курашида террорчилик

методларидан фойдаланадиган сиёсий кучлар ҳамда ташкилотларнинг фаолияти ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Гарблик айrim журналист ва тадқиқчилар терроризм ҳодисасини фақат ислом дини билан bogлашлари, ўз ҳоҳишларини ҳақиқат қилиб тарқатишлари муқаддас ислом динини бўлгамоқда, ёмонотлик қилмоқда. Оқибатда мусулмон мамлакатларининг ҳалқаро ҳамкорлик жараёнларига жиддий таъсир этмоқда.

“Уларнинг “Ҳар бир мусулмон террорчи эмас, бироқ ҳар бир террорчи – мусулмон” деган иборалари хато эканлиги кундек равшан” деб таъкидлайди ўзининг тадқиқотида таникли сиёсатчи олим Шуҳрат Фойибназаров [3, 4].

Гарблик сиёсатчилар, давлат арабблари, таникли олимлар ва журналистлар орасида ислом динига, унинг арконларига хурм билан муносабатда бўлаётганлари ҳам мавжуд. Ислом динининг жаҳон цивилизациясида тутган ўрни ҳақиқати холисона фикрни АҚШнинг Принстон университети профессори, Гарбнинг мусулмон давлатлари билан муносабатлари бўйича таникли мутахассиси Бернар Льюис “Ислом инсоннинг зиминостаги ва муҳтоҳ тириклигига боғлиқ ҳаётига маъно ва қадр-қиммат берди, турил ирқ вакилларини бир-бирини ака-уқадек кўришга, шунингдек, турил эътиқоддаги кишиларни бир-бири билан бағрикенглик асосида яшаши ўргатди ва у инсоният мулкини бойитган цивилизация асосида ётади” [4, р.58] деб таъкидлаган эди.

Кўриниб турибиди бугун дунёда юз бераётган жараёнлар, дин никобидаги террорчи ташкилотларнинг ҳеч қандай динга алокадор эмаслиги, исломнинг асл моҳияти тинчликка сафарбард этишдан иборат эканлиги айrim гарбнинг шарқшунос ва исломшунос олимлари томонидан тан олинмоқда. Лекин аксарият сиёсатдон гарбликлар терроризм ва экстремизмни ислом билан боғлаб хато йўналиш тутмоқда.

Дунёнинг нотинч нуқталаридан бири ҳисобланган Яқин Шарқ минтақасидаги терроризм муаммолари бизнинг минтақамизга таъсир этмайди деб ҳеч ким айта олмайди.

XXI аср бошларида Яқин Шарқдаги геосиёсий вазият шундай кўрилди, 2003 йилда Ироқ давлатида содир бўлган уруш “Ислом давлати” янги террорчиллик ташкилоти кўринишида дунёга келиши учун кулаг замин ва имконият яратди ва унинг тарафдорлари томонидан янги платформа куриш устида ишлар жадал бошланди. Ундан олдинроқ ҳам бошқа террорчилик ташкилотлари томонидан мана шундай ҳаракатлар амалга оширилган ва диндан ўзларининг ноисломий хатти-ҳаракатларини яширишда фойдаланган эдилар.

Яқин Шарқ минтақасидаги можаролар узоқ иккинчи жаҳон уруши яқунлари ва Фаластин ҳудудининг бўлиниш жараёнлари даврига туғри келади. Бундан ҳам аввалроқ 1917 йилларда юз берган жараёнлар ҳам минтақада яхудийлар давлатини тузишга интилиш юз берган эди. Барчаси 1917 йилда, аҳолисининг аксарият кисми араблар бўлган, бироқ ихчам анклавлар кўринишида яхудийлар ҳам истиқомат қилган Британия бошкарувидаги Фаластин давлатида бошланган. 1917 йил 2 ноябрда Британия ташки ишлар вазири Артур Бальфур Фаластин яхудийлар жамоаси етакчиларига “Бальфур декларацияси” номи билан машҳур бўлган мактубни жўнатади. Ўз мактубида Бальфур яхудийлар учун миллий маконни таъсис этишин ёқлаган ва яхудийлар давлати айнан Фаластинда ташкил этилишига шама қилган эди [3, 22].

Минтақада 1920 йилги тартибсизликлар ва Хевроннинг яхудий жамоаси йўқ қилинган 1929 йилги кирғинлар “ўйнашиш” сиёсати натижаси бўлиб, Британия

маъмурияти иғвогарчилиги ёки ошкора бепарволиги сабабли рўй берди.

Марказий Осиё минтақасининг туташ худуди бўлган Афғонистондаги янги аср бошидаги муаммолар 2001 йил 11 сентябрда Нью-Йорқдаги эгизак биноларнинг террорчилек хужумлари оқибати дунёни ларзага келтирди. Бу нафакат кўшма штатларга, балки бутун дунёга чақирик эди.

Бунга жавобан 2001 йил 7 октябрда АҚШ ва унинг иттифоқчиларининг Афғонистондаги ҳарбий операцияси бошланди. У “Енгилмас Озодлик” операцияси доирасида террорчилек актига жавоб сифатида амалга оширилди. Ушбу операциянинг хуқукий асоси БМТ Хавфисизлик кенгашининг 2001 йил 12 сентябрдаги 1368-сонли резолюцияси хисобланади. Ушбу резолюцияга асосан АҚШ ва Буюк Британия қўшинлари Афғонистонга киритилган эди. 2002 йил 17 октябрда АҚШ сенати сўнги йигирма йил ичida энг йирик ҳарбий харажатлар учун ажратилаётган маблағ миқдорининг 37,5 млрд. долларга оширилиб, уша вактдаги йирик миқдор – 355,1 млрд.га етказилишига розилик берди [3, 26].

2003 йилда эса АҚШ Президенти Жорж Буш Саддам Хусайнга нисбатан кучларнинг ишлатилишига розилик берувчи Конгресс резолюциясига кўл қўйган эди. АҚШнинг Ироқка бостириб кириши нотуғри қадам бўлиб, динлараро душманликни кўзғатди ва “Ислом давлати” террорчилек ташкилотини пайдо бўлишига кулай замин яратди. Бундай таъсирли фикрини БМТ Бош ассамблеясининг 70-сессиясида даниялик сиёсатчи Могенс Люккетофт билдириб ўтган эди.

Халқаро валюта фонди маълумотларига кўра, турли тўқнашувлар натижасида араб мамлакатлари иқтисодиёти 2011-2014 йиллар оралиғида 800 млрд АҚШ доллари миқдорида зарар кўрган. Конли фожеалар туфайли ушбу давлатлар ялпи ички маҳсулотининг ўсиш суръатлари кескин пасайган, ишсизлик даражаси деярли оммавий тус олган.

Энг даҳшатлиси, Ироқ ва Сурия давлатлари худудида қарийб 8,5 миллион киши террорчи гурухлар тўлиқ назорат ўрнатган худудда, ҳар қандай фуқаровий хуқуқ ва эркинликлардан мархум бўлган холда кун кечиришига мажбур бўлган эди. Террорчилар ушбу мамлакатлarda оммавий катл, гаровдагиларни кийнаб ўлдириш, хотин-қизларни аёлларни зўрлаш ёки уларни кул килиб сотиш каби жирканч ва қабих ишларга кўл уриб, ўзларини эътиқоди пуч, имонсиз кимсалар эканликларини намоён этмоқда. Юзлаб зиёратгоҳлар, шиа мусулмонларининг масжидлари, христианларнинг чёрков ва монастирлари, мактаб ва кутубхоналар вайрон килинди [5].

Маълумотларга кўра, бугун дунёда 500 га яқин террорчилек ташкилоти фаолият кўрсатмоқда. Уларнинг 80 фоизи ислом ниқоби остида фаолият юритади. Улар қаторига “ИШИД (Ироқ ва Шом ислом давлати)”, “Жабха ан-Нусра”, “Ансару аш-Шам” (Сурия), “ал-Қоида”, “ал-Жиҳод ал-Исломий”, “ат-Такfir ва-л-Ҳижра” (Миср), “Абу Сайяф” (Филиппин), “Озод Ачех”, “Лашкари жиҳод” (Индонезия), “Куролли исломий ҳаракат” (Жазоир), “Боко ҳарам” (Нигерия), “Ислом жиҳоди ўюшмаси”, “Туркистон исломий ҳаракати”, “ИШИД – Хуросон” (Афғонистон) каби ташкилотларни киритиш мумкин.

Сиёсий ҳокимиятга интилаётган, диний шиорларни ниқоб қилиб олган ақидапараст оқимлар Марказий Осиё мамлакатлари, хусусан, Ўзбекистондаги ижтимоий-сиёсий вазиятга салбий таъсир ўтказишга ҳаракат қилиши ҳам мумкин. Сўнгти йилларда “жиҳодчилар”, сохта “салафийлар” каби диний-сиёсий гурухлар, шунингдек, “Хизбут таҳrir” диний-

экстремистик гурухи республикамизда фаол ҳаракат килишга уринган эди.

Дунёни ларзага келтирган 2001 йил 11 сентябрь воқеалари оқибатида Афғонистонда вазият тубдан ўзгарди. Беш йилдан кўпроқ вақт мобайнида давлатни идора килдган “Толибонлар” томонидан мамлакатда диний тартиб ўрнатиш боҳонасида, ўрта аср феодал тартибидаги тизимни ўрнатишга амалда ҳаракат қилинди.

2001 йил охирларидан расмий Вашингтон томонидан билдирилган халқаро аксилтеррор каолициясини тузиш ташабbusi дунёning 140 га якин давлати томонидан қўллаб-куватланди ва улардан 30 га якин аксилтеррор каолиция таркибида бевосита Афғонистондаги “Букилмас озодлик” (Enduring Freedom) номли аксилтеррор кампаниясида иштирок этиди [6, 93].

2001 йил 7 октябрда Афғонистонда АҚШ бошчилигидаги аксилтеррор каолиция томонидан террорчиларга карши операция бошланди ва мазкур операция давомида “Толибон” кучларига ҳаводан зарба берилиб, уларнинг ҳарбий инфратузилмасига жиддий шикаст етказилди. Аммо, шундай бўлсада, толибларнинг 40-50 минг кишилик ва “Ал-Қоида” халқаро террористик гурухининг эса 5 минг кишилик пиёда жангариладан иборат асосий кучлари мамлакатнинг йирик шаҳарларини ўз назоратида ушлаб турар эди. Толибларни ушбу кучларига зарба беришда 15 минг кишилик ҳарбийлардан иборат “Шимолий альянс” таркибига кирувчи Муҳаммад Қосим Фахим [12], Истоилхон, А.Дўстим ва А.Халилий етакчилигидаги кучлар катта роль ўйнади [5, 93].

Афғонистонда “Шимолий альянс” ҳарбий кучлари ҳаракати натижасида 2001 йил 9 ноябрда Мозори Шариф, 12 ноября Хирот, 13 ноября Кобул, 15 ноября Жалолобод шаҳарлари толиблардан озод қилинди ва “Толибон” бошқарувига барҳам берилди.

Афғонистон худудида узок йиллардан буён давом этаётган, нодемократона бошқарув тартиби бекор қилинди. Шундай муаммоларни ҳал этиш ҳамда мамлакатда тинчлик ва барқарорликни таъминлаш мақсадида авалло, нормал фаолият кўрсатадиган, замонавий афғон давлатчилигини шакллантириш жараёни бошланган эди.

Бугун кўшни юрт Афғонистонда ҳокимиятнинг қўлга олиб, ўз сиёсатини юритишни бошлаган “Толибон” ҳаракатининг илк асослари ҳам дин ниқобидаги экстремистик ҳаракатлар ташабbuskorлари томонидан ташкил килинган эди. Бу борада юртимизда террорология ўйналишининг етакчи олими Ш.Ғойинбазаров ўз тадқиқларида батафсил маълумотларни келтириб ўтади.

Авалло бу давлатда кучлар манфаати тўқнаш келиши муаммосига тўхталарап экан, 1993 йил бошида Афғонистонда юзага келган геосиёсий вазият Россия ва Марказий Осиё мамлакатлари учунгина манфаатли бўлмай, у можаролашувчи бошқа томонларни ҳам кониқтиради. Биринчидан, Нажибилло режими кулаган пайтда пуштун дала командирининг кўпчилиги ўз кабиласи ёки музофати доирасида ягона афғон давлати учун курашишдан кўра, тўлиқ мустақилликни афзал кўришганини таъкидлайди [2, 194].

Россиялик муаллиф И.Е.Кантков ўз асарида покистонлик тадқиқотчи Аҳмаднинг: “Лашкарни жанга ундовчи омил ҳокимият учун узок давом этадиган кураш билан боғлиқ бирон-бир бошқарувни ўрнатиш эмас, балки тўқнашувда иштирок этиб донг таратиш эди. Шу боис шиддатли хужумдан кейин лашкар пароканда бўлиши муқаррар”, деган фикрини келтиради.

Уша кезларда, яъни 90 йиллар бошида Афғонистоннинг парчаланганлик ҳолати Эрон Ислом Республикаси учун ҳам фойдали эди. Афғонистондаги уша пайтда эронпараст “Хизби Ваҳдат” партиясига

мансуб ҳазора шиалари 1992 йилда тогли Ҳазоражатда Бомиён вилоятини ва мамлакат пойтахи Кобул ҳудудининг бир кисмини назорат килишганди [2,195].

Бу ҳудудда уша вақтларда ўз манфаатларини излаган, давлат ички ҳаётига таъсир ўтказишга интилган давлат Покистон эди. Давлатдаги фуқаролар уруши давомида ғарб цивилизациясининг Афғонистон советлар босиб олинишига қарши таянчи сифатида барча авзаликлардан фойдаланиб келди. Бу, энг аввало, Фарбнинг мамлакат иқтисодиётига жиддий кўмагида, замонавий ҳарбий техникини етказиб беришда ва умуман Покистон ярмиясининг кўллаб-кувватланишида, шунингдек миллионлаб афғон кочоқларига ҳарбий ҳамда моддий ёрдамнинг тақсимланиши устидан Исломободнинг назоратида ўз ифодасини тонган эди [7].

2021 йил август ойига келиб “Толибон” ҳаракати вакиллари Афғонистонда ҳокимиятни эгаллашди. Бугунги кунга келиб Покистон давлатининг Афғонистон бўйича сиёсати батамон ўзгартган. Давлатда демократик ислоҳотларни кўллаб-кувватлаб келмоқда.

2021 йил 16-17 сентябр кунлари Душанбеда бўлган ШХТнинг ўйирманчи юблей самитида иштирок этган Покистон раҳбари ҳукумат афғон діёридаги тожиклар, ҳазоралар ва ўзбеклар иштирикда Афғонистоннинг инклизиф ҳукуматини тўзиш бўйича толиблар билан музокара бошланганигини айтган эди.

Бош вазир бу 40 йиллик уруш ва низолардан кейин мамлакатда тинчлик ва барқарорлик ўрнатилишига хисса қўшиши, ўзгаришлар нафакат афғон юрги, балки бутун минтақага фойда келтиришини таъкидлаган [8].

“Афғонистонда 40 йил деганда ниҳоят тинчлик ўрнатиш имкони пайдо бўлди ва бу имкониятни кўлдан бой бермаслик керак. Покистон кўшни Афғонистондаги уруш сабаб 80 минг фуқаросини ва 150 миллион доллар маблагини ўқотди. Шунингдек, уруш сабаб Покистонга 4 миллион афғонистонлик қочоқлар ўтган. Афғонистон террорчилар учун бошпана, наркотик сотиладиган ҳудуд ва кочкинлар макони бўлмаслиги керак. Олдинги ҳукумат 75 фоиз ҳалқаро ҳамжамият кўмаги эвазига мавжуд эди. Афғонистонга ҳалқаро гуманитар ёрдам бериш жараёнини тизимлаштириш керак”, деган эди Покистон раҳбари.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев Покистон раҳбари билан 2021 йил 16 сентябрда

Душанбеда музокара ўтказиб, Афғонистонда вужудга келаётган ҳолатдан келиб чиқиб минтақадаги вазият юзасидан фикр алмашилди. Минтақавий ҳавфсизикни таъминлаш масалаларида яқиндан ҳамкорликни давом эттиришга келишиб олинган эди [9].

Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations). Марказий Осиё минтақасида ҳавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлаш албатта, давлатларро ҳамкорликка бевосита боғлиқ хисобланади. Минтақада мавжуд ҳавф-ҳатарлар ҳар бир мамлакат ижтимоий-иктисодий ҳаётига таъсир этади. Ўзбекистон томонидан илгари сўрилаётган барча ташаббуслар Марказий Осиё давлатлари ҳавфсизлигига таҳдидларни олдини олишга қаратилган. Ўзбекистон еспубликаси президенти минтақада ҳавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш мақсадида амалий ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш зарурлигини эътироф этаркан, бугунги кунда минтақанинг барча мамлакатлари терроризм, диний экстремизм, трансмиллий жиноятичлик ва наркографик таҳдидларга қарши курашишини факат биргаликда, амалий ҳамкорлик механизмлари доирасида таъминлаш мумкинлигига эътибор қаратилмоқда. “Ҳавфсизликка таҳдидларни “ўзиники ва ўзгаларни” деб ажратишдан воз кечиш, яхлит ҳавфсизлик” тамоилиги амалда риоя килиш зарур, деган катъий фикрдамиз” деб таъкидлаган эди [10, 269-б]. Шундан хулоса қилиш мумкинки дин никобидаги экстремизм ва терроризмга қарши кураш, баркарор ҳавфсизликни таъминлашнинг энг муҳим омили минтақада ҳамкорлик, бирлик тамоилларини мустаҳкамлаш хисобланади. Бугун юзага келаётган минтақавий инқирозда ҳам мамлакатлар бир бирини кўллаб-кувватлаши энг муҳим масаладир. Ўзбекистон раҳбари таҳдидларни тақлифлари ва ташаббусларидан бири Афғонистоннинг минтақавий иқтисодий жараёнларга қўшилишига ҳар томонлама кўмаклашишдан иборат ва жаҳон ҳамжамиятини ҳам бу ҳаракатларга чорлашдир. Ўзбекистон бундан кейин ҳам минтақада барқарорлик ҳукм сурини учун қўшни мамлакатни иқтисодий жиҳатдан тикаш, унинг транспорт ва энергетика инфратузилмасини ривожлантириш, миллий кадрлар тайёрлаш жараёнларида фаол иштирок этишга интилувчи давлат бўлиб қолади.

АДАБИЁТЛАР

1. “Мудофаа доктринасини тасдиқлаш тўғрисида”ти Ўзбекистон Республикаси қонуни. <https://lex.uz/docs/3495885>
2. Фойибназаров Ш.Ф. Ҳалқаро терроризм: илдизи, омиллари ва манбаи. – Т.: Ўзбекистон. 2009.
3. Фойибназаров Ш.Ф. Ислом терроризмга қарши. – Т.: Ўзбекистон, 2021.
4. Chautard S. Geopolitique du XX-e siecie. Р., 2009/7.
5. Юсупов О. Мамлакатимизда диний экстремизм ва ҳалқаро терроризмга қарши курашнинг долзарб йўналишлари. <https://religions.uz/news/detail?id=443>
6. Рашидов Р.Р. Афғонистонда давлатчилик шаклланишида ҳалқаро қучлар таъсири. сий. фанлар бўйича фалсафа докторлиги дисс автoreferati. – Т.: ТДШИ. 2018.
7. Игнатенко А. Исламский радикализм как побочный эффект “холодной войны”. – http://www.niiss.ru/misc_ignb.shtml
8. <http://kun.uz/46731666>
9. <http://president.uz/uz/list/view/4619>
10. Мирзиёев Ш.М. Ҳалқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга беришган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон.
11. Сирожов О.О. Марказий Осиёдаги минтақавий ҳамкорлик жараёнларида Ўзбекистон манфаатлари. с.ф.д. (DSc) дисс. автoreferati. – Т.: ТКТИ. 2018.
12. 2001 йил 11 сентябр воқеаларидан икки кун олдин яъни 9сентябрда “Шимолий альянс” ҳарбий кучларнинг етакчиси Аҳмадшоҳ Масъуд Усама бен Ладен томонидан уюштирилган суюқасидаги ҳалок бўлди. Шундан сўнг “Шимолий альянс” ҳарбий кучларига раҳбарлик қилиш А.Масъуднинг ўринбосари генерал (кейинчалик маршал) Муҳаммад Қосим Фахим (1956-2014)га ўтди.



Бекзод ТОЛИБОВ,

Фаргона давлат университети таян докторанти

E-mail: bekzod-tolibov@mail.ru

ФарДУ Ижтимоий иши кафедраси мудири, и.ф.н., доцент М.Абдураҳмонова тақризи асосида

SOCIAL SERVICES OF ORIENTAL THINKERS APPROACHES

Annotations

The article reflects the socio-philosophical views of Eastern thinkers on the organization of social services for those in need. Forms and manifestations of social services to those in need in the Ancient East, as well as social protection of the poor, the organization of assistance in the form of social services to them in difficult life situations, for example, systemic.

Key words: thinker, social service, needy, social protection, neighborhood, technology, method.

СОЦИАЛЬНЫЕ УСЛУГИ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ПОДХОДЫ

Аннотации

В статье отражены социально-философские взгляды мыслителей Востока на организацию социального обслуживания нуждающихся. Формы и проявления социального обслуживания нуждающихся на Древнем Востоке, а также социальная защита малообеспеченных, организация помощи в виде социальных услуг им в сложных жизненных ситуациях, например системная.

Ключевые слова: мыслитель, социальное обслуживание, нуждающиеся, социальная защита, соседство, технология, метод.

ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР БОРАСИДАГИ ЁНДАШУВЛАРИ

Аннотация

Мақолада Шарқ мутафаккирларининг аҳолининг эҳтиёжманд қатламларига ижтимоий хизматларни ташкил этишдаги ижтимоий фалсафий қарашлари ўз аксини топган. Қадимги Шарқда эҳтиёжманд одамларга ижтимоий хизмат кўрсатиш шакл ва кўринишлари, шунингдек аҳолининг эҳтиёжманд қатламларини ижтимоий ҳимоя қилиш, уларнинг қийин ҳаётий вазиятларида уларга ижтимоий хизматлар кўринишидаги ёрдамларни ташкил қилишни бир тизим кўринишига келтириш каби долзарб масалалар ёритилган.

Калит сўзлар: Мутафаккир, ижтимоий хизмат, эҳтиёжманд, ижтимоий ҳимоя, маҳалла, технология, метод.

Кириш. Шарқ мутафаккирларининг ижтимоий-фалсафий қарашлари Фарб назариётчиларининг ижтимоий-фалсафий қарашларидан бир мунча фарқ килсада, аҳолининг эҳтиёжманд қатламларидунёнинг барча ўлкаларида бир ҳил кўринишида бўлғанлиги сабабли уларга ижтимоий хизматларни ташкил қилиш масасласи деярли бир ҳил қарашларга эга. Қадимги Шарқда эҳтиёжманд одамларга ижтимоий хизмат кўрсатиш дастлаб, Буддийлик, Зардуштийлик сўнгра Ислом дини таълимотлари асосида ташкил қилинган бўлса, Фарбда Қадимги Юнон, Қадимги Рим ва Насронийлик (Христианлик)динларининг таълимоти асосида ташкил қилинган. Диний таълимотлар турлича булса ҳам уларнинг асосий мақсади инсон қадрининг олий нұктаси бўлмиш фаровон ҳаётда барча инсонлар бир ҳил яшаш имкониятига эга бўлиши каби гоялари ўз аксини топган.

Аҳолининг эҳтиёжманд қатламларини ижтимоий ҳимоя қилиш, уларнинг қийин ҳаётий вазиятларида уларга ижтимоий хизматлар кўринишидаги ёрдамларни ташкил қилиш килишни бир тизим кўринишига келтириш масасаси ҳар доим ҳам долзарб масала ҳисобланган. Аҳолининг эҳтиёжманд қатламларига ижтимоий хизмат кўрсатиш жараёнлари деганда ушбу тизимнинг назарий асослари ва амалиётининг шаклланиши ҳамда ривожланиши босқичларини тушуниш мумкин. Жамиятларнинг тараққиёт босқичлари давомида ишлаб чиқариш кучлари ўртасидаги ўзаро мутаносиблиқ, меҳнат ва бандликни ташкил қилиш, жамиятдамавжуд турли миллатлар ва элатларнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий-маданий гоялари, анъаналари, турмуш тарзига

боғлиқ ҳолатлар ушбу жарённинг ўзига хос хусусиятларини шаклланишига таъсир кўрсатадиган асосий омиллар деб таъкидлаш мумкин.

Шарқ мамлакатларида, жумладан, Ўрта Осиёда ижтимоий ҳимоя ва ижтимоий хизматларнинг қадимги даврга хос бўлган шакллари ҳақидаги илк маълумотлар зардустийлик динининг муқаддас китоби «Авесто»да келтирилган. Зардустийлик ўз даврида инсоннинг ер юзида фаровон яшашига катта аҳамият берган олижаноб динлардан бўлиб, унинг таълимотидаги «Эзгу фикр», «Эзгу сўз», «Эзгу амал»га риоя қилиш асосида яшаш шароити Шарқ мамлакатлари халқларининг тарзидан ўрин олиб, факирларга меҳрибонлик, инсонпарварлик, кишига иснод келтирувчи шароити холи бўлиш тушунилган. «Авесто»нинг энг қадимги Яштлар кисимида табиий ва ижтимоий ҳаётнинг алоҳида соҳаларини бошқариб турувчи Тангрилар мавжуд деб хисобланиб, жумладан, ижтимоий барқарорлик, фаровонлик маъбуди – Паренди қабилаларни парокандаликка элтувчи зўравонлик, бекорга кон тўкишлар, факир кишиларга нисбатан адолатсизлик, уларнинг мол-мулкига зиён етказишни қоралаган, вайроналик ва ҳалокатларнинг олдини олиш учун ҳалол меҳнат билан тинч-тотув яшашга чақирган. [1]

Зардустийлик таълимотидан кўриниб турибдикни, Шарқда қадимдан инсон қандай ижтимоий ҳолатда бўлиши қатгий назар у қадрланган. Инсоннинг қадри ва киммати ҳамда унинг ижтимоий мақоми мустаҳкамланиб, бу тартиби бузилишга йўл кўйилмаган. Аҳоли сонининг кўпайишига катта аҳамият берилган. Зардустийлик

динининг асосий тамойиллари ўз замонасида ахолининг турли қатламлари ўргасидаги номутаносибликни тартибига солувчи қонун вазифасини ўтаган.

VI-VIII асрларда ислом динининг инсонпарварлик гоялари асосида ахолининг эҳтиёжманнд қатламларини ижтимоий химоя қилиш чоралари яхлит тизим кўринишида бўлмаса-да, ногиронлар, етимлар, кариялар, бева-бечораларга ғамхўрлик қилиш шаклида қўллана бошлайди. Ушбу даврдан жорий этилган хайру-эхсонлар, садакалар, вақф мулкалари ва закотлардан йигилган маблаглар асосида маҳсус жамғармалар ташкил килинган. Мазкур жамғармалар хисобидан камбағалларга ва қарздорларга кўмаклашиш, қулликка тушганларни озод килиш, очларга таомлар улашиш, етимлар ва бева-бечораларга озиқ-овқат улашиш мақсадида фойдаланилган. Бу эзгу амалларни кенг ёйилишида Исломдининг муқаддаси китоби Куроннинг юздан ортиқ оятларида ва Мухаммад алайҳи саломнинг Ҳадиси шарифларида айнан эҳтиёжманларга ёрдам бериш уларнинг мушкулини осон қилиш яхши амалларнинг энг афзали эканлиги таъкидланган. Исломда иймон борасидаги фарзларнинг тўртинчи фарзи бу закотdir. Закот Ислом динидаги маънавий, руҳий ва жисмоний ибодатлар билан бир каторда молу-мулк билан ибодат қилиши англатади. Закот хайру-эхсон, садака ва ҳомийликдан фарқли ўлароқ, закот манзиллик бўлиши шарт яъни закот айнан ахолининг эҳтиёжманнд ахоли қатламини моддий қўллаб кувватлаш учун берилади. Закот хисобидан йигилган мулкларни бошқа мақсадларда ишлатишга йўл қўйилмайди. Масалан, Куръони Каримнинг Тавба сўраси 60-оятида «Албатта, садакалар (яъни закотлар) Аллоҳ томонидан фарз бўлган ҳолда, факат факирларга, мискинларга, садака йиғувчиларга, кўнгиллари (Исломга) ошно қилинувчи кишиларга, бўйинларни (кулларни) озод қилишга, қарздор кишиларга ва Аллоҳ йўлида юрганларга ҳамда йўловчи мусоифирларга берилур. Аллоҳ билим ва хикмат соҳибидир» дейилади. [2]

Ҳадиси шарифларда эса, «Садака беришни ўзингдан бошла. Агарда ортса оила аъзоларинга сарфла, агарда улардан ҳам ортса қариндошларинга сарфла. Агарда қариндошларнингдан ҳам ортса шу йўсинада аввал яқин, кейин узокларинга бер», – деб таъкидланади. [3] Шунингдек, Куръон ва Ҳадисда инсон учунъяшилика чорловчи ишлар, иймон-эътиқод, адолат, ҳолислик, поклик, бева-бечоралар, етим-есирларни химоя қилиш ва уларга ёрдам кўрсатишга доир қоида ва тартиблар билан Шарқ ҳалқларининг жамоавий бирдамлиги ва ҳамжиҳатлигини мустахкамлаган диний-маърифий китоблардир.

- **Тадқиқот методологияси (Research Methodology).** Ўрта Осиё Шарқ дунёсининг илмий-маданий марказига айланган ренианс даври яъни IX-XIII асрларда яшаб ижод этган мутафаккирлар қарашларида меҳнат қобилиятига эга бўлмаган ёки турли кийин ҳаётий вазиятлар натижасида ушбу қобилиятини йўқотган ахолининг эҳтиёжманд қатламларининг ижтимоий-иқтисодий ва хуқуқий манфаатларини химоя килишмасалаларини ўрганар эканлар, мутафаккирлардан Абу Наср Форобий ва Хўжа Баҳовуддин Накшбандийлар инсонни жисмоний ва руҳий ҳолатидан қатъий назар, ўзи учун моддий фаровонлик яратса олиш қудратига эга бўлган мукаммал мавжудот ва ўзгалар ёрдамига умид қилишни бўқимандалик деб биладилар. Жумладан, Абу Наср Форобий ўзининг «Фозил одамлар шаҳри» асарида инсон «кожиз банд» эмас, аксинча, ўзи учун зарурий фаровонликни яратса олиш қудратига эга бўлган борлиқ эканлигини таъкидлайди. [4] Тасаввуф таълимотининг машҳур намоёндаларидан Хўжа Баҳовуддин

Нақшбандийнинг «Нақшбандия» тариқати асосини меҳнатеварлик ташкил килиб, «Даст ба кору дил ба ёр» яъни, инсон қалбida Аллоҳни мадҳ қилгани ҳолда, кун кўриш учун меҳнат қилиши заруриятини кўрсатади. [5]

Фикримизча, мазкур фикрлар меҳнат қобилиятига эга бўлган ахоли қатламига нисбатан билдирилган бўлиб, инсонни ўз аклий ва жисмоний имкониятларидан оқилона фойдаланишга ундаиди. Аммо, жамият тараққиётининг ҳар бир боскичида ахолининг мустақил ҳаёт кечириш қобилиятига эга бўлмаган эҳтиёжманд қатламлари мавжуд бўлиб, улар ўзгалар ёрдамига муҳтождирлар.

Ушбу даврда яшаб ижод этган мутафаккирлардан Абу Али Ибн Сино ва Ахмад Яссавийлар, аксинча, ёрдамга муҳтоҷ бўлганларга мадад кўлинин чўзиш, ҳар бир инсон учун муносиб турмуш тарзини яратиш, улрага инсонпарварлик нуқтаи назаридан муносабатда бўлишиликни тарғиб қиласидилар. Хусусан, Ахмад Яссавийнинг шоҳ асари бўлмиш «Девони хикмат»да:

Бисмиллоҳ деб баён айлай ҳикмат айтиб,
Толибларга дурру гавҳар сочтим мано.
Риёзатин қоттиғ тортиб, қонлар ютуб,
Мен дафтари соний сўзин очтим мано.

Сўзни айдим ҳарким бўлса дийдор талаб,
Жонни жонға пайванд қилиб, рагни улаб,
Фариб, етим, факирларни кўнглини сийлаб,
Кўнгли бутун ҳалойиқдин қочтим мано.

Қайда кўрсанг, кўнгли синуқ марҳам бўлғил,
Андоғ мазлум йўлда колса, ҳамдам бўлғил.
Рўзи маҳшар даргогига маҳрам бўлғил,
Мовуманлик ҳалойиқдин қочтин мано.

Ғариф, факир, етимларни Расул сўрди,
Ўшал туни Меъроҳ чиқиб дийдор кўрди,
Қайтиб тушуб ғариф, факир ҳолинг сўрди,
ғарибларни изин излаб туштум мано.

Уммат бўлсанг, ғарибларға тобеъ бўлғил,
Оят, ҳадис ҳар ким айтса, сомеъ бўлғил,
Ризқу рўзи ҳарна берса, қонеъ бўлғил,
Қонеъ бўлуб, шавқ шаробин ичтим мано.

Мадинага Расул бориб, бўлди ғариф,
Ғариблиғда меҳнат тортиб, бўлди ҳабиб,
Жафо тортиб, яратқанға бўлди қариб,
ғариф бўлуб, уқболардин оштим мано.

Оқил эрсанг, ғарибларни кўнглини овла,
Мустафодек элни кезиб, етим ковла,
Дунёпараст, ножинслардин бўюн товла,
Бўюн товлаб, дарё бўлуб тоштим мано. [6]

Асарнинг бошланиши куйидаги сўзлар билан бошланишининг ўзи Яссавия тариқатининг дикқат марказида эҳтиёжманларга ёрдам бериш масаласи тўрганини кўриш мумкин. Тасаввуф таълимотида ҳалқ манфаати учун қайғуриш, уларнинг ҳақ-хуқуқларини химоялаш ғоялари кенг тарқалган бўлиб, ушбу таълимот намоёндаларидан Хўжа Ахмад Яссавийнинг хикматларида оддий ҳалқ, йўқсиллар бутун бир катлам сифатида таърифланади ва уларни «ғариблар», «етимлар», «факирлар» номи билан атаб, мулкдорларга айнан шу қатламларга нисбатан ғамхўр бўлишини насиҳат қиласиди ва юқори табака вакилларини ҳалқ учун хизмат қилишга чакиради. [7]

Абу Али Ибн Сино «Агарда давлатда подшолар ва хукмдорлар мавжуд бўлмай, барча тенг моддий

имкониятта эга бўлганда ҳеч ким меҳнат килмай кўйишини, аксинча, факат қашшоқлик бўлса жамият таназзулга учрашини қайд этган». [8] Бизнингча, мазкур фикрлар ўз замонасининг илфор ғоялари қаторидан ўрин олган бўлиб, жамият барқарорлиги ва осойишталигини таъминлаш, турли табақалар ўртасидаги мувозанатни сақлаб туришнинг муҳим омилларидан бири ижтимоий ҳимоя эканлигини таъкидланган.

Ўрта асрларнинг ривожланган иккинчи босқичи (XIV-XVI асрлар) га келиб Соҳибқирон Амир Темур ва темурийларнинг улкан давлати доирасида олиб борилган ижтимоий сиёсатга тўхталар эканмиз, Соҳибқирон ўз салтанатида қашшоқлар микдорини камайтириш мақсадида уларнинг сонини тўла хисобга олиб нафакалар белгилаган. Хусусан, у куйидагича ёзди, «...яна амр этдимки, ҳар бир катта-кичик шаҳар, кишлекда масжид, мадраса ва ҳоказолар бино килсинлар, факиру мискинларга лангархона, гарифхоналар солсингар, касаллар учун шифохона курдирсингар ва уларда ишлаш учун табиблар тайнинсанлар». [9] Албатта, ушбу ғоялар Соҳибқироннинг ижтимоий қарашлари инсон ва унинг ижтимоий-иқтисодий фаровонлигини таъминлашга йўналтирилганлигидан гувоҳлик беради. Эътиборлиси, Амир Темур ўз салтанатидаги муҳтожларни ижтимоий ҳимоя килишда назарий кўрсатмалар бериш билан чекланмай, берилган фармонларининг ижросини

таъминланишини назорат қилиб борган ва кенг қамровли амалий ишларни рўёбга чиқарган.

Амир Темурнинг бошлаган ибратли ишларини унинг авлодларидан Шоҳруҳ Мирзо ва Мирзо Улуғбеклар давом эттириб, улар мамлакатда осойишталикини таъминлаш мақсадида ҳалқ оммасининг ижтимоий-иқтисодий аҳволини ўрганиб чиққанлар. Нарх-наво, солиқ тизимини тартибга согланлар.Хаттоқи, Мирзо Улуғбек ўз мадрасасида талабаларни ўқиши савиясига қараб нафақалар тайинлаган. [10] Албатта, бу тадбирлар темурийлар даврида ижтимоий муҳофаза давлат аҳамиятига молик бўлган масалалардан бири эканлигини кўрсатади.

- **Хулоса (Conclusion/Recommendations).** Хулоса ўрнида айтиш мумкини Шарқ мутафаккирларининг асрларида аҳолининг эҳтиёжманд қатламига ижтимоий хизматлар кўрсатиши масаласи нафакат давлат аҳамиятига молик масала, балки, маҳаллий аҳолининг диний эътиқоди, тасаввуф таълимотида, турмуш тарзи, анъана ва қадриятлари билан бевосита боғлик бир ижтимоий ҳодиса эканлигини алоҳида қайд этиш мумкин. Ўрта Осиёда қадим даврилардаги кўл ёзмалар, илк ўрта асрлар давридаги исломи динида, тасаввуф йўналишларининг таълимотларида ҳам шуни кўриш мумкини, Шарқда инсонон кадр-киммати доим юқори баҳоланганд. Шунингдек, эҳтиёжманд инсонларни ҳам хаёт даврида барча инсонлар катори фаровон яшашиб учун муносиб шароитлар яратиш ғояси устувор гоя бўлган.

АДАБИЁТЛАР

1. Бобоев X., Ҳасанов С. «Авесто» – маънавиятимиз сарчашмаси. – Тошкент: Адолат, 2001. – 110 .
2. Алимов У.Т. Хайр-эҳсон фазилатлари. – Тошкент. Маворунаҳр.2011. – Б.24.
3. Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. 4.Т. – Тошкент: Қомуслар, 1997. Т.3. – Б. 475- 476
4. Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016 – Б.176.
5. Маънавият юлдузлари. (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиллар) / Масъул мухаррир Хайруллаев М.М. – Тошкент: Халқ мероси, 2001. – 167 б.
6. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б.6.
7. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б..234
8. Ибн Сино. Тибқонунлари. З.Т. – Тошкент: Халқмероси, 1992. Т.1. – Б.304.
9. Амир Темур. Темур тузуклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б.100.
10. Яхшиликов Ж., Ахмадов Ш. Темурийлар маънавияти. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.114.



Фаррух ТОЛИБОВ,
ЎзМУ тадқиқотчиси

Т.ф.н. А.Тохириён тақризи асосида

ESSENCE AND CONTENT OF THE CONCEPT OF RELIGIOUS EXTREMISM

Abstract

Religious extremism is a kind of spiritual threat to society, aggressive political activity in which its adherents incite members of their religious confessions to radical actions, seek to disrupt peace and tranquility in a certain territory and overthrow the existing constitutional order. The article reflects the question of how relevant it is to substantiate the true nature of this social threat from a scientific point of view.

Key words: extremism, terrorism, fanaticism, religious extremism, religious fundamentalism, subversion, extremist groups.

СҮТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ РЕЛИГИОЗНОГО ЭКСТРЕМИЗМА

Аннотация

Религиозный экстремизм - это вид духовной угрозы обществу, агрессивная политическая деятельность, при которой его приверженцы подстрекают членов своих религиозных конфессий к радикальным действиям, стремятся нарушить мир и спокойствие в определенной территории и свергнуть существующий конституционный порядок. В статье отражен вопрос о том, насколько актуально обосновать истинную природу данной социальной угрозы с научной точки зрения.

Ключевые слова: экстремизм, терроризм, фанатизм, религиозный экстремизм, религиозный фундаментализм, подрывная деятельность, экстремистские группы.

ДИНИЙ ЭКСТРЕМИЗМ ТУШУНЧАСИННИНГ МАЗМУН ВА МОХИЯТИ

Аннотация

Диний экстремизм жамиятдаги маънавий таҳдидларнинг бир тури саналиб, унинг тарафдорлари ўзлари мансуб бўлган диний конфессия вакилларини радикал ҳаракатларга чорловчи, маълум бир худуддаги тинчлик ва осоишишаликни издан чиқаришга интилувчи, мавжуд конституцион тузумни ағдариб ташлашга давлат этувчи тажовузкор сиёсий фаолиятдир. Ушбу ижтимоий таҳдиднинг асл моҳиятини илмий нуқтаи назардан асослаш қанчалик долзарб эканлиги масаласи мақолада ўз аксини топган.

Калит сўзлар: экстремизм, терроризм, ақидапарастлик, диний экстремизм, диний фундаментализм, қўпоровчилик, экстремистик гурухлар.

Кириш. Бугунги қунга келиб, дин мавзуси ва у билан боғлиқ масалалар нафакат Ўзбекистон, балки бутун дунё мамлакатлари учун ҳам энг долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Қолаверса, жаҳонда экстремизм ва терроризм муаммоси кучайиб боргани сари ушбу масалага нисбатан илмий ёндашувларнинг аҳамияти янада ортмоқда. Албатта, бундай вазиятда дин билан экстремизм ўртасидаги ўзаро алоқадорлик мазмун-моҳиятининг ёритилиши, уларнинг илмий талкини, давлат ва жамият ҳаётидаги ўрни ҳамда барқарорлик ва хавфсизликка таъсири каби хусусиятлари илм-фан олдига бир қатор вазифаларни кўяди.

Таҳлил ва натижалар. XX–XXI асрлар оралиғида дунё мамлакатлари ва ҳалқаро майдонда содир бўлган тизимли туб ўзгаришлар кўпгина тадқиқчиларни жаҳон сиёсати ва ҳалқаро муносабатларнинг асосий омилларидан бирiga айланиб улгурган – дин ва у билан боғлиқ бир қатор феноменларни тадқиқ этишга ундамоқда. Шу билан бирга, дин – фалсафа, тарих, сиёсатшунослик, социология, психология каби ижтимоий фанларнинг тадқиқот предмети сифатида янада кенгроқ ўрганилмоқда. Бу борада тадқиқчиларнинг “диннинг сиёсийлашви” ёки “сиёсатнинг динийлашви” тамоийиллари орқали илгари суриб келаётган фикрлари доираси кенг камровли бўлиб бораётганлигига қарамасдан диний экстремизм муаммосига нисбатан яқдил бирёқлама таъриф берилмаган. Бунинг сабаби эса, биринчидан, аксарият тадқиқчилар томонидан экстремизмнинг сиёсий жиҳатларига ургу берилса, иккинчидан унга

инсоннинг жамиятда ўзини тутиш меъёрлари сифатида психологик жиҳатдан ургу берилади. Колган барча таърифлар ана шу икки жиҳатдан келиб чиқади.

Ўз навбатида, Ўзбекистон конунчилигига мазкур тушунча куйидагича ифодаланади. “Экстремизм – ижтимоий-сиёсий вазиятни бекарорлаштиришга, Ўзбекистон Республикасининг конституциявий тузумини зўрлик билан ўзгаришга, ҳокимиятни зўрлик ишлатиб эгаллашга ва унинг ваколатларини ўзлаштириб олишга, миллий, ирқий, этник ёки диний адоват қўзгатишга қаратилган ҳаракатларнинг ашаддий шакллари ифодаси”. [1].

Диний экстремизм – баъзи диний ташкилотлар ёки айrim диндорларнинг жамият конун-коидаларига мос келмайдиган мағкураси ва фаолияти. Муайян сиёсий омиллар ва турли илмий ёндашув билан боғлиқ сабабларга кўра, диний экстремизм тушунчаси бўйича соҳа мутахассислари томонидан умумий ётироф этилган ягона тариф мавжуд эмас [3].

“Экстремистик” сўзи “акл бовар килмас даражада”, “ҳаддан ошиш” маъноларини билдиради. Жамиятда қабул килинган қадрияtlар ва меъёрларга зид карашларни илгари суриш, кескин карашлар ва чораларга майиллик экстремизмнинг асосий хусусияти ҳисобланади.

Турли экстремистик гурухларнинг ўзаро муносабатида доимий келишмовчилик ва жанжаллар, воқеиликнинг кескин ўзгариши шароитида улар бўлинib кетадиган гурухлар ўртасидаги “революционерликда” мусобақалашув кузатилади. Уларга ёпиқ секталарга хос

мистик тилдан, эътиқодга даъват қилиш ёки ундан “четлашиш”, “шаккоклик” учун жазолаш каби услублардан фойдаланиш хосдир. Америкалик социолог К.Кенистон “бундай гуруҳдарда одатий шахсий низолар, лидерлик учун кураш, дид ва қарашлардаги фарқ сезиларли даражада ўсиб, бальзида, ҳатто, ҳаёт-мамот масаласигача етиб боради”, — деб ёзган эди.

Экстремистик тузилмаларга янги аъзоларнинг кўшилиши, кўпинча, динга киритиш, қабул қилишдек шаклу-шамойил касб этади ҳамда бир қанча танлов ва синов босқичларини ўз ичига олади. Экстремистик ҳаракатларнинг энг қўйи табакаси кўпинча сиёсий тусга эга бўлмаган, майда зўрлик ва жиноятлар содир этадиган унсурлар билан боғлиқ бўлади. Бундай зўрликнинг сиёсийлаштирилиши терроризм томон кўйилган биринчи кадам бўлади. Ўз доирасига янги кимсаларни тортар экан, экстремистик гурух ёки унинг раҳбарияти сўзсиз бўйсуниши ва “иш”га мутаассибона садоқатни талаб килади. Кейинроқ эса ёлланувчилар “ҳамма нарсани билувчи” ва уларга йўлбошчилик қилувчи раҳнамога дуч келадилар.

Хозирги даврда энг аввало ахборот чегараларнинг барҳам топишида ўзлигини намоён қилаётган глобаллашув шароитида ва бир пайтлар халқаро муносабатлар мазмунини белгилаган икки қарама-қарши куч — социализм ва капитализм ўргасидаги ўзаро курашнинг барҳам топиши натижасида экстремизм мамлакатлар, минтақалар ва умуман дунё ҳавфислизигига асосий таҳдид сифатида биринчи ўринга чиқди. Кўпорувчилик фаолиятининг турли кўринишларини ўз ичига олган инфраструктурани шакллантирган ва ривожлантирган мазкур дунёкараш ҳозирда турли хил кучларни бирлаштирган кўп қутбли дунёнинг мазкур инфраструктурага қарши курашидек шакл-шамойил касб этмоқда.

Бу, биринчи навбатда, экстремизмнинг анархизм ва фашизмнинг арханг шакллари билан қориши маси хисобланган ва омманинг кенг қатламлари билан боғловчи халқа сифатида ислом шиорларидан усталик билан фойдаланадиган, аслида эса халқ билан ҳеч кандай алоқаси йўқлигини мохирона яшира оладиган ҳолат касб этди. Экстремистик тузилмаларнинг асосий мақсади аслида жамиятни кўркув ва вахимада тутиб туриш ва шу йўл билан омма онгода ноиложлик, эртанги кунга ишончсизлик туйгуларини шакллантиришига каратилган эди. Бу эса ўз навбатида, жамият тараққиётини ва ижтимоий ҳаётнинг турли жабҳаларида баркарорликка еришишини жиддий кийинлаштиради.

Қайд этиш жоизки, экстремистик қарашларни барча диний таълимотлар доирасида учратиш мумкин. Масалан, мугахассислар католик черковининг эркин фикр юритувчи, хукмон феодал-католик черкови ақидаларини рад этувчи кишилар — папа ҳокимияти душманларини таъкиб қилиш учун XIII асрда тузилган ва минглаб одамларнинг курбон бўлишига олиб келган инквизиция фаолиятини экстремизмнинг ўзига хос кўриниши сифатида баҳолайдилар. Шундай экан, экстремизмни факат муайян дин билан боғлаш мутлақо асосиздир. Хусусан, ислом дини, турмуш тарзи ва қадриятлар мажмуи сифатида ҳеч қачон экстремистик тузилмаларнинг гўёки, мусулмон жамоаси равнаки йўлида амалга ошираётган террорчилик хуружларининг асосий сабаби сифатида қаралиши мутлақо хатодир.

Ислом шиорларидан танлаб фойдаланадиган, диннинг асл моҳиятини бузуб талқин қиласидаги экстремистик тузилмалар худди юқоридаги каби гўёки, кенг халқ оммаси билан узвий бирлик мавжудлигини кўрсатиш, аслида эса жамиятда тартибсизлик ва парокандаликни юзага келтириш учун маблағ йиғиши,

асосий таҳдид манбаи сифатида одамлар онгу шуурини эгаллаш, жамиятда бекарорлик келтириб чиқариш орқали ҳокимиятга эришишдек эҳтиёжларини қондириш мақсадини кўзлайдилар.

Шуниси диққатга сазоворки, экстремистик руҳдаги тузилмаларнинг ҳеч бири бирор бир шаклда ўзлари жарсолаётган, ўзлари “интилаётган” жамият курилиши моделини таклиф этолмайди.

Хозирги даврда кўплаб экстремистик уюшмалар ва ақидапастлар турли динлар, шу жумладан, христианлик, ислом, яхудийлик динлари таълимотидан фойдаланмоқдалар. Шу билан бирга, диний риторика уларга кўзда тутилаётган жамиятнинг аниқ андозасини тақдим этмаган ҳолда ҳаёлий жамият ҳакидаги тасаввурлардан фойдаланиш имконини беради. Бунда энг муҳими тартибсизлик ва бекарорликни келтириб чиқаришдир. Унга эришиш эса, ўзига хос энг умумий мақсадни ташкил этади, дейиш мумкин.

Шуни ҳам тан олиш керакки, оммавий ахборот воситаларининг ривожи ва ахборот омили таъсирининг кучайиши бутунги кунда экстремизмнинг ҳеч нарса билан ўлчаб бўлмайдиган даражада кўзга ташланадиган ижтимоий ҳодисага айланнишига олиб келди. Қиёс учун: наркобизнесдан келадиган фойдага ва соҳта инқилобийликни кўллаб-куватлашга каратилган социалистик тузум ёрдамига таяниб, XX асрнинг 70-йиларида лотин американлик экстремистлар кўплаб террорчилик ҳаракатларини содир этган бўлсалар ҳам, оммавий ахборот воситаларининг ўша пайтдаги ривожланганлик даражаси уларга глобал миқёсга чиқиш имконини бермаган эди. Бундай вазиятда Лотин Америкаси экстремизми минтақавий даражадан ташқарига чиқа олмаган.

Экстремизм ва терроризм оммавий ахборот воситалари орқали ёритилмас экан кўзланган “самарани” бермайди. Шу маънода улар ўзаро боғлиқдир. Террорчилик хуружи оммавий ахборот воситаларида қанчалик кенг ёритилса ушбу ҳаракатни содир этишдан кутиладиган натижага шунчалик юқори бўлади. Бу эса, у ёки бу ҳаракатни ўтказишдан кўзланадиган асосий мақсад хисобланади. Ахборот майдони ривожланиб, тобора тўйиниб бораётган, аммо уни етказишда мазмунан ҳам, шаклан ҳам ўзибўларчилик устуворлик қиласидаги ҳозирги даврда ОАВ экстремизм ва терроризм кўлидаги кучли куролга айланниб қолмоқда.

Шуни таъкидлаш лозимки, тарихий, диний ва миллий хусусиятлар аҳолининг кенг қатламлари билан мулоқот тили ва ундаги ўзига хос ургуларни танлашда муҳим ўринни эгаллайди. Табиийки, Марказий Осиё минтақасида коммунистик ёки насронийлик эмас, балки айнан ислом шиорларидан фойдаланилади.

Марказий Осиё минтақаси ўз тарихида ислом ривожига ҳеч кандай ақидапастлик ва жангарилик унсурларини олиб кирмаган. Аксинча, минтақада ислом дини ёйилган вактдан то бугунги кунгача инсонпарварлик ва бағрикенглик анъанаси устувор бўлиб келмоқда. Ўрта асрларда Араб Шарқида айрим суфий бирлашмалари жанговарликни намоён қиласидаги ҳамда инквизиция ва жазолаш тузилмалари вазифаларини бажарган вактда ҳам Марказий Осиё суфийлигига инсонга муҳаббат ва бағрикенглик тарғиб қилинган эди.

Айни пайтда, барча даврларда у ёки бу этник гурухга мансублик боғловчи (бирлаштирувчи) унсур сифатида муайян вазифани бажаргани учун ҳам Ўзбекистонда қарор топтан ислом дини ҳар қандай миллийликдан юқори туришини (космополитизми) намоён этганини таъкидлаш зарур. Шунинг учун ҳам, XX асрнинг бошларидаги араб модернистларидан фарқди равиша жадидлар ундан йироклашиб, ўз кучларини

биринчи навбатда ҳам диний, ҳам миллий онгни ўстиришга сарфлаган эдилар.

Ўрта асрларда Марказий Осиёдаги диний бағрикенглик, инсонпарварлик майллари, фан ва санъатнинг ривожланиши Араб Шарқида қаршиликни келтириб чиқарди. Натижада XIII—XIV асрларда бугунги кунда террорчилек тузилмаларини шакллантираётган экстремистлар гоявий жиҳатдан таянаётган ақидапараст салафийлик оқими юзага келди.

Ибн Таймий бошчилигидаги салафийлар Марказий Осиё мутафаккир, олим ва уламоларини “ислом моҳиятини сохталашибирши” да айблаб, халифаликни идеаллашибиршига асосланган қарашлар тизимини ишлаб чиқдилар ва “жиход”ни унга эришишнинг асосий воситаси сифатида эълон килиб, ўз гояларига жанговарлик тусини бердилар. Марказий Осиёда шаклланган майллар, ўша давр араб муҳитида ҳам ўз тарафдорларига эга эдик, бу табиий равишда, муайян гурухларнинг ҳокимиятини заифлашибирар эди. Шундай килиб, салафийлик ҳам ҳокимият учун курашнинг маҳсулни эди. Шу тариқа, XVIII асрнинг биринчи ярмида Мұхаммад Абдулваҳоб салафийлик асосида Арабистон ярим оролида ҳокимият учун кураш олиб боришига мослашибирлан янги таълимотни яратди.

Янги давр Араб Шарқидаги мутаассиб оқимлар дастлаб салафийлик ва ваҳҳобийликка асосланган бўлсаларда, кейинроқ улардан ҳам илгарилаб кетдилар. Бу тузилмаларнинг гоявий дастури «иҳвонийлик» ва «жиход»га асосланган бўлиб, кўп сонли жангарилик ўюшмаларига гоявий озука бериб келмоқда.

1928 йилда Мисрнинг Исмоилия шаҳридаги мактабда мударрислик қилган, суфийликнинг Хасафия мактабига мансуб бўлган Хасан Абдураҳмон ал-Банно мусулмон оламини тозалаш ва мусулмон аҳоли яшайдиган мамлакатлар худудида ислом давлатини куришдек вазифаларни ўз олдига қўйган “Мусулмон биродарлар” ўюшмасини тузди. Барча мусулмон ва номусулмон ҳукуматларга қарши жиҳод — ялпи уруш эълон қилиш ушбу мақсадга эришиш йўли сифатида белгиланган эди. Ал-Банно ўзининг “Фан-нул-моут” (“Ўлим санъати”) китобида мавжуд ҳукуматларни йўқ қилишга эришиш йўлларини асослаб берди ва илк марта ўзини ўзи курбон қилиш шаклида жангарилик амалиётини тайёрлаш ва амалга ошириш билан боғлик фаолиятни оқлаб фатво берди.

Бундан ташқари, фашистлар Германияси эмиссарлари фаолиги билан боғлик қизиқарли маълумотлар ҳам мавжуд. 1940 йилда Ҳасан ал-Банно “Мусулмон биродарлар”нинг асосий вазифаси террорчилек ҳужумлари ўюшибирши бўлган “маҳфий аппарат”ни тузади. Шуниси эътиборга моликки, у томонидан ўюшибирланган айрим жанговар операциялар фашистлар ҳомийлик қилган “Маср ал-Фатот” ташкилоти ёрдамида амалга оширилган. Шу йилларда “Мусулмон биродарлар”нинг Суриядаги бўлинмаси ҳам жангариларнинг шунга ўхшаш тизимини яратди. Уларнинг Сурияда ўтказган жанговар амалиётлари эса фашистлар ҳомийлик қилган Антуан Сааде бошчилигидаги Сурия Миллатчилик партияси жангарилари томонидан кўллаб-куватланган.

150 киши атрофида бўлган “маҳфий аппарат”даги жангарилар бешликларга бўлинган ҳолда маҳсус тайёргарликдан ўтганлар. Тайёргарлик жараёнида жангариларнинг иродасини Олий раҳнамога бутунлай бўйсундириш, шу орқали уларни ал-Баннонинг “Фаннул-моут” китобида тушунтирилган усуулларда ўзини курбон қилишга тайёрлаганлар. Ал-Баннонинг юз йиллар давомида яширин фаолият кўрсатиш ва маънавий раҳбар иродасига сўзсиз бўйсуниш тизимларини ишлаб чиқкан

суфийликнинг Хасафия мактабига мансуб эканини ёдга оладиган бўлсан, бундай технология қаердан ўзлашибирланган ойдинлашади.

Амалиёт шуни кўрсатадики, жангарилар асосан ўз фикрида событ бўлмаган, катъиятсиз кишилардан тайёрланган. Чунки бундай шахслар ўзининг кимлигини кўрсатиш учун кескин, оқибати пухта ўйланмаган қарорлар қабул қилишга мойил бўладилар.

Шундай қилиб, ислом байробги остида фаолият кўрсатаётган замонавий экстремизмнинг пайдо бўлиши ва ривожланишини тарихнинг муайян даврида устувор бўлган кўплаб унсурлар, турли жараёнларнинг ўзаро таъсирашувининг натижаси деб тушуниш мумкин.

Уммалаштириб айтилганда, диний экстремизмнинг моҳияти – жамият учун анъанавий бўлган миллий-маънавий, ахлоқий мөъёлар ва диний-акидавий қарашларни рад этиш ҳамда умуминсоний қадриятларга зид келувчи дунёқарашни агрессив равишида тарғиб қилиш ҳамда унга амал қилишдан иборат. Бу ҳозирда мавжуд ва тарихда қайд этилган диний оқим аъзолари ва уни кўллаб-куватловчи тоифалар томонидан ўз гояларини бутун жамиятга тарқатиши қаратилган ҳаракатларда намоён бўлади.

Диний экстремизмнинг ўзига хос жиҳатлари сифатида ностандарт дунёқарашлар эгалари, айниқса, бошка дин вакиллари ва атеистларга ўта муросасизлик, ўз гояларини тарғиб этиш ва атрофдагилардан гўёки устун эканини намойиш этиш ва ксенофобияни қайд этиш мумкин. Диний экстремизм асосан дунёвий давлатга, жамиятда шаклланган тартибга, давлат ва дин ўргасидаги муносабатларни мувофиқлашибирувчи конун ва норматив ҳужжатларга қарши қаратилган бўлади. Ўз навбатида, мазкур тоифа стратегик максад сифатида теократик бошқарувни барпо этишни кўзлади.

Агар экстремизм бу – ижтимоий ҳодиса бўлса, диний экстремизм эса, ўз моҳиятига қўра – сиёсий ҳодиса бўлиб, у диний қарашларнинг амалиётга жорий этилишини қўзлаб сиёсий ҳокимият тизимини кескин ўзгашибиршига ўйналтирилган. Вокелик шуни кўрсатмоқдаки, исломий шиорлар остида фаолият кўрсатаётган экстремистик оқимларнинг асосий максади дунёвий давлатларда конституцион тузумни ағдариб ташлаш, шариат тизимига асосланган теократик давлат барпо этиш ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асрар – давр талаби” мавзусидаги анжуманд сўзлаган нутқида – “Биз қўп жойларда жаҳолатга қарши маърифат ташаббуси билан чиқяпмиз. Муқаддас ислом динини никоб қилиб бошка кўчаларга кириб кетаёган жоҳил кимсалар бир нарсани тушунмайди ёки тушунишни истамайди. Яъни, ислом фақат нурли ҳаётга, илм-маърифатга, яхшиликка унрайди. Ҳеч қаҷон хунрезлик, қотиллик, зўравонликка чақирмайди. Ана шу ҳақиқатни тан олмасдан, соҳта гояларга алданниб, зарарли оқимларга кириш, террорчи бўлиш – бу Ўзбекистон халқига мутлако тўғри келмайди.

Алҳамдулилоҳ, ҳаммамиз мусулмонмиз, бунинг шукронасини қилиб, фарзандларимизни ҳам бундай неъматнинг қадрига етадиган инсонлар этиб тарбиялашимиз керак эмасми?” – дея, мурожаат қилган эди[2].

Шу билан бирга, диний экстремизмнинг миллат ва худудни тан олмаслиги унинг бошқа динлар доирасида ҳам намоён бўлишига сабаб бўлади. Диний экстремизм трансчегарий хусусиятга эга бўлиб, намоён бўлишига қўра, худудий, минтақавий ва халқаро шаклларга бўлинади[4].

Демак, диний экстремистлар қаерда ва қайси дин байробги остида фаолият кўрсатмасин, асосий мақсади – сакрализация бўлиб, бунда диний давлатни барпо килиш, бу мақсадга ўзаро низо, ихтилоф, куролли тўқнашувлар орқали, яъни зўрлик билан эришишга интилади.

Барча “ислом никобидаги экстремизм” тарафдорлари учун умумий бўлган гояяларга келсак, улар – Фарб турмуш тарзи ва Фарб товарларининг истеъмолига карши курашиш, азиз-авлиёлар ва пайғамбарларга таъзим бажо келтиришдан воз кечиши, гўё динсиз ёки “соф исломдан чекинган” давлат раҳбарлари ёки тузумларини афдариб ташлашни кўзда тутади. Умуман, жамиятда кабул килинган қонун-қоидаларга мос келмайдиган ва уларга зид бўлган гояялар “экстремистик” хисобланади.

“Ислом никобидаги экстремизм” ўзининг икки хусусияти билан ажрабли туради: биринчиси – уларнинг ақидасига кўра, гўё барча ҳозирги замон мусулмон жамоалари исломий тусларини йўқотганлар ва “жохилия” асри жамиятларига айлангандар. Бундай ёндошув хукumat ва унинг олиб бораётган сиёсатини кескин танқид килиш учун “асос” бўлиб хизмат қиласди. Иккинчи хусусият – улар гўё факат “ҳақиқий” мусулмонлар ҳокимииятга келгач, барпо бўлажак “исломий тартиб”ни ўрнатиш учун кескин ва агрессив харакат қилиш зарур, деб ҳисоблайдилар. Бундай харакат конунга мувофиқлиги масаласи улар томонидан умуман ўртага қўйилмайди, зеро, улар факат шариатга (бу ҳам уларнинг тор талкинида) таяниб иш қўрадилар ва исломдан чекинган ҳокимни афдаришга гўё ҳақлидилар.

Ислом экстремизмининг “нозик” томони ҳам унинг динга асосланганигидадир. Гурух раҳбарлари ўз қўли остидаги аъзоларининг онгига шу даражада таъсир ўтказадиларки, шундан сўнг улар, ҳатто, ўзларини курбон килишга, муайян мақсад йўлида “шахид” бўлишга ҳам руҳан тайёр бўладилар.

Баъзи “ислом никобидаги экстремизм” тарафдорлари сиёсий жабҳада инқолибий усууллар билан қонуний ҳокимииятга қарши курашда ўзларини намоён қиласа, бошқалари тарғибот-ташвиқот ишлари, диний таълим, турли жамоат ташкилотлари, мактаб, университет, оммавий аҳборот воситаларига ва Интернет тармоғига кириб бориши, айниқса, фойдаланиш бирмунчча осон ва қулай бўлган медиа материалларни тарқатиши билан кўпроқ шугулланадилар.

Диний экстремизм - муайян диний конфессия ва ташкилотлардаги ашаддий мутаассиб, фанатик унсурларнинг фаолияти мағкураси. Фанатизм ўз ақидасининг шак-шубҳасиз тўғрилигига ишониб, бошқа фирмка ва мазҳабларни бутунлай рад этган ҳолда уларни тан олмаслик, балки уларни диний асосларни бузишида айблаб, уларга қарши уруш очишга олиб борадиган омиллардандир. Диний фанатизм диний экстремизм ва терроризмга замин тайёрлайди. Фундаментализм эса, маълум дин вужудга келган ilk даврига кайтиши ва бу йўл билан замонанинг барча муммомларини ҳал қилиш мумкин деган фикрни илгари сурувчиларнинг ўйналиши хисобланади.

Диний фундаментализм – ақиданинг ўзгармаслигини химоя қиладиган, мұқаддас китоблар юзасидан Сабабун нузул илмини билмаган ҳолда ҳарфий талқин тарафдори, уларнинг ҳар қандай мажозий талқининг муросасиз, сўзма-сўз талқинга асосланган эътиқодни ақлга таянган манткий далиллардан устун қўядиган, муайян диний эътиқод шаклланишининг бошлангич даврида белгиланган барча йўл-йўриклирни қатъий ва оғицилай бажарилишини талаб қиладиган диний оқимларни ифодалаща кўлланилади.

Фундаментализм ибораси биринчи бор I Жаҳон уруши арафасида вужудга келган протестантизмдаги

ортодоксал оқимларни ифодалаш учун ишлатилган. Бу оқим 1910 йилдан кейин шу ном билан атала бошлаган. Фундаменталистлар христианликнинг анъанавий ақидаларига, айниқса Библияниң мутлақо мукаммалигига ишонишни мустаҳкамлашни, уни сўзмасўз шарҳлашга қатъий риоя қилишни талаб қилганлар. Бу оқим кейинчалик Америкада кенг тарқалиб, 1919 йили Филадельфияда Жаҳон христиан фундаменталистлари ассоциацияси асос солинган [5,338]

ХХ асрнинг 70-йилларидан бошлаб эса, бу истилоҳ Ислом дингига нисбатан ҳам кўлланила бошланди. Ислом фундаментализми замонавий исломдаги уч ўйналишдан биридир (колган иккитаси - традиционализм ва модернизм). Ислом фундаментализмининг асосий гояси - “соф ислом” тамоилларига кайтиш, мақсади эса, “исломий тараққиёт” йўлни жорий этишдир.

Ўзбекистон мустакилликка эришган дастлабки даврларданоқ ўз руҳий-маънавий чанқоғини кондириш учун асрлар ошиб келган диний қадриятларига, диннинг жамиятдаги ролини қайта тиклашга зарурат сезди. Биринчидан, ушбу жараёнлар мураккаб шароитларда кечди. Иккинчидан, собиқ тоталитар тузумдан колган салбий меросни инкор этиши билан гоҳида кўр-кўрона унтилган қадриятларни тиклашга уринишлар бўлди. Ҳар иккласи ҳам нотўғри бўлиб, пировардида ислом никобидаги экстремизмнинг намоён бўлишига туртки бўлди.

Айнан шундай инкор ва эътироф диалектикаси тўлқинида экстремистик руҳдаги мухолифатнинг юзага келишига сабаб бўлди. Айрим ижтимоий ҳаракат ва гурухлар (“Адолат”, “Тавба”, “Даъват”, “Ислом лашкарлари”, “Эрк” ва “Бирлик” каби) айнан шундай диний тусдаги экстремистик мухолифат эдилар. Ушбу экстремист гурухлар собиқ совет тузуми даврида шаклланган қадриятларни батамом инкор этиб, нафақат ашаддий руҳда бўлган чақриқлар, шу билан бирга, жамиятда белгиланган тартибларга ўзбошимчалик билан аралашишни бошлашган эди.

Бугунги кунда оммалашиб улгурган “Ислом ақидапарастлиги”, “Фанатизм”, “Фундаментализм”, “Диний экстремизм”, “Терроризм” каби иллатлар амалий жиҳатдан деярли барча учун тушунарли бўлса-да, мазкур тушунчалар мазмуни жиҳатидан ҳар хилда талқин этилмоқда. Кенг маънода эса, ушбу атамалар қонуний ҳокимииятга қарши курашувчи ижтимоий-сиёсий гурух ва оқимларга тегишилдир.

Ушбу гайриймий мулоҳазалар ва жамиятимизда тинчлик ҳамда барқарорликни сақлаб қолиш эҳтиёжи Ўзбекистонда динга оид давлат сиёсатининг назарий-методологик масалаларини янада чукурроқ тадқиқ этишни, ижтимоий хуросалар ишлаб чиқиши ва амалий тавсиялар яратишни фоятда долзарблаштироқда. Бунинг учун эса, давлат ва дин муносабатлари, динийлик ва дунёвийлик тушунчаларининг илмий-тарихий ва назарий-методологик асосларини чукур таҳлил ва тадқиқ этиш тақозо этилади. Зеро, бундай зарурият ижтимоий-фалсафий таҳлили факат назарий модел бўлибгина эмас, балки мамлакат барқарорлиги, тинчлиги ва осойишталигини сақлаш, хавфзисликни таъминлаш ўйналишида давлат ва нодавлат ташкилотлари фаолияти учун амалий-услубий дастур, кўлланма ва кўрсатма вазифасини ўташи мумкинлиги билан изоҳланади.

Ушбу қарашни замонамизнинг пешқадам уламоларидан Юсуф Қарзовий ҳам кўллаб-куватлаган ҳолда шундай дейди: “Фикрга қарши факат фикр бас кела олади. Унга қарши куч ва таҳдид ишлатиши ўша фикр таҳлили факат назарий модел бўлибгина эмас, балки мумкинлиги билан изоҳланади. Унинг муолажаси факат

хужжатлар келтириш билан шубҳаларни кетказиш орқали бўлади” [6].

Хулоса ва тақлифлар. Демак, мазкур феноменларнинг илмий нуқтаи-назардан ёритилиши, экстремизмнинг дин ниқоби остида намоён бўлиш сабаб ва омилларини ўрганиш билан бир қаторда унга қарши курашни ташкил этишида турли усул ва воситаларни қўллаш ҳамда самаралисими танлаш учун замин яратади. Ўз навбатида, ушбу жараёнда самарали методология сифатида бугунги реал хаётда ўз исботини топишга

улгурган “Жаҳолатга қарши маърифат” концептуал гояси тақлиф этилмоқда.

Концептуал ва назарий жиҳатдан ёндашилганда “Жаҳолатга қарши маърифат” гоясининг давлат ҳамда жамият ҳаётига тадбиқ этилиш сабаби, бу – жамиятда аҳолининг эътиқод эркинлигини таъминлаш, инсонпарварлик ва либерализм сиёсати, умуман олганда, диний-маърифий соҳада амалга оширилаётган ислоҳотларнинг энг самарали амалий методи эканлиги билан исботланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг “Экстремизмга қарши кураш тӯғрисида”ги Қонуни. 2018 йил 30 июль (№ЎРҚ-489). – Халқ сўзи. - № 156 (7114). – Тошкент. 2018.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги боскичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 475-бет.
3. Ҳасанбаев Ў. Диний-маърифий ва ижтимоий-маънавий соҳа тарғиботчилари учун айрим атама ва тушунчаларнинг изоҳли лугати. Т.: “Shamsuddinxon Boboxonov” NMIU. 2020 – Б. 160.
4. Эрназоров Р. Жаҳолатга қарши маърифат. // Накшбандия №2 (11) 2013. Б.30
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 9-жилд. Тошкент, “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005. 704 б.
6. <https://islamonline.uz/index.php/dolzarb-mavzu/munosabat/item/4435-guluy> (мурожаат санаси - 2021 йил, 28-сентябрь)



УДК: 37.03

Абдуллоҳи ТОХИРИЁН,

ЎзМУ ҳузуридағи ПҚҚТМО тармоқ (минтақавий) Марказ, бўлим бошлиги, тарих фанлари номзоди
e-mail: level0861@gmail.com

фалсафа фанлари доктори Ў.Тилавов тақризи асосида

THE EDUCATIONAL VALUE OF FORMATION OF HISTORICAL MEMORY IN THE IMAGE OF BABUR

Abstract

This article is devoted to the pedagogical aspects of the process of the formation of socio-historical memory, which analyzes the educational value of the embodiment of historical memory on the example of a historical personality. From a pedagogical point of view, it was concluded that the formation, development and strengthening of historical memory depends on the effectiveness of the mechanisms of formation.

Key words: historical memory, socio-historical memory, political memory, economic memory, cultural memory, ethnosocial memory, pedagogical technologies, pedagogical methods.

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ В ОБРАЗЕ БАБУРА

Аннотация

Данная статья посвящена педагогическим аспектам процесса формирования социально-исторической памяти, в которой анализируется воспитательное значение воплощения исторической памяти на примере исторической личности. С педагогической точки зрения сделан вывод, что формирование, развитие и укрепление исторической памяти зависит от эффективности механизмов формирования.

Ключевые слова: историческая память, социально-историческая память, политическая память, экономическая память, культурная память, этносоциальная память, педагогические технологии, педагогические методы.

БОБУР ШАҲСИЯТИ ТИМСОЛИДА ТАРИХИЙ ХОТИРАНИ ШАҚЛАНТИРИШНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ

Аннотация

Ушбу мақола ижтимоий-тарихий хотирани шакллантириши жараёнининг педагогик жиҳатларга бағишлиган бўлиб, унда тарихий хотирани тарихий шахс тимсолида тажассум этишининг тарбиявий аҳамияти таҳлил қилинган. Тарихий хотирани шаклланиш, ривожланиш ва мустаҳкамланиши педагогик нуқтаи назардан, айнан шакллантириш механизмларининг самарадорлигига борасида хуласалар келтирилган.

Калид сўзлар: тарихий хотира, ижтимоий-тарихий хотира, сиёсий хотира, иқтисодий хотира, маданий хотира, этноижтимоий хотира, педагогик технологиялар, педагогик усуслар.

Кириш. Педагогика фанининг тарихи ва назариясида доир мавжуд илмий адабиётларда, шахс ва жамият интеграцияси масаласи билан боғлиқ муаммоларнинг тадқиқ этилиши доирасида, педагогик антропология муҳим омил сифатида тавсифланади. Яъни шахснинг жамиятга киришиши ўзига хос жараён сифатида, ҳамда ижтимоийлашувнинг бир неча босқичлари орқали амалга оширилиши, педагогика фанининг асосий тадқиқот вазифалари таркибига киради. Шунинг учун, шахсда ижтимоийлашувга мос ва хос бўлган фазилатларни тарбия орқали шакллантириши ва ижтимоий ҳаётда соглом яшаш тарзи, соглом дунёкараш, соглом хулк-атвор, умуман соглом маънавий қиёфага эга бўлиб ҳаёт кечириш хусусиятларини ҳосил қилиш, айниқса, ҳозирги шиддатли маънавий ва мафкуравий-ғоявий курашлар майдонига айланган замонда, ҳар бир халқ ва миллатнинг келажак учун кечаги ва бугунги ўзлигини сақлаб қолишида, катта аҳамиятга эга. Ушбу жараёнда, тарихий хотира омилидан самарали фойдаланиш, унинг шакллантирилиши механизмлари педагогиканинг долзарб вазифаси сифатида илмий доирага кириб келмоқда.

Мавзунинг долзарблиги. Тарихий хотирани шакллантириши механизмлари ва манбалари кўп фанларга доир илмий тадқиқотларда турли ёндашув ва турли мақсад вазифаларини ўрганиш доирасида кўриб чиқилган.

Айниқса, ижтимоий-тарихий хотиранинг илмий муаммо сифатидаги талқини фалсафа, социология, психология каби фанларнинг ўрганиш обьектига айланган. Бироқ, ижтимоий-тарихий хотиранинг тарихий ва буюк шахслар тимсолида шаклланиши масаласи, айниқса унинг педагогик жиҳатлари, ҳалигача кенг миқёсда илмий изланиш майдонида ўрганиш предметига айлантирилмаган. Бинобарин, миллий қадриятларни кайта тиклаш, миллий ўзликни англаш йўлидаги савъ-харакатлар, миллий педагогиканинг моҳият қамровини кенгайтириш максадидаги изланишлар доирасида, жаҳон цивилизациясининг ривожига ўлкан ҳисса кўшган буюк аждодларимиз ҳақидаги тарихий ҳақиқатни ёшлар онгига сингдириш орқали, уларнинг тарихий хотирасини мустаҳкам шакллантириши масаласи, жиддий педагогик ёндашувни тақозо этади. Айни шу илмий асослар туфайли ушбу мавзунинг ўрганилиши ўзига хос долзарблик касб этмоқда.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Юкорида таъкидлаганимиздек, мавзу маълум даражада ва бошқа фанлар эҳтиёжи нуқтаи назаридан тадқиқот обьекти ва предмети сифатида ўрганилган. Айниқса, ижтимоий-тарихий хотиранинг кўп қирралари жиҳатлари аввал Farb мамлакатлари олимлари томонидан илмий гипотеза мазмунида илгари сўрилган. Жумладан, тарихий онг ва тарихий маданият типлари назарияси немис олими Йорн

Рюзен, тарихий онгнинг миллий маданий мансублик шаклланишидаги ўрни америкалик олим Самуэл Хантингтон, тарихий онгни ўрганиш методологияси француз олими Раймон Арон, тарихий хотира назарияси француз олими Моурис Хальбвакс каби олимлар илмий тадқиқотларида ёритилган.

Кейинчалик, рус олимлари ҳам тарихий хотира масаласига оид кўп тадқиқотлар амалга ошириб, муаммонинг нафақат назарий жиҳатлари юзасидан, балки амалий ҳолати, яъни ҳодиса ва воеалар образларини халқ хотирасига сингдириши бўйича ҳам илмий адабиётлар яратдилар. Жумладан, тарихий онг ва тарихий хотира масаласи фалсафий жиҳатдан рус олимлари Р.Каменская, А.Леопа, Ю.Либиг, О.Лосева, О.Сгибнева, М.Чистанов, тарихий ёндашув асосида Л.Репина, П.Гречухин, А.Люблин, В.Мелешкин, И.Яблоковлар ишларида ўз аксини топди. Муаммонинг социологик ёндашуви, кўпроқ Ж.Тошченко, В.Утенков, М.Горшков, Л.Кононова, Т.Путятина, В.Фролов сингари олимлар тадқиқотида ёритилди.

Ўзбекистонда ҳам “тарихий онг”, “тарихий хотира”, “миллий ўзликни англаш”, “ватанпарварлик” тушунчаларининг илмий талқини турли ёндашувлар замирида Ж.Туленов, И.Жабборов, С.Отамуратов, Г.Никитенко, Д.Гуломова, М.Мамажанова, М.Ганиева, Р.Рахманов, Ф.Файзиев, М.Бекмуродов, О.Абдуазимов, Р.Абдуллаев, Д.Абдуллаханова, Д.Алимова, К.Шоназаров каби файласуф, тарихшунос, сиёсатшунос, социолог олимлар изланишларида чукур ва асосли тадқиқ этилган.

Бироқ, педагогик ёндашув асосида ушбу мавзуга доир алоҳида тадқиқот ишлари амалга оширилган бўлмаса-да, аммо тарихий хотириани шакллантириш масалалари ҳақида турли илмий мақолалар, илмий тезисларда пароканда фикр ва мулоҳазалар қайд этилган. Бинобарин, мавзуни айнан педагогик моҳиятини ўрганиш ва унинг ижтимоий-тарбиявий аҳамиятини ёритиши мақсадида, ушбу мақола иншо этилди.

Илмий муаммонинг қўйилиши. Азал-азалдан аждодларимиз ёш авлод тарбиясини ўзларининг муқаддас бурчлари сифати қабул килиб, унга аниқ ва асосли тарзда моҳият, мазмун, шакл, мақсад бағишлаб, ушбу жараённи асрар авайлаб, авлоддан авлодга ўзатилиши ва албатта мунтазам ривожланишига жиддий эътибор қаратиб келишган. Тарбиянинг моҳияти шахснинг маънавий киёфасини шакллантиришга йўналтирилса, шакли турли замон ва турли маконларда хилма-хил бўлган бўлса, мақсади ҳам даврлар ва замонлар оша эҳтиёж талабларидан келиб чиқиб ўзгариб келган. Тарбиянинг мазмуни эса шахснинг ўзлигини англаш ва ушбу жараён доирасида аждодларининг кечаси, ўзининг бутуни ва янги авлодларининг эртасини мантикий боғликлек нуқталарини билишга ҳидоят килгувчи омилларга таянган. Мақоламизнинг асосий эътибор марказида бўлган, буюк ва бетакрор аждодларимиз вакилларидан бири, Захириддин Муҳаммад Бобур ҳам фарзандларининг диёнатли, илм-фазилатли бўлиб ўсиши учун ҳар бирiga китоб танлаб юбориш, уларнинг ўрганиши учун китоблар ёзишни оталик ва подшоҳлик бурчи деб хисоблаган ҳамда мунтазам равишда фарзандларига насиҳат ҳамда маслаҳатлар мазмунидаги мактублар йўллаб, уларни ўқиши-ўрганишига ҳидоят килиб, ёзувларидаги имло ва иншо хатоларини тўғрилаб, таҳрирлаб бехато, содда, равон ва бетакалуф ёзишга чорлагани тарихий манбаларда мўҳрланган. Шунинг учун, унинг шахсияти тимсолида нафақат тарихий шахс, балки миллий педагогикамиз сахифаларидан сазовор ўрин олган мураббий, устоз ҳаётидан олинган ибратли сабаклар орқали ёшларнинг тарихий хотирасини шакллантириш,

бизнингча, камдан-кам учрайдиган имкониятдир.

Миллий педагогикамизнинг асл жавҳарини ташкил этадиган маънавий-ахлоқий тарбия ҳам биринчи навбатда шахснинг сифатли ижтимоийлашувини таъминлашга қаратилган бўлиб, унда тарихий онг ва тарихий хотира муҳим ўрин эгаллайди. Чунки ижтимоийлашув жараёни албатта, ўтмиш, бугун ва эрта каби тушунчалар моҳиятини талқин ва ташвики билан бирга кечади. Шунинг учун тарихий хотира, гоҳида онгли равишида, базан эса ғайрихтиёрий тарзда тарбия воситаси сифатида қўлланилади. Шу нуқтаи назардан, Бобур шахсияти мисолида тарихий хотириани шакллантириш, аввало катта тарбиявий аҳамиятга эга эканлигини инобатга олиб, ҳалқимиз онгига уни онгли равишида сингдирилса, кейинчалик тадрижий тарзда илдиз отган ушбу тарихий хотира ўз-ўзидан, яъни ғайрихтиёрий эҳтиёж манбаига айланиб, ҳалқимиз ғурури ва ифтихорини ташкил этувчи омилга айланиши мумкин. Қолаверса, миллий педагогикамиз асосларини ўрганиш ва мазмунан бойитища ушбу тарихий хотира маҳсулу кўп аскотади, деб уйлаймиз.

Бироқ, таълим жараёнда қўйилган мақсадга эришиш учун, таълим методикаси, энг самарали технологиялар ҳам аҳамиятлидир. Ўтилажак мавзунинг мақсад ва вазифаларини аниқ белгилаган ҳолда, унинг натижадорлигига эришишининг асосий воситаси тўғри педагогик технология ва методларни қўллаш масаласи хисобланади. Агарда, тарихий хотириани шакллантириш жараёнда тарихий шахслар ҳаётни ва фаолиятига тегишли мавзулар ўрганилса, кўпроқ замонавий электрон таълим ресурслардан фойдаланиш мақсаддаги мувофиқ бўлади. Айниқса, хужжатли фильмлардан парчалар, видеодарслар, мультимедиали воситалар қўлланилса, ҳодиса-воеаларни жилвалантган манзараси ўкувчи тасаввурида мўҳрланган из қолдириши мумкин.

Таҳлил ва натижалар. Узоқ йиллар давомида ўрганилаётган ушбу мавзунинг илмий моҳияти шундан далолат бермоқдаким, тарихий хотирианинг педагогик аҳамияти ҳақида мулоҳиза юритиб, албатта тарихий ҳодиса-воеа, тарихий шахслар, тарихий жойларнинг замонлар боғликлигини таъминлашдаги ўрнини таҳлил этмасдан, мантикий хуласалар яратишнинг имконияти бўлмас экан. Таълим муассасаларида, тарих дарсларида маълум бир мавзу доирасида, маълум бир воеа тафсилотлари ҳақидағи маълумотни ўкувчиларга танишириб, уларнинг тасаввурида ўзларига ибрат бўладиган ва ҳатто сабак олишга асос яратадиган манзарани ҳосил қилиб, сўнг, ўша ҳолат тарбиявий аҳамиятга эга, деб белгилаб қўйилади. Демак, тарихий факт орқали тарбиявий аҳамиятга эга бўлган тарихий билим ўкувчи онгига сингдирилади ва муҳими унда тарихий хотира унсурлари шакллантирилади. Ушбу ҳолатда, тарихий билим ижтимоий аҳамиятли билим категориясига тегишли бўлиб, ижтимоий-маданий тажрибани таҳлили, таснифи ҳамда ибратли жиҳатларини ажратишга замин яратади.

Шундай тарбиявий аҳамиятга эга бўлган тарихий билимлар сирасига тарихий шахслар ҳақидаги маълумотлар ҳам киради. Дунёнинг тури мамлакатларидан, тарих фанини ўқитишида ўхшаш шакл ва усуллари кўп бўлса, мазмун ва моҳият жиҳатидан ўхшашлик элементлар аҳён-аҳён топилади. Чунки, тарих фани бошқа фанларга нисбатан кўпроқ тарбия воситаси, тарбия манбаи ва тарбия саҳнаси сифатида қўлланилади. Бинобарин, тарихий хотира ижтимоий характерга эга эканлигини инобатга олиб, бир тарихий шахс, турли халқ ва элатларда турлича талқинга сазовор бўлади, яъни ҳар бир юртнинг ўз тарих саҳнасини тасвир этишда ўз

каҳрамонлари, ўз хотиралари ва ўз муносабатлари тажассум этилади. Шунинг учун, ўтмишда ҳукмрон бўлган сулолалар вакилларининг фаолияти ҳақидаги маълумотларни тушунтиришда, уларнинг одиллик, ҳалқпарварлик, донишмандик, андешалилик ва ҳок. фазилатларига ўргу бериб, тарбиянинг самарадорлигини ошириш мақсадида, тарих саҳнасидан мисолларни ёш авлоднинг хотирасига жойлаштириш жараёни амалга оширилади.

Бизнинг юртимизда Захириддин Муҳаммад Бобур сиймоси ҳам ҳалқ тарихий хотирасини шакллантириш, бойитиш борасида катта ахамиятга молик манба хисобланади. Зеро, Бобур саргузашлари бугунги педагогикада кўпланиладиган креатив таълим жараёнида ўзининг серкірралиги, сермазмунлиги ва албатта қарамакарши онлари билан қизиқиши ўйготиши табиий ҳол. Чунончи, Захириддин Муҳаммад Бобур ҳақида маълумот берилганда, уни йирик давлат арбоби, моҳир саркарда, олим, шоир ва адаб каби сифатларини таърифлаб, Шарқ Ўрта асрларининг машҳур тарихий шахслардан бири эканлигига эътибор қаратиб, Андижон фарзанди бўлганлиги [4,249] ва Андижон унинг армонига айланганлигини алоҳида таъкидлаб, темурйлар давлати шаҳоматини қайта тиклаш борасидаги саъй-харакатлари ҳамда бир неча юртлар табиати, географияси, этнографияси ва тарихига доир қолдирилган нодир маълумотлар, мумтоз адабиётдаги бетакорр ижоди борасидаги билимлар, шубҳасиз, ўкувчи қалбида Бобур юртоши, тилдоши, диндоши бўлганлигидан ифтихор туйғуси ўйғонади.

Бирок, ҳар бир тарихий даврга, инсон ва ижтимоий ҳукмрон тузумнинг ўзаро таъсир воситалари орқали маданий онгда ўзғаришлар содир бўлиш каби ҳолатлар хос бўлади. Натижада, маънавий-маданий ҳаётда ички ва ташки жиҳатларнинг трансформациясини кўзатиш мумкин. Ҳазрат Бобур шахсий ҳаётини талқин этишда, психологияк нуқтаи назардан унинг ички ва ташки маънавий оламидаги зиддиятли, шиддатли ва эҳтиросли онларнинг ҳаяжон тўла кетма-кет тақрорланиши ва унинг инсоний иродасининг мунтазам синовлар остида чиникиши, унинг педагогик тасвирда мардлик, жасорат, шижаот каби фазилатларини яққол кўринишга асос бўлади. Ёшлигидан адабиёт, шеърият, нафис санъат, табиатнинг тақрорланмас гўззалигига маҳлиё бўлган ва унга чиндан меҳр кўйган шайхзода, ўспиринлик даврида кўлидаги қаламни қиличга алмаштириди. Айнан шу ўта мураккаб ўзғаришлар, унинг онгига ҳукмрон тузум тақозоси ва сулола эҳтиёжига мослашиб кейинчалик фаолият юритишига сабаб бўлганлиги боис, унинг шахсиятида фалсафий тавсиф билан ифода этганда, романтизм ва рационализм келишуви ҳосил бўлади. Бобур шахсиятидаги ички ва ташки туйгулар трансформациясининг манзарасини унинг ижодида, адабий-бадиий меросида ва ҳатто бошқариш усулида ҳам кўриш мумкин. Айниқса, “Бобурнома”да келтирилган мөҳиятли тавсифлар, муаллифнинг нақадар кенг билимлар эгаси эканлигидан яққол далолат беради.

Тарих дарсларида, Бобур шахсининг мисолида, ёшларнинг тарихий хотирасини шакллантириш ва мустаҳкамлаш мақсадида, айнан унинг ҳаётидаги воқеалар мазмунига, шу мазмунни истаган ва яратган муаллиф ҳатти ҳаракатларига қаратилса, ўкувчилар фақатгина шахсни эмас, балки тарихий воқеалар сюжети, уларнинг ўзаро мантикий боғликлек томонлари, ўша замон ҳақидаги умумий тарихий, ижтимоий, маданий ҳаёт манзарасини ҳам хотирада мўҳрлаб олишлари учун имкон яратилади. Бунда, “Бобурнома”га таянган ҳолда, ҳар бир ҳодиса-воқеага хос эмоционал туйгулар, замон кадриялари, даврнинг ғоялар мазмuni, ҳукмрон тафakkur

тизимлари сингдирилса, ўкувчи-ёшлар буюк шахс саналмиш Бобур сиймоси билан ҳамзамон ва ҳамқадам тарихий саҳна ҳамда тарихий даврни хотираларига мужассам эта оладилар.

Шу ўринда, таъкидлаш жоизки, ижтимоий-тарихий хотиранинг илмий талқинида кўпроқ сиёсий, иқтисодий, маданий ва этноижтимоий унсурлари тавсиф этилади. Бундай талқин тарихнинг яхлит, бир бутунлигини ифодаси бўлиб, ҳаётнинг барча соҳалари кечга, бугун ва эрта мақомидаги ўзаро боғликлидан иборат эканлигини тажассум этади. Илмий доираларда, айниқса, фалсафа, социология, психология, филология каби ижтимоий-гуманитар фанларда айрим ҳолларда тарихий хотира бир ёқлама, яъни факат тарихий ҳодиса-воқеалар образларини эзлаш ҳолати сифатида кўриб чиқилади. Ваҳоланки, тарихий хотиранинг ижтимоий жиҳатлари ҳам, айнан унинг мазмунига мазмун бағишлайдиган омил сифатида хизмат қиласи ва уни инкор қилиш, тарихий хотиранинг абстракт манзарага айлантиришга сабаб бўладиган омиллардан бири ҳисобланади. Бинобарин, ижтимоий-тарихий хотиранинг сиёсий жиҳатлари, иқтисодий кўрасатичлари, маданий даражаси ҳамда этноижтимоий манзарасини тўлиқ тасвир этишда айнан, Захириддин Бобур каби шахсларнинг ҳаётий тажрибаси, бошқарув санъати, нозик ижодий истеъоди ва бошқа ўзига хос ҳаризматик жиҳатлари айни мудда бўлиб, уларни тарбия воситасида кўллашада, назарий жиҳатдан педагогика фанининг вазифалари ҳамда амалий жиҳатдан таълим тизимидағи фанларни ўқитиш методикасининг ўрни ўзига хосиди.

Сиёсий хотира, деганда ижтимоий гурухларнинг давлат тузуми мазмуни ва шаклларини, сиёсий ҳокимият функциялари ва вазифалари, бошқа давлатлар билан ўзаро муносабатларни белгилашдаги фаолияти ҳақидаги маълумотлар назарда тутилади. Сиёсий хотира сиёсат иштирокчиларининг, яъни гурухлар ва шахсларнинг манбаатини ифода этадиган ҳатти ҳаракатлар ҳақидаги хотиралардир. Бунда, кучли пешво, яъни ҳаризматик лидернинг мавқеидан келиб чиқиб, бир шахс мисолида давр сиёсатининг тажассусини ҳосил қилиш мумкин. Шу ўринда, Бобур шахсияти ҳам кучли лидер сифатида нафақат тарихчilar, сиёстушунослар, шархловчилар томонидан, балки ўзи ёзиб қолдирилган тарихий манба орқали исботланади. Масалан, Бобурнинг сиёсий саҳнадаги фаолиятини илк босқичи жуда мураккаб кечган. Шу боис, у атрофидагиларнинг хиёнатидан руҳан кийиналиб умидсизликка тушган кезлардаги ҳолати, унинг шеърларида ҳам ўз ифодасини топган. Чунончи:

Толесь ўйқу жонимға балолиғ бўлди,
Ҳар ишниким, айладим ҳатолиғ бўлди,
Ўз ерин кўйиб Ҳинд сори юзландим,
Ёраб, нетайин, не юз королиғ бўлди

Аммо, умидсизлик уни сиёсий иродасини сингдира олмади. Бобур ўз юртни тарк этиб бўлса-да, аммо буюк мақсадларига содик колиб, аввал Афғонистон, сўнг Ҳиндистон томон йўл олганда, шеърларида Ватанга муҳаббат туйғуси, Ватанга фарзандлик согинчи, Ватанга кайтиш умиди аста-секин тўлкинланади ҳамда ўзига янги куч бағишлайди. Натижада, сиёсат бобидаги фаолиятининг иккинчи босқичида у келажак буюк империяга айланган давлатнинг мустаҳкам пойдеворига асос солади. Шу билан бирга, уни бутун жаҳон оммасига танишитирган “Бобурнома” шоҳ асари ёзилади.

“Бобурнома” ҳақидаги кисқа тавсифловчи маълумот ҳам тарихий хотирани мустаҳкамлашда мухим ўрин эталайди. Чунончи, унда, муаллиф яшаган давр оралиғида Мовароуннаҳр, Хурросон, Эрон ва Ҳиндистон ҳалқлари тарихи нафақат сиёсий нуқтаи назардан, балки улардаги ижтимоий-иктисодий ва маданий ҳаёт ҳам

ёритилган. Хусусан, Хиндистондаги этноижтимоий вазиятнинг ёритилишида Бобурнинг истеъоди намоён бўлган. Маълумки, ушбу асар асосан уч қисмдан иборат бўлиб, биринчи қисми — XV асрнинг иккичи ярмида, иккичи қисми — XV асрнинг охири ва XVI асрнинг биринчи чорагида, ва учинчи қисми — XVI асрнинг биринчи чорагидаги Марказий Осиё, Афғонистон, Шимолий Хиндистон халқлари тарихига бағишлиланган. “Бобурнома”да ўша даврнинг сиёсий воқеалари мукаммал баён қилинار экан, ўз юрти Фарғона вилоятининг сиёсий-иктисодий ахволи, унинг пойтахти Андижон шаҳри, шунингдек, Бухоро, Самарканд, Қарши, Термиз, Урганч, Ўш, Ўратепа, Шахрисабз ва бошқа шаҳарлар ҳакида ниҳоятда нодир маълумотлар келтирилган. Ушбу маълумотлар ёшларга фақат билим нутқати назардан эмас, балки тарбия мавқеидан ҳам кетма-кет ва мантикий боғлиқлиқда берилса, уларнинг ижтимоий-тарихий хотиралари бойиб, ўзлигини англашга кўмаклашади.

Иккисодий хотира ўз моҳиятига кўра, кўпроқ сиёсий хотира билан боғлиқ ҳолда учрайди. Чунки хўжалик юритишнинг ташкилий муаммолари ҳар бир жамиятда маълум сиёсий тузумга хос бўлган усуслар орқали ечим топади. Бобурйлар салтанатидаги ушбу масалага мурожаат қилинса, ўша “Бобурнома” жуда кўп долзарб иккисодий, ижтимоий масалалар, жумладан, Мовароуннахр, Хурросон, Хиндистон, Эрон халқларининг ўзаро сиёсий-иктисодий ва савдо муносабатлари, жуғрофий мавқеи, икклими, ўсимлик ва хайвонот дунёси, тоғлари, дарёлари ҳакидаги нодир маълумотларни ўзида камраб олганлиги, ўша тарихий давр ва ўша сулола ҳакидаги тарихий хотира таркибида иккисодий хотира ҳам шаклланиб боришига асос борлиги кўзга ташланади. “Мубайин” номли асарида, Бобур ўша замон солиқ тизимини, солиқ йиғишнинг қонун-қоидаларини, шариат бўйича кимдан қанча солиқ олиниши ва бошқа масалаларни назмда изоҳлаб берган. Айниқса, Бобур ва унинг ворислари томонидан олиб борилган бунёдкорлик ишлари иккисодий ҳаётни жўшкун даражада ушлаб туришига рафбат бўлгандигини алоҳида таъкидлаш лозим. Демак, ёшлар онгода тарихий хотирани шакллантириб, тадрижий тарзда уни мустаҳкамлаш босқичларида ижтимоий-иктисодий далиллар билан бойитиши, тарихий хотирани мукаммал ва яхлит манзарасини яратиш ҳамда тарбиянинг таркибий қисмига айланиши зарур, акс ҳолда, буюк аждодимиз ҳакидаги хотира куруқ ва қолипларча колаверади.

Маданий хотиранинг мазмуни маданий фаолият билан боғлиқ бўлиб, ижтимоий ҳаётни қайта кўриб чиқишида иштирок этмаса-да, тарихий хотиранинг энг ёрқин ва энг жозибали қисми саналиб, тарихий хотирани безашда, уни қалбларда муким ўрин олишида катта аҳамият касб этади. Маданий хотира ижтимоий ҳаёт тажрибасини йиғиш, сақлаш ва талқин этишдан иборат жараён сифатида авлодлар, насллар ўртасидаги боғлиқлиқни ифода этишини таъминлайди. Бобурйларнинг Хиндистондаги маданий фаолиятининг шу юрт учун аҳамияти ҳақида Жавоҳирлаъ Неру бежизга ушбу сатрларни ёзib қолдирмаган: “Бобур Хиндистонга келгандан кейин катга силжишлар юз берди ва янги рафбатлантиришлар ҳаётга, санъатга, архитектурага тоза ҳаво бахш этди, маданиятнинг бошқа соҳалари эса бир-бирларига туташиб кетди”. Шу ўринда, Бобурнинг ўз асаридаги халклар урф-одатлари, муҳим тарихий иншоотлари — хиндулар ва мусулмонларнинг ибодатхоналари, тўй ва дағи маросимлари ҳакидаги ниҳоятда нодир маълумотлари, ўша замон ҳаётининг маънавий-руҳий манзарасини бойитишга замин яратган. “Бобурнома”да Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Беҳзод, Мирзо Улугбек ва бошқа давр алломалари

ҳақидаги муаллифнинг юксак фикр ва мулоҳазалари маданий ҳаётнинг сиёсат саҳнасидаги арзигулик мавқеидан далолат беради. Қолаверса, адабиётшуносларнинг эътироф этишларича, Бобурнинг шеърият оламидаги ижодидан нафис ғазал ва руబойлари туркӣ шеъриятининг энг нодир дурданаларидан саналиб, [4,250] “Мубайин”, “Аруз ҳақидаги рисола”, “Хатти Бобурий”, каби асарлари эса шеърият ва тил назарияси, ислом қонуншуносиги соҳаларига муносаб ҳисса бўлиб кўшилди. Айни шу асарларда, унинг педагогик қарашлари ҳам нозик дид билан ўз ифодасини топган. Бугунги ёшлар шу маълумотларнинг асл моҳиятини англашга киришар экан, аввало ўзлигини англашга, маънавий киёфасини бойитишига, миллий қадрияtlарга эҳтиром туйғусини кучайтириш учун илҳом манбаига эга бўлишади. Энг муҳими тарбия оламига қадам ташлаб, миллийликнинг умумбашарий қадрияtlар таркибида ҳаётий моҳиятини тушунишга қодир бўлишади.

Тарихий хотира гағишиланган илмий изланишларда, ижтимоий-тарихий хотиранинг яна бир тизимости қисми сифатида этноижтимоий хотира кўриб чиқилади. Таъкидланишича, унда ижтимоий-этник тажрибанинг ўзига хос сингдирилиши ва тарғиб этилиши кўзатилади. Этник хотира инсоннинг ижтимоийлашув жараёнидаги ўта муҳим унсур бўлиб, унда одам фаолиятини тартибга солувчи мураккаб маълумотлар мажмуи, билимлар, хулқ аломатлари йиғилган бўлади. Чунки тил, анъана, тарбия оламига жалб этилган инсон фарзанди ижтимоий қадрияtlар тизимида ўзини англаши ходисаси содир бўлади. Агар ўспириенлик ёшигача бўлган давр биринчи ижтимоийлашув жараёни деб кабул килинса, индивид унда қадрияtlарни чукур англамаган ҳолда жамияда кириб боради. Кейинги иккичи ижтимоийлашув босқичда, инсон билим, малака, дунёқараш кўрсатмаларига эга бўлиб, этник хотира шу омиллар томонидан танланади ва инсон энди ижтимоий ходисаларга онгли муносабат кўрсата бошлади. Бобур шахсиятида тарихий хотирани шакллантириши жараённида, педагогик муҳит, этноижтимоий хотиранинг таъсир кучи, устуворлигига эътибор қаратиши лозим. Чунки этноижтимоий хотира туфайли, инсон ўзлик муҳитидан узоклашса, шу муҳитни қайта кумсаш ҳолати унинг шахсий катъиятлик, ташаббускорлик каби фазилатларини янада фаоллаштириши мумкин. Бобурнинг ўспириенлик ёшигача бўлган дунёқарashi ва ҳаётининг кейинги даврида бошдан кечирган кечинмалари ёрқин далил сифатида унинг ижодида ўз аксини топганини ёшларга тушуништириш, уларда Бобур шахси билан боғлиқ тарихий хотирани мустаҳкамлашга кўмаклашади. Ҳатто бугунги шиддат билан ривожланаётган замоннинг гояйи курашлар уммонида, ёшларни иммунитетини кучайтиришда этноижтимоий хотира “маънавий мукимлик” асосига айланиб, “маънавий вазнисизлик” ёки “маънавий осиқлик”дан кутулишга ёрдам беради.

Бобур тимсолида ижтимоий-тарихий хотирани шакллантиришда муҳим омил ҳисобланган ва илм аҳлига эътиборли яна бир жиҳати бу Бобур педагогикаси. Замонига, ҳукмронлик килган ҳудудига хос таълим-тарбия ишларининг мазмуни ҳам унинг педагогик қарашларига боғлиқ тарзда ўз ифодасини топган. Унда илм-маърифат ҳакидаги гоялари, ахлоқ-одоб, яхшилик, вафо, ҳалқпарварлик, инсонпарварлик, ватанпарварлик, адолат ҳакидаги қарашлари, ахлоқий-таълим фикрлари бутун ҳам ғоят катта аҳамият касб этган. Бобур ўзининг кенг камровли маданий-маърифий, ижтимоий-сиёсий фаолияти давомида айниқса илмга, таълимга, тарбияга алоҳида ўргу берис, илмли бўлиш ҳаётى тақозоси гоясини илгари сурди.

Одамларни эзгу ишларга, адолатга, инсонпарварликка, юксак инсоний туйгуларни эхтиром қилишга даъват этувчи лирик шеърлари Бобурнинг педагогик қарашларида инсон омили энг олий даражадаги кадрлаш омил эканлигига ишонч ҳосил қилиш мумкин. У юксак ахлоқий фазилат ва одоб белгиларини эхтиромга сазовор деб билади. Қолаверса, унинг қатъият билан ифода этилган хуласалари ҳаёт тажрибасининг умумлаштирилган парадигмаларини талқин этади.

Хулоса ва таклифлар. Мақоланинг якунида, таъкидлаш жоизким, дарҳақиқат ҳалкнинг сермазмун тарихи, гўзал ўтмиши, буюк аждодларидан қолган бой маънавий-маданий меросни авлодларга колдириш каби эзгу ният бор экан, тарихий хотиранинг ижтимоий аҳамияти ҳеч қачон сўнмайди. Бинобарин, тарихий хотиранинг серкирра моҳиятидан келиб чиқиб, уни турли жиҳатлардан ўрганиш, умумлаштириш, қиёслаш бутунги илм олдида турган асосий вазифалар қаторидан ўрин олади. Шахсни дунёкарашини, ўзлигини англашини, миллий қадриятларга эхтиромини шакллантириш масалалари доирасида педагогика фанида ҳам илмий изланиш камрови кенгайиб, жумладан, тарихий хотирани шакллантириш муаммосига ҳам алоҳида эътибор қаратиш вақти келган. Бобур шахсияти мисолида кўриб чиқилган тарихий хотирани шакллантиришнинг тарбиявий аҳамиятини куйидагича таснифлашни мақсадга мувофиқ деб билдик:

АДАБИЁТЛАР

1. Бакиева Г.А. Социальная память и толерантность. <http://www.freenet.kg/jurnal/n4/JRNAL409.htm>
2. Захирiddин Мухаммад Бобур Бобурнома. – Тошкент, Фан, 2019. – 432 б.
3. Кравченко И.И. Бытие политики. – М., 2001. – 225 с.
4. Мухаммад Ҳайдар Мирзо Тарихи Рашидий. – Тошкент, Шарқ, 2010. – 720 б.
5. Соколов А.В. Структура социальной памяти общества. – СПб.: С.-Петербург. отделение Института «Открытое общество», 2001. – 192 с.

1. Буюк, тарихий шахслар сиймосида ёшларнинг ва умуман жамиятнинг тарихий хотирасини шакллантириш, жамиятнинг тарихий онгини шакллантириш жараёнининг мантикий давоми бўлса-да, ҳалқ тарихининг тақдирида муҳим ўрин эгаллаган шахсларнинг ўrnak бўладиган фазилатларининг тарбиявий аҳамияти алоҳида таъсири кучига эга;

2. Машхур тарихий шахслар ўзларининг фидоийлик, содиқлик, жасорати туфайли юрт ва ҳалқ манфаати йўлида оғир, кийин шароитларга қарамасдан, ҳамиша сайди-харакатда бўлганиллари ёрқин ибрат сифатида, тарбия жараёнини осонлаштиради ва педагогик технологиялар учун ҳаётй мисол сифатида аскотади.

3. Тарбия жараёнида, айниқса, тарихий хотирани шакллантириш, ривожлантириш ёки мустаҳкамлаш максадида, амалга оширилажак тадбирларда, буюк аждодлар вакилларини тарих сахнасидаги тарихий хизматлари ёшлар қалбига ҳалқ тарихи ва миллий қадриятларга нисбатан маънавий мукимлик хиссини сингдиради.

4. Бобур мисолидаги тарихий хотирани шакллантириш жараённи тегишли ҳолатда эса, унинг юрт соғинчи, Ватан мухитини кўмсаноқ каби шахсий кечинмалари, айниқса ёшларнинг юртга, Ватангга, ҳалқка меҳр ва муҳаббат туйгуларни янада кучайтиришга хизмат килади.



УДК: 172.3(352.4)

Зоҳид ТЎРАҚУЛОВ,

Республика Маънавият ва маърифат маркази раҳбари ўринбосари

Республика Маънавият ва маърифат маркази раҳбари биринчи ўринбосари, Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти директори в.в.б. педагогика фанлари доктори, профессор М.Куронов тақризи асосида

РАҚАМЛАШТИРИШДАН РАҚАМЛИ САВОДХОНЛИККА ҚАДАР: ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛ

Аннотация

Мазкур мақолада рақамлаштириши” ибораси “ракам” сўзидан олинган бўлиб, унинг тарихи қадим ўтмишга бориб тақалиши таҳлил килинади. “Ракам” ибораси пайдо бўлгунга қадар қадимги давр одамларида нарсаларни санаш, хисобини олиш каби эҳтиёжлар мавжуд бўлганлиги илмий жиҳатдан таҳлил этилган. Шунингдек, мақолада нарсаларни санаш учун дастлаб Шумер қабилалари икки хонали сонлар – бирлик ва ўнликларни ўйлаб топишган. “Ракам” ибораси эса дастлаб марказий Осиёлик аллома Ал-Хоразмий асарлари учрашиш борасидаги фикрлар ёритилган.

Калит сўзлар: Рақам, қадим, хисоб, давр, ахборот, маълумот, Шумер, Ал-Хоразмий, ижтимоий, концепция, мобил.

ОТ ЦИФРОВИЗАЦИИ К ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ: НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Резюме

В этой статье анализируется тот факт, что словосочетание «цифровка» происходит от слова «число», которое восходит к древним временам. До появления словосочетания «число» был проведен научный анализ того, что в древние времена у людей была потребность считать вещи, чтобы принимать во внимание. Также для подсчета вещей в статье шумерские племена изначально изобрели двузначные числа - единицы и десятичные дроби. Фраза «Число» впервые была использована в трудах среднеазиатского ученого Аль-Хорезми.

Ключевые слова: Число, древность, счет, период, информация, данные, шумерский, аль-Хорезми, социальный, концепт, мобильный.

F FROM DIGITALIZATION TO DIGITAL LITERACY: SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS

Resume

This article analyzes the fact that the phrase “digitization” comes from the word “number”, which dates back to ancient times. Prior to the emergence of the phrase “number”, a scientific analysis was carried out that in ancient times people had a need to count things in order to take into account. Also, to count things in the article, the Sumerian tribes originally invented two-digit numbers - units and decimal fractions. The phrase “number” was first used in the writings of the Central Asian scholar Al-Khwarizmi.

Key words: Number, antiquity, count, period, information, data, Sumerian al-Khwarizmi, social, concept, mobile.

Рақамлаштириш тарихи – оддийдан мураккабга қадар

Кириш. “Рақамлаштириш” ибораси “ракам” сўзидан олинган бўлиб, унинг тарихи қадим ўтмишга бориб тақалади. “Ракам” ибораси пайдо бўлгунга қадар ҳам қадимги давр одамларида нарсаларни санаш, хисобини олиш каби эҳтиёжлар мавжуд бўлган. Нарсаларни санаш учун дастлаб Шумер қабилалари икки хонали сонлар – бирлик ва ўнликларни ўйлаб топишган. “Ракам” ибораси эса дастлаб марказий Осиё давлатлари алломалари, хусусан Ал-Хоразмий асарларида учрайди. Демак, маълум маънода рақамлаштириш бизнинг аждодимиз Ал-Хоразмий номи билан боғлиқ десак муболага бўлмайди. Бундан 1200 йил аввал Ал-Хоразмий замонавий ўнли хисоблаш тизимини яратиш ва муаммоларни ечишда алгоритмик, яъни тизимли ёндашув орқали рақамлаштиришнинг ўзига хос тамал тошини кўйиб берган.

Рақамлаштиришнинг дастлабки кўринишлари соҳа мутахассислари томонидан телеграфнинг кашф этилиши билан боғланади. XIX асрнинг бошида Эрстед, Ампер, Гаус, Вебер ва бошқа олимлар томонидан аппаратнинг дастлабки теоретик базаси кашф этилган.

- **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили** (*Literature review*). 1840 йил Семюэл Морзе томонидан механик телеграфнинг ихтиро этилиши рақамлаштириш тарихида муҳим босқичлардан бири бўлди. Кейинчалик

олим бутун дунёга машҳур Морзе алифбосини кашф этди. Морзе алифбосида ҳарфлар алоқанинг нариги томонига нуқта ва чизиқчаларнинг ўзига хос терилимаси кўринишида етказилган. Бу билан биз маълумот ва ахборотларни рақамлаштириш XIX асрдаёқ ижтимоий ҳаётда кенг кўлланила бошланганлигини кўришимиз мумкин.

Рақамлаштириш тарихидаги кейинги муҳим қадам 1876 йилда Александр Белл томонидан илк телефон курилмаси, 1896 йилда эса Александр Попов томонидан кабелсиз ишлай оладиган радиотелеграмманинг кашф этилиши билан боғлиқ. Кейинчалик эса радио, электрон лампалар, генераторлар, модуляторлар ва телевидение XX асрнинг ўзига хос қашфиётларидан бўлган. Рақамили телевидениенинг яратилиши эса ушбу соҳа ривожида муҳим бурилиш ясади.

Демак, рақамлаштириш тушунчаси кутилмаганда пайдо бўлган ёки ижтимоий маший турмушимиизга янги кириб келган жараён эмас. Ушбу жараён инсонлар билан ривожланиб, шаклланиб келган эҳтиёж десак ҳам муболага бўлмайди. Оммавий тарзда бутун дунё давлатларида жадал суратлар билан татбиқ этилиши эса мобил қурилмалар ва гаджетлар қундалик ҳаётнинг ажралмас қисмига айлангунга қадар ҳам прогностазирилган жараён хисобланган [1].

Рақамлаштириш ўзи нима?

Рақамлаштириш ибораси бутун дунё миқёсида XXI асрнинг энг урфдаги атамаларидан бири бўлди десак муболага бўлмайди. Ушбу атамага бугунги қадар жуда кўп тадиқотчи олимлар томонидан таъриф бериб ўтилган. Демак, даставвал биз “рақамлаштириш ибораси қандай пайдо бўлган ва унинг маъноси нима?” деган саволга жавоб бернишга уриниб кўрамиз. Рақамлаштириш атамасига илк таъриф Н.Негроптоненинг “Being digital” китобида бериб ўтилган бўлиб, унга кўра материал оламнинг энг кичик заррачаси атомлар хисобланса, рақамли оламнинг энг кичик зарачалари битлар эканлиги ва атомлар бирлашувидан хосил бўлган ҳар қандай маълумотни келажакда битлар йиғиндисидан ҳам хосил килса бўлади, дэя фикр билдирилган[2]. У 1995 йилда “Рақамли иқтисодиёт” атамасини амалиётга киритиб, уни атомлар харакатидан битлар харакатига ўтиш метафораси шаклида ифодаланган.

А.Марей фикрича, “рақамлаштириш бу бизнинг фикрлаш тарзимиз, харакатимиз, атроф-муҳит ва бирбимиз билан алоқа қилишимизнинг парадигмал ўзгаришидир”[3]. Э.Вартанова, М.Максенко, С.Смирновларнинг таъкидлашларича, рақамлаштириш бу нафакат маълумотни рақамлаштириш, балки ўзаро алоқалар ҳамда кундалик яшаш тарзи ва фолиятнинг комплекс ўзгаришидир” [4].

Мартин Буркхард ўзининг “Краткая история цифровизации” [5] китобида “Рақамлаштириш – бу математик жараён эмас, рақамлаштириш – бу инсониятнинг орзулари сари интилиши, яхши яшаш ва атрофини яхшилаш учун қылган ҳаркатлари натижасидир” деб таъриф беради.

Умуман олганда “рақамлаштириш” атамасини биз тор ва кенг доирада тушунишимиз мумкин. Тор маънода[6] рақамлаштириш – бу маълумотларни рақамли кўринишга ўтказишимиздир. Кенг маънода эса “рақамлаштириш” жамиятни барча соҳаларини ривожлантирувчи драйвер хисобланади. Бунинг учун эса рақамлаштириш жараёни қуйидаги сифатларга жавоб бера олиши лозим:

у ишлаб чиқариш, бизнес, таълим, ижтимоий соҳа ва инсонларнинг кундалик турмушига кириб бориши;

ундан факат ривожланиш учун фойдаланилиши;

унинг натижалари оддий истеъмолчилар учун ҳам очиқ бўлиши;

фойдаланувчи (одам)лар ундан фойдаланиш кўнкимасига эга бўлиши.

Рақамлаштириш ахборотлаштириш ва компютерлаштириш жараёнларининг узвий давоми хисобланади.

Барча таърифларни умумлаштирган ҳолда айтиш мумкини, рақамлаштириш – бу ишлаб чиқариш ва ижтимоий ҳаётнинг турли жабхаларига рақамли технологияларнинг татбиқ қилиниши хисобланади.

Рақамлаштириш ва дунё мамлакатлари:

- **Тадқиқот методологияси (Research Methodology).** Рақамли олам ва кундалик ҳаёт бир-бирига ҳар доимигдан ҳам тезроқ якинлашиб келмоқда. Ушбу оламларнинг жисплашуви, охир-оқибат, ўзаро боғликлек тушунчаси катта аҳамият касб этувчи идрокли оламга олиб келади. Глобал рақамлаштириш жараёни эса жисмоний шахслар, корхоналар ва давлатларнинг баркарор ўсиши ҳамда уларга кулайлик яратишни таъминлаган ҳолда тезлигини оширишда давом этмоқда.

Дарҳақиқат, бугунги кунда рақамлаштириш глобал тарзда бутун дунё давлатлари томонидан амалга оширилаётган “концепция” хисобланади. Ушбу концепциянинг асоси ишлаб чиқариш ва ижтимоий ҳаётнинг барча жабхаларини умумлаштириб турувчи

иктисодий ривожланиш билан боғлиқ бўлиб, хукumat учун ҳам, жамоатчилик учун ҳам энг муҳим масалалардан бирига айланди. Дунёнинг аксарият мамлакатларида рақамлаштириш бўйича лойиҳалар бевосита давлат раҳбарлари томонидан кўллаб-куватланиб, ривожланиш омили сифатида эътироф этилмоқда. Шунингдек, бир қатор мамлакатлар электрон хукуматни барпо этиш ва ривожлантириш борасида ўз миллий стратегиясига эга. Бироқ барча учун баробар, ўзгармас шарт бу – сифатли ахборот коммуникацион технологиялар инфратузилмасининг мавжудлиги алохида кўрсаткичидир.

Рақамлаштириш жараёнларида АҚШ етакчи мамлакатлардан хисобланади. АҚШда 2015 йилда ёк рақамли тараққиёт бўйича “Кун тартибида – рақамли иқтисодиёт” деб номланган биринчи хукумат дастури ишлаб чиқилган. У мамлакат учун асосий имкониятларни таъминлайдиган тўртта блокни ўз ичига олади. Булар:

эркин ва ошкора интернетни жадаллаштириш; тармоқдаги ишонч ва хавфсизликни баркарор таъминлаш;

тармоққа эркин кириш ва барча хоҳловчилар учун профессионал кўнкималарни эгаллаш имконияти; инновациялар ҳамда ёркин янги авлод технологияларни жорий қилиш.

Шундай килиб, АҚШ сиёсати рақамлаштиришини ривожлантиришга, бу жараёнда иштирок этадиган тармоқлар ва соҳалар улушкини кўпайтиришга, ИТ – саноат билан шуғулланадиган тадбиркорларни ҳар томонлама кўллаб-куватлашга қаратилган.

Японияда мамлакат тараққиётининг узок муддатли максад ва вазифаларни белгилаб берадиган асосий хужжат 2016 йилда Япония хукумати томонидан йирик бизнес федерацияси – “Кэйданран” кўмагида қабул килинган “Society 5.0” стратегиясидир. Ушбу стратегия – фуқаролар фаровонлиги даражасининг ўсишини таъминлаш учун илм-фан ва технологияларни ривожлантириш мақсадида илғор рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда қурилган ижтимоий-иктисодий ва маданий тизимнинг ўзига хос туридир. Ушбу стратегия машхур “Industry 4.0” концепциясига асосланган бўлиб, у нафакат ишлаб чиқариш муаммоларини ҳал этади, балки унинг мақсади ижтимоий ҳаёт ва кибер-макон интеграцияси орқали ижтимоий фаровонликни таъминлаш ҳамdir.

Марказий Осиё давлатлари ичida етакчилардан бўлиб Қозогистонда 2017 йилда “Рақамли Қозогистон” дастури имзоланган бўлиб, бугунги кунга қадар давлат хизматлари ва янги технологиялар тўғрисида бир нечта янги конунлар қабул қилинди.

Қирғизистонда 2017 йилда хукумат миллий рақамли инфратузилмани яхшилашга қаратилган “Таза Коом” (Тоза жамият) рақамли шакллантириш дастури, 2019 йилда “Рақамли Қирғизистон 2019–2023” рақамли шакллантириш миллий дастури концепцияси қабул килинган бўлиб, 2019 йил “Қирғизистонда рақамли ривожланиш ва рақамлаштириш йили” деб ёзлон килинган.

Тожикистон “2012–2020 йилларда электрон хукуматни шакллантириш концепцияси”ни 2011 йилда тақдим этган. Уч босқичда амалга оширилиши режалаштирилган ушбу концепция белгиланган муддатидан анча кечикди. Интернетга уланиш даражасининг пастлиги ва нархларининг қимматлиги бутун мамлакат бўйлаб АҚТ инфратузилмасининг мавжуд эмаслиги каби омиллар лойиҳанинг оқсашига сабаб бўлди.

Туркманистон “Рақамли иқтисодиётни 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси”ни 2019 йилда қабул қилган. 2020 йил март ойида эса “Электрон хужжат

алмашинуви ва рақамли хизматлар тўғрисида”ги конун қабул қилинди. Datareportal маълумотларига кўра, мамлакат ахолисининг кам фоизи ижтимоий тармоқлардан фойдаланмоқдаки, бу ҳам ахолининг рақамли саводхонлик даражаси анча пастилигидан далолат беради[7].

- **Таҳлил ва натижалар (Analysis and results).** Ўзбекистонда ҳам бу соҳада бир қатор ишлар амалга оширилиб келинмоқда. Жумладан, 2020 йил “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” деб эълон қилинди. 2020 йил 28 апрель куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон хукуматни кенг жорий этиш чоратадбирлари тўғрисида”[8]ги қарори, 2020 йил 5 октябрда “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаша уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”[9]ги ПФ-6079-сон фармони имзоланди. Мазкур Фармон билан “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси ҳамда уни амалга ошириш бўйича “йўл ҳаритаси” ва 2020–2022 йилларда худуд ва тармоқларни рақамли трансформация қилиш дастурлари тасдиқланди. Ушбу хужжатларда телекоммуникация соҳаси, давлат хизматларини кўрсатиш, иқтисодиётнинг реал сектори тармоқлари, соғлиқни саклаш, давлат кадастри ва бошқа соҳаларда рақамли технологияларни кенг жорий этиши, бу борада “Рақамли Ўзбекистон – 2030” дастурини тасдиқлаш, электрон хукуматнинг техник инфратузилмасини такомиллаштириш, инсон капиталини ривожлантириш ҳамда кадрларни тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш, давлат хизматларини рақамли шаклга трансформация қилиш, давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятининг очиқлиги ва шаффоғлигини таъминлаш, ахолининг электрон иштироқи даражасини ошириш, ахборот хавфсизлигини таъминлаш, рақамли иқтисодиёт ва электрон хукумат соҳасидаги ягона ваколатли органни белгилаш ҳамда Хукумат, вазирик ва идоралар, маҳаллий давлат ҳокимияти органларида раҳбарнинг рақамли технологиялар ва электрон хукумат масалалари бўйича ўринбосари лавозимини жорий этиши каби масалалар назарда тутилган. Бу ўз навбатида мамлакатимизда рақамли иқтисодиётни фаол ривожлантириш, барча тармоқлар ва соҳаларда, энг аввало, давлат бошқаруви, таълим, соғлиқни саклаш ва кишлоқ хўжалиги замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш бўйича амалга оширилаётган сайд-харакатлар самарадорлигини таъминлашда мухим аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти 2020 йил Олий Мажлисга Мурожаатномасида бу хақида атрофлича тўхталиб, таъкидлаганидек – “Рақамли технологиялар нафақат маҳсулот ва хизматлар сифатини оширади, ортиқча харажатларни камайтиради. Шу билан бирга, мени жуда каттиқ ташвишга соладиган ва безовта киладиган энг оғир иллат – коррупция балосини йўқотишида ҳам улар самарали воситадир. Буни барчамиз теран англаб олишимиз даркор. Давлат ва жамият бошқаруви, ижтимоий соҳада ҳам рақамли технологияларни кенг жорий этиб, натижадорликни ошириш, бир сўз билан айтганда, одамлар турмушини кескин яхшилаш мумкин”[10].

Рақамли тарғиботнинг ўзига хос асосий хусусиятлари

Рақамли дипломатия ёки рақамли тарғибот – саҳна ортидаги акл

Рақамлаштириш кенг қамровли жарабён ҳисобланиб, катта-кичик ёки муҳим ёки аҳамиятсизлигидан қатъий назар иқтисодиёт ва ижтимоий хайётнинг барча соҳаларини қамраб олади. Рақамлаштириш жадал суратларда табоиқ этилган соҳалардан бири – бу тарғибот ва ташвиқот фаолияти ҳисобланади. “Рақамли тарғибот”га сиёсий-иктисодий, илмий-ижтимоий, маданий, маънавий ва маърифий муносабатлардаги алоқаларни рақамли технологиялардан фойдаланиш ёрдамида амалга оширувчи ўзига хос метод дея таъриф беришимиз мумкин.

Тарғиботни рақамлаштиришнинг мудавафаккяятили жиҳатига 2016 йил АҚШда ўтказилган Президент сайловлари мисол бўла олади ва бугунги кунга кадар тарғиботни рақамлаштириш масаласида АҚШ энг илгор мамлакатлардан бири десак муболага бўлмайди[11]. 2020 йил ўтказилган тадқиқотлар давомида БМТга аззо давлатларнинг 98 %и twitter тармоғида борлиги аниқланган[12].

Рақамли тарғибот анъанавий тарғиботнинг янги ўйналиши бўлиб, унинг кўриниши интернет, янги ахборот технологиялари ва алоқаларни мустаҳкамловчи ижтимоий тармоқлардан фаол фойдаланишда намоён бўлади. Анъанавий тарғиботдан асосий фарқларидан бири маълумотларнинг замон ва макондан қатъий назар барча учун бир хил очиқлигига, барча одам (tinglovchi) ва ташкилотлар билан ўзаро алоқа қилиш имкониятининг мавжудлигига ва шаффоғлигидадир[13]. Дунё ҳамжамияти томонидан ижтимоий тармоқ (Twitter, Facebook, Instagram, YouTube) бугунги кунда шаффоғлики таъминловчи, шунингдек ўзаро алоқанинг энг мақбул йўли сифатида тарғиботда мухим куроллардан бири ҳисобланади. Чунки, рақамли тарғибот ёрдамида анъанавий тарғиботга нисбатан оз сонли тарғиботчилар орқали кисқа фурсатда катта натижадорликка эришиш мумкин. Шунингдек, рақамли тарғиботнинг анъанавий тарғиботдан энг асосий ва ютукли тарафи бу – ахборотларнинг тезда етказилиши ва натижанинг тезликда қайтиши таъминланганиллигидадир.

Рақамли тарғибот жамиятда куйидаги хусусиятлар мавжуд бўлса ўзини оқлади:

Жамият аъзолари аксарият кисмининг интернетдан фойдаланиш фоизи юкори бўлса;

Интернет фойдаланувчилари ижтимоий тармоқнинг мустакил ва босимсиз фолият юритишига, мавжуд канал ва блоклардаги маълумотларнинг хаққонийлигига ишониши;

Узлуксиз равишида, яъни 24/7 режимида маълумот олиш имконининг мавжудлиги;

Интернет фойдаланувчиларининг асосий кисми учун маълумотларнинг кисқа, лўнда ва тушунарли бўлиши.

Юкорида санаб ўтилган 4 хусусиятнинг барчаси ташкил этилган тақдирдагина рақамли тарғибот ўзига оқлади ва кутилган натижани беради.


Шунингдек, Рақамли тарғиботда маълумот етказишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб асосийлари қўйдагилар ҳисобланади:

Алоқанинг ўзига хослиги

Максалли алъесантнинг мавжудлиги
Ўзаро алоқа қилиш стратегиясининг мавжудлиги
Узига хос методларнинг мавжудлиги

Фойдаланиладиган иш
күролларининг ўзига хослиги

Рақамли тарғиботда асосий фаолият майдонлари қўйдагилар:



Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, тарғибот ва ташвиқот ишлари кишиларнинг турмуш тарзи, инсоний қадриятлари, орзу ва мақсадлари, кайфияти ва иш унумдорлигига ўз таъсирини кўрсатади. Бу эса жамият ривожи ва хар қандай ҳукумат фолияти учун муҳим мезонлардан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам бугунги кунда таъсир кучи тез ва юқори ҳисобланувчи “рақамли тарғибот”га илмий ёндашув давр талабидир. Соҳа мутахассилари томонидан бугунги кунда анъанавий тарғиботда фойдаланилиши мумкин бўлган бир қанча методлар ишлаб чиқилган. Мисол учун тарғиботдаги энг кўп кўлланиладиган методлардан бири бу – аноним авторитет методи. Бу методда авторитет исмидан эмас, балки лавозими ёки унвонидан фойдаланилади. Мисол учун фойдаланувчига маълумотлар етказилаётганда “Мутахассисларнинг фикрича...”, “Олимларнинг таъкидлашича...”, “Врачларнинг кўрсатмасига кўра...” каби ибораларнинг кўлланилиши фойдаланувчиларда маълумотга нисбатан бўлган қизиқиш ва ишончни оширади. Рақамли тарғиботнинг ўзига хос асосий жиҳатларидан яна бири шундаки, тарғиб қилинаётган маълумотлар айнан ким ёки қайси ташкилот томонидан илгари суриласётганилиги аноним тарзда ҳам колиши мумкин. Чунки бугун ижтимоий тармоқда аноним ҳолда шахсий канал ёки блоглар юритиш, уларда субъектив ва объективлигидан катъий назар маълум фикрларни илгари суриш имконияти мавжуд.

Рақамли саводхонлик – замонавий дунёда ҳаёт учун, рақамли технологиялар ва интернет ресурсларидан хавфсиз ва самарали фойдаланиш учун зарур бўлган билим, кўнкима ва малакалар тўпламиди[14]. Динамик онлайн режимларни яратиш ва саклаш, ийрик ва мураккаб бўлган онлайн ижтимоий тармокларни бошқариш қобилияти ҳисобланади. Рақамли саводхонлик маълумотларни мазмуни ва уларнинг таъсирини тушуниш, уларни саралаш, уларда келтирилган ҳиссий ва асосланган ахборотларни ажратса олиш, маълумотлар ҳақида танқидий мулоҳаза юритиш, жараёнларни фарқлаш хусусиятларига эга[15].

Медиасаводхонлик каби рақамли саводхонлик кўнкимларини учта асосий йўналишлар бўйича тақсимлаш мумкин:

тушуниш;
фойдаланиш;
яратиш[16].

Бугунги кунда интернетни чеклаш ва тақиқлаш, экранларда узатилаётган турли сюжетлардан чегаралаш имкони йўқ. Шу сабаб, рақамли саводсизлик билан курашиш оқилона медиа-сиёсатнинг таркибий қисми бўлиши керак.

Хулоса ва тақлифлар (Conclusion/Recommendations). Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Рақамлаштириш ҳаётимизнинг ҳар бир жабҳасида меҳнат қилаётган фуқароларимизнинг оғирини енгил қилиши, уларнинг вактларини тежаши ва ишларни яхши ва сифатли бажарилишига кўмаклашиши бугунги кунда жаҳон тажрибасида ўз исботини топди. Бу борадаги технологиялар барча соҳаларда тараққиёт суръатларини жадаллаштиради ва пировард мақсадларга тезроқ ва яхшироқ эришишга кўмаклашади.

Бугун олдимизда турган долзарб вазифалардан бири айнан рақамли тарғиботдан фойдаланишининг методик кўлланмасини яратиш ва уни ҳаётга татбиқ этиш ҳисобланади. Зоро, ижтимоий тармоқдаги ҳаёт, маълумотлар, фикрлар айланмаси анъанавий таъсир ва тарғиботдан бир неча баробар тез, кўлами кенг ва қайта жавоб олиш имконияти юқори ҳисобланади. Ижтимоий тармоқда тарғиб қилинадиган маълумотларнинг барчасини синтезлаш ёки яхши ёмонга ажратиш имконияти мавжуд эмас. Маълумотлар кишиларнинг дунёкараши, ёши, жинси, маълумоти ва бошқа хусусиятларидан катъий назар барчага бир хил тезлика ва кўламда етказилади. Ушбу маълумотларни индивидуал тарзда яхши ёмонга ажратса олиш, кераклигини кераксизидан фарқлай олиш учун аҳолида “рақамли саводхонлик”ни оширишимиз муҳим ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

- Hacker K., van Dijk J., eds. Digital Democracy: Issues of Theory and Practice, SAGE Publication LTD., London, 2000, Б. 240.
- Nergoptone N. Being Digital, Knopf, New York, 1995, Б. 256.
- Марей А. Цифровизация как изменение парадигмы/<https://www.bcg.com/ru-ru/about/bcg-review/digitalization.aspx>.
- Вартанова Е.Л. Индустрія российских медиа: цифровые будущее: академическая монография/ Е.Вартанова, А.Выровский, М.Максеенко, С.Смирнов.: МедиаМир, 2017. Б.160.

5. М.Буркхард. Краткая история цифровизации. ООО “Ад Маргинем Пресс”. 2021. Б.177.
6. Negroponte N. Being Digital / N. Negroponte. — NY : Knopf, 1995 [Электрон манба]. URL: <http://inance.ru/2017/09/cifrovaya-ekonomika/>; Розина И.Н. Цифровизация образования [Электрон манба]. URL: <http://ito.1gb.ru/tezises/1027.doc>; Козырев А.Н. Цифровая экономика и цифровизация в исторической ретроспективе [Электрон манба]. URL: <http://Medium.comCEMI-RAS>. Ноябрь, № 11. 2017.
7. Қаранг: <https://yuz.uz/news/raqamlashtirish-markaziy-osiyo-mamlakatlarida-qanday-kechmoqda>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон хукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4699-сон қарори, 28.04.2020 йил.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”1ги ПФ-6079-сон Фармони, 05.10.2020 йил.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 24.01.2020 йил.
11. Donald Trump: Whithout Twitter I, would not be here – FT interview. FT. Available at: <https://www.ft.com/content/943e322a-178a-11e7-9c35-0dd2cb31823a>
12. Расмий сайт: Twiplomacy, available at: <https://twiplomacy.com/>.
13. Chakrabarty K., ed. Cultural Diplomacy Dictionary, Berlin: Academy for Cultural Diplomacy. 2013.
14. Ельцова О. , Емельянова М. К вопросу о понятии цифровой грамотности // Вестник ЧГПУ им. И.Я. Яковлева. 2020. №1 (106). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-ponyatii-tsifrovoy-gramotnosti>.
15. Бабаджанов С. Ҳозирги медиамуҳит шароитида ёшларни деструктив ахборотлардан ҳимоя қилишнинг самарали воситаси сифатида медиатълимнинг зарурияти // Современное образование (Узбекистан). 2017. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ozirgi-mediamu-it-sharoitida-yoshlarni-destrukтив-ahborotlardan-imoya-ilishning-samarali-vositasi-sifatida-mediatlimning-zaruriyati>.
16. <http://metric.tilda.ws/mediaresearchuz>



УДК: 323.2

Бобомурод ТҮХТАСИНОВ,

Наманган давлат университети ўқитувчisi

E-mail: bobomurod.tukhtasinov@bk.ru

Сиёсий фанлар доктори, доцент Н.Б.Деканов тақризи асосида

SOCIO-PHILOSOPHICAL FUNDAMENTALS OF STATE AND NATION COMMONWEALTH

Annotation

This article philosophically analyzes that the strengthening of the national foundations of society is a strategic goal of the state, that strengthening the material foundations of the state is not enough to ensure the strength and durability of the state, and that the spiritual foundations are important. The example of Uzbekistan illustrates the importance of giving priority to internationalism, as well as the culture of civil solidarity of indigenous peoples, in order for a state consisting of a multi-ethnic society to achieve stability and stability. The author summarizes the existing ideas and theories of science, the views of scientists on the subject of the article, on the basis of which he was able to draw independent scientific and philosophical conclusions.

Key words: state, nation, national traditions, national values, civilization, historical environment, historical conditions, political elite, political avant-garde, neoliberalism, globalization, national thinking, individuality, spiritual power, civic solidarity, internationalism, indigenous nation, commonality, synchronicity, social program, social reality, strategy, potential.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО СООБЩЕСТВА

Аннотации

В данной статье философски анализируется, что укрепление национальных основ общества является стратегической целью государства, что укрепления материальных основ государства недостаточно для обеспечения силы и устойчивости государства и что духовные основы важны. Пример Узбекистана иллюстрирует важность удаления первоочередного внимания интернационализму, а также культуре гражданской солидарности коренных народов, чтобы государство, состоящее из многоэтнического общества, могло достичь стабильности и стабильности. Автор обобщает существующие идеи и теории науки, взгляды ученых на предмет статьи, на основе которых он смог сделать самостоятельные научные и философские выводы.

Ключевые слова: государство, нация, национальные традиции, национальные ценности, цивилизация, историческая среда, исторические условия, политическая элита, политический авангард, неолиберализм, глобализация, национальное мышление, индивидуальность, духовная сила, гражданская солидарность, интернационализм, коренная нация, общность, синхронность, социальная программа, социальная реальность, стратегия, потенциал.

ДАВЛАТ ВА МИЛЛАТ МУШТАРАКЛИГИННИГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ НЕГИЗЛАРИ

Аннотация

Ушбу маколада жамият миллай асосларини мустаҳкамлаш давлатнинг стратегик мақсади эканлиги, давлатнинг мустаҳкамлиги ҳамда бардавомлигини таъминлаш учун унинг моддий асосларини мустаҳкамлашнинг ўзи етарли эмаслиги, бунда маънавий-руҳий асослар ҳам муҳим аҳамият касб этиши масалалари фалсафий жиҳатдан таҳлил этилган. Кўп миллатли социумдан таркиб топган давлат барқарорлик ва бардавомлик касб этиши учун туб миллатдаги фуқаровий ҳамжиҳатлик маданияти билан бир қаторда, байнамилалликка ҳам зарур устуворлик берилишининг аҳамияти Ўзбекистон мисолида очиб берилган. Мақола мавзуси доирасида тадқик этилган муаммога доир фанда мавжуд ғоя ва назариялар, алломаларнинг карашлари умумлаштирилиб, шуларга таянган ҳолда муаллиф мустақил илмий-фалсафий хуносаларга кела олган.

Калип сўзлар: давлат, миллат, миллай анъаналар, миллай кадрияллар, цивилизация, тарихий мухит, тарихий шароит, сиёсий элита, сиёсий авангارد, неолиберализм, глобаллашув, миллай тафаккур, индивидуаллик, руҳий кудрат, фуқаровий ҳамжиҳатлик, байнамилаллик, туб миллат, муштараклик, синхронлик, ижтимоий дастур, ижтимоий реаллик, стратегия, салоҳият.

Кириш (Introduction). Мустақилликка эришиб, ўз тақдири тизгинини кўлга киритган давлатлар сафига кўшилиш биз учун кўп минг йиллик шон-шуҳратларга бой, аммо оғир синовлардан ўтган тарихимизда мутлақо янги даврнинг бошланиши эди. Бироқ бу кўплаб муаммолар ечимини талаб қиласди. “Бизнинг олдимизда шундай тарихий имконият пайдо бўлди, босиб ўтган ўйлимизни танқидий баҳолаб, миллай давлатчилигимиз негизларини аниқлаб, буюк маданият томирларига, қадимий меросимиз илдизларига қайтиб, ўтмишимиздаги бой анъаналарни янги жамият қурилишига татбиқ этмоғимиз лозим” эди [1].

Бундай пайтларда тайёр ижтимоий-сиёсий лойиҳаининг ўзи мавжуд бўлмаганидек, уни яратиш учун бошка халқларнинг тажрибаси ҳам ёрдам бермайди. Зотан, кўплаб саволларга жавоб ва муаммолар ечимини шу халқ айнан ўз тафаккуридан излаши, миллатнинг тақдирига жавобгарлик мажбуриятини ўз елкасига олган сиёсий раҳбарият эса уни чукур хис этмоғи лозим бўлади. Миллат тафаккури ўзгарувчан замон билан ҳамоҳанг; ҳаёт бор экан, тафаккур ҳам ўзгаришдан, бойишдан тўхтамайди. Бу барча даврлар учун бирдек қонуният, бироқ уни хис этиш даражаси ҳаммада ҳам бир хил бўлмайди. Залворли жараёнлар ва эврилишлар ортидаги кўзга ташланмас, лекин амалга оширилиши зарур бўлганди.

императивлар мавжудки, уларни илғаш ва англаш миллат сиёсий авангардининг бош вазифаси хисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). Одатда ҳар бир конкрет тарихий муҳит, шароит сиёсий элитадан энг долзарбларини ажратиш ва амалиётни айнан шундан бошлишни талаб килади. Бу умумий қоидага илм аҳли эътиборини қаратар экан, мутгасил уни инсондаги чексиз тафаккур уммони, руҳий кудрат билан боғлаган. Олимлар фикрига кўра, фикрловчи мавжудот ўзида яшириниб ётган чексиз салоҳият катламларига қатъиёт илиа кириб бориши асноларида, мутлако янги шароитда бошқа бир руҳий муҳит сари ўтиш учун “зарур қобилиятни пайқайди”. Бундай руҳий ҳолат қандайдир ички руҳият, реалликнинг, янгидан пайдо бўлган “марказ”нинг нурланиши инъикосидир” [2]. Ушбу фикр франциялик файласуф П.Т.де-Шарден қаламига мансуб бўлса-да, бу умуминсоний ҳолат ўзбек давлати ва раҳбарияти ҳамда миллати учун ўта долзарб тарихий давр – мустақилликнинг илк онларида миллат тафаккурида рўй берган алоҳида мавжланиш ҳолатини яққол ифодалаган.

Дунёнинг турли нукталарида тобора кучайиб, кўпчилик онги-шуурини забт этаётган неолиберализм ва глобаллашув билан боғлиқ жараёнлар таъсирига нисбатан тўғри фикрга келингандиги Ўзбекистон раҳбарияти учун ҳал килувчи, тақдирбардор жиҳат эди, дейиш мумкин. Зеро, ўз давлатининг бугуни ва келажаги учун факат ва факат шу миллатнинг ўзи, унинг олий сиёсий раҳбарияти шахсан жавобгар. Аммо “инсониятнинг ижтимоий-сиёсий, илмий ва маънавий равнави ранг-барагн ва турли ҳолатларда кечганилиги боис ҳар бир ҳалқ, миллат ва давлатнинг эҳтиёжлари умумий ўхшаш томонларга карамасдан, ҳар бири учун индивидуал характер касб этади” [3].

Айнан шу жойда муҳим, аммо амалиётда исботини ҳар доим ҳам топиши қийин бир масала юзага чиқади. Гап ўзбек юртининг қадим замонлардан бўён кўп миллатли социум сифатида мавжудлиги ва бундай шароитда давлат барқарор ва бардавомлик касб этиши учун туб миллатдаги фуқаровий ҳамжиҳатлик маданияти билан бир қаторда, байналмилалликка ҳам зарур устуворлик бериш ғояси хусусида бормоқда. Яқин кунларгача онг ва амалиётда ҳукмронлик килган коммунистик ақидага кўра, давлатнинг мустаҳкамлиги ҳамда бардавомлигини таъминлаш учун унинг моддий асосларини мустаҳкамлашнинг ўзи етарли ҳисобланган. Маънавий-руҳий асослар четга сурилиб, сиёсий ва интеллектуал ҳамжамият орасида кўпмиллатли давлат учун туб миллат билан боғлиқ жиҳатларига ҳаддан зиёд эътиборни қаратиш миллатчиликни кучайтириб, натижада давлатни заифлаштириши мумкин, деган ҳадик устувор бўлган.

Бирор ҳозирги давр ижтимоий тараққиёт тажрибаси, ён атрофимизда рўй бераётган янги жараёнлар илмий жамоатчиликнинг маънавий-руҳий омилларга нисбатан муносабатини кескин ўзгартирди. Зотан, XX аср немис файласуфи М.Хайдеггер инсон ва миллат руҳияти хусусида сўз юритар экан, унинг “инсон, индивид одатда чукур ўйга толиб ундаги ички кувват мавжланиши асноларида барча нарса ва ҳодисаларнинг моҳиятини англаб этади” [4], деган хulosasi миллатга ҳам тааллукли.

Юкорида келтирилган умумий ҳолат факат индивид руҳий ҳолатининг кўриниши эмас. Уни бутун бошли миллатга, ҳатто цивилизацияга нисбатан ҳам кўллаш жоиз. Зеро, миллат ёки цивилизациянинг руҳияти, дунёни идрок этиш қуввати аввалимбор онг ва тафаккурда намоён бўлади. Таъбир жоиз бўлса, “Буюк тарихда ҳеч нарса изсиз кетмайди. У ҳалқларнинг конида, тарихий хотирасида ва амалий ишларида намоён бўлади” [5].

- Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Шу нуқтаи назардан давлатнинг бугуни ва истиқболини таъминлаш учун унинг миллат асосларини мустаҳкамлаш янги даврнинг бош стратегиясига айланди. Ўзбек тилига давлат тили мақомини бериш, тамомила янги давлат рамзларининг жорий этилиши, умумхалқ байрамларининг қайта тикланишини ҳукumat миллати анъаналар, негизлар билан боғлашни долзарб вазифага айлантириди. Шунингдек, “барпо этилаётган давлат умумжаҳон цивилизациясига, давлат қурилиши соҳасида бошка ҳалқлар эришган тажрибаларга, ижтимоий қадриятларга асосланиши” ҳам муҳимлигига эътибор қаратилди. Ана шундай долзарб асноларда, давлат мустаҳкам ва ҳаётбахшил касб этиши учун унинг миллат асосларини қайта тиклаш, миллат онгининг чукур катламларидан ўз вақти-соатини кутиб ётган беназир руҳни кучайтириш бирдан-бир тўғри йўл деб хисобланди ва бу стратегия ўзини оқлади.

Ўзбекистон тутган айнан шу йўл, яъни давлатнинг миллат асосларига устуворлик берилиши бу ўзбеклар оғизи, тафаккурининг ўзига хос томони сифатида намоён бўлди. Зотан, ҳар бир янги давлат шаклланиши асноларидан бошқаларда учрамайдиган ўзига хос ноёб жиҳатларга эга бўлади ва бу ноёбликни одатда ўзига етарли давлат изчиллик билан асраршга интилади. Бу ноёблик кейинчалик босқичма-босқич умуминсоний универсалийлар билан уйғуллашиб янгилини боради.

Тарихдан маълумки, ўзбеклар анъанаси, удумлари, маънавий қадриятлари ҳар доим турли қийинчилкларга карамасдан ўзини, ўзлигини намойиш эта олган. Бошқалар эса уйғунлук ва ўзликни саклашда туб ҳалқ атрофиди ҳамжиҳатликнинг энг баланд чўққиларига чиқишиган. Ўзбеклар онги, тафаккурида шаклланган давлатчилик ғоясини улар ҳам ўзиники деб қабул қилган. “Ана шундай мураккаб вазиятда мамлакатимизда турли миллат ва динга мансуб инсонлар ўртасида дўстлик ва баҳамжиҳатлини мустаҳкамлаш биз учун борган сари муҳим аҳамият касб этди. Шу боисдан бу муқаддас тушунчалар миллати ва диний эътиқодидан қатъи назар, шу юрт, шу муқаддас заминда яшайтган ҳар бир кишининг ҳаёти, онги, қони ва жисмига сингиб кетган”[6]. Бу жиҳат янги даврда Президент Ш.Мирзиёевга “кўзлаган барча максад вазифаларимизга албатта етамиз. Бу борада мен аввало кўп синовлардан ёруг юз билан ўтган олижаноб ҳалқимизнинг мустаҳкам иродаси ва мустаҳкам салоҳиятига ишонаман”[7], дея қатъи айтиш имкониятини яратди.

Шу тарика давлат ва миллат ўртасидаги алоқа ва муштараклик масаласи юзага чиқади. Зотан, миллат ва давлатдан қайси бири олдин пайдо бўлган деган масалада ҳанузгача ягона фикр мавжуд эмас. Миллат ва давлат муносабатидаги синхронлик, яъни ўзаро боғлиқлик нуқтаи назаридан келиб чиқилса, биз учун миллат ва давлат бир-бирини тўлдириб, бир-бирини ўзаро вужудга келтирганлиги муҳим. Шу муносабат билан француз тарихчиси Эрнест Ренаннинг “Улкан ҳамжиҳатлик ифодаси сифатида миллат қаҳрамонона ўтмиш, бугунги ягона хоҳиш-ирода ва ниҳоят, келажакда умумий ҳаракат дастурини тақозо этади”[8], – деган хulosasi эътиборни тортади. Бундан миллат шон-шуҳратларга бой ўтмиш, бугунги кун учун зарур ягона хоҳиш-ирода ҳамда келажак учун умумий ижтимоий дастур, стратегияни ифода этиши англашилади.

Гап шундаки, юкорида зикр этилган миллатга хос жиҳатларни давлатчиликда ҳам кўришимиз мумкин. Бундай вазиятда, табиийки, уларнинг қаҷон “дунё юзини кўрганлиги” билан боғлиқ масалалар четга сурилиб, ўртадаги умумийлик ва шу умумийликни шакллантирган асослар устуворлик касб этади. Бошқача айтганда, тараккиёт учун улар ўртасидаги “чегара чизиклари” эмас,

балки имманент умумий томонлар алохига аҳамият касб этади.

Зотан, давлат ва миллат ижтимоий реаллик ҳамда ғоя сифатида бири бирини бойитиб ва бири бирига барҳаётлик бахши этиб боради. Давлатнинг ҳам, миллатнинг ҳам ижтимоий негизлари ва турткилари бир хил: ҳар иккаласи ҳам “ижтимоий дастур”[9] сифатида куйидан юқорига қараб ривожланишдек табиий маром натижасидир. Давлатнинг пировард мақсади – ижтимоий тартибот ва ҳамжиҳатлиқка эришиш ўзининг миллий асосларини мустаҳкамлаш билан чамбарчас боғлиқ. И.Кант таъбири билан айтганда, “давлатлар бор кучини ўзининг тор, бирорларни бўйсундиришга қаратилган ниятларидан ҳалос бўлишга қаратмас экан, фуқроларнинг тафаккур тарзини такомиллаштириш ҳақида ўйламас экан, у ҳолда уларнинг ўз ҳалки хусусида фикрида бирорта бир ижобий ўзгариш борасида сўз юритиш ҳом хаёлликдан бошқа нарса эмас”[10]. Бу хулоса шубҳасиз миллатга ҳам тегишили.

Шу нуткаи назардан немис файласуфи Иоганн Фихтенинг бир мулоҳазаси “давлат-миллат” занжирининг ички конуниятлари масаласига ойдинлик киритилиши мумкин. “Ўзининг якка ёлгиз интилиши ёки ҳарқати туфайли вақт аллақандай илгари сурилиб кетди, деган фикрдан файласуфдан кўра йироқ одам бўлмаса керак. Тўғри, худо ато этган куч-куватда ҳеч бўлмаганда ўзи учун ҳамда бошқалар учун, қолаверса шу вақт оқимидан насиб килинган жойни ёгаллаш йўлида фойдаланиши барча инсонларнинг ўзида колган гап. Аммо вақт абадийликдан эътиборан мақсад сари изчил одимлашда давом этмоқдаки, уни ҳеч ким бир ўзи куч билан тўхтатишига кодир эмас. Бу ерда факат улкан жамоавий, бирлашган кучнинг ўрни бекёёс. Ана шу йўл билан ва шу орқали инсон уни кутиб турган эзгу мақсадга, барча замонлар ва одамларнинг абадий руҳига этишига эришиши мумкин” [11].

- Таҳлил ва натижалар (Analysis and results).

Демак, бошдан оёқ инсон ҳеч қачон якка ёлғиз бирор бир буюк ишни амалга оширишининг иложи йўқ: зоро, у жамоада умр кечиради ва шу жамоа доирасида фаолият юритади. Аксарият инсон буни ҳатто англаб ҳам етмайди. Ва ўз ҳоҳишидан катъи назар у шу ҳалқ ёки миллатнинг умумий салоҳиятига таянишга маҳкум, шу йўлда у миллат ёки давлатнинг қисмларидан бирига айланнибина ўз мақсадига эришади. Бу бир жиҳат. Иккинчи жиҳат эса, давлат ва миллатнинг айнан шу умумий салоҳият, руҳият тимсоли эканлигининг ойдинлашишига бориб тақалади. Давлат билан миллат моҳиятан ўзаро биргалашиб, ҳамжиҳат бўлсагина эзгу мақсадга эришиши – ҳалқни, фуқароларнинг яшаш сифатини талаб даражасига олиб чиқиши мумкин.

Демак, давлат билан миллат ҳар бири алохига ижтимоий реаллик, ҳодиса бўлиши баробарида, пировард мақсад ва интилишларининг йўналишида улкан муштараклик мавжуд экан. Давлатни давлат қиласиган миллат, миллатни эса кўкка кўтарадиган, унинг ички салоҳиятидан башариятни вокиф қила оладиган куч ҳам давлат. Шу тарика, ҳар бир ўзига етарли, ўз ҳаддини англаган давлатнинг дикқат марказида барча замонларда айнан шу жиҳат, яъни миллий асосларини бетиним мустаҳкамлаш масаласи мавжудлиги, тарихий асноларда эса, унинг янада стратегик устуворлик касб этиши ўзидан ойдинлашиди.

Долзарб тарихий асноларда давлатга, айниқса эндинга мустақиликка эришган янги давлатга, ўз барҳаёт ва бардавомлиги йўлида ана шу ўз-ўзидан “шаклланган”ижтимоий дастурий мақсад ва вазифалар орасидан стратегик аҳамиятга эга бир нечтасига устуворлик бериш масъулияти юклатилилар экан, давлат

ушбу масъулиятни чукур ҳис этса ва унинг уддасидан чиқишига бел боғласа – шунинг ўзи етарли. Барча босқичларда борган сари долзарблиқ касб этиб турган ўзбек давлати, давлатчилигининг миллий асосларини мустаҳкамлашга қаратилган стратегик вазифани ҳам ана шу доирада қараш жоиз. Шу муносабат билан Президент Ш.Мирзиеев ўзининг бир чиқишида тараққиётнинг “ўзбек модели” билан “замонавий давлат барпо этиш”ни кўшалоқ бир жараён сифатида қараганлиги эътиборни тортади [12].

Бугунги босқичда олий раҳбарият томонидан эътибор қаратилётган учта муҳим жиҳат: давлатчилигимизни янги кирралар билан янада бойитиш, давлатимизнинг миллий асосларини янада мустаҳкамлаш ва ниҳоят, тарихий тараққиётнинг бугунги босқичини бир-бири билан ўзаро боғликлиқда кўришнинг истиқболимиз билан чирмашиб кетганлиги, бу бирдан бир ягона давр ҳукми эканлигидир. Миллий тилимиз, миллий меросимиз, миллий моделимиз, миллий қонунчилигимиз, миллий давлатчилигимиз, миллий бошқарув услугумиз, миллий менталитетимиз, миллий манфаатларимиз тизими, миллий таълим-тарбия, миллий маданият ва дунёқарашимиз, миллий фалсафамиз ва бошқа кўплаб миллий жиҳатларимизнинг замон эҳтиёжлари билан ҳамоҳанглиги миллий стратегик устуворлигимизнинг бардавом ва барҳаётлигини англатади. Шу муносабат билан “Тарихий меросни асрраб-авайлаш, ўрганиш ва авлодлардан авлодларга қолдириш давримиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналиши” [13], сифатида олий даражада эътироф этилмоқда

Юзаки қараганда давлатнинг миллий асоси кўзга кўринмас мавхум шаклга эга. Лекин унда шу қадар улкан куч-кудрат йигилганки, уни эътиборсиз қолдириб, меркантлизм, нигилизм, неолиберализмга ружу кўйган давлат мураккаб ҳолатта тушиб қолиши тайин. Жаҳон миқёсида “миллий, цивилизацион томирларга қайтиш”га дაъват, давлатта миллий қиёфа берисга бўлган эҳтиёж ва зарурат бугунги босқич учун жиддий масала сифатида ижтимоий-сиёсий кун тартибига кўйилётгани, унга стратегик устуворлик деб қараш тобора кучайиб бораётгандиги бежиз эмас. Давлатта инструментал ёндашув, уни ҳаддан зиёд моддийлаштириш, унда яшириниб ётган буюк руҳий қувват, эҳтиёж ва инсонийликка нисбатан иккинчи даражали деб қараш, аслида у кўпроқ дунёқараш натижаси ва инъкоси эканлигини унтиш инсониятни кийин ахволга тушириб кўйди.

Бергран Рассел таъбири билан айтганда “Сиз биродарингизнинг танаси – жисмини кўришингиз мумкин, аммо унинг руҳини эмас. Демакки, тана ва руҳ икки бир-биридан фарқли нарсалардир” [14]. Агар шу сюжетни давлатнинг миллий асослари, хусусан, мамлакатимизда бу борада амалга оширилаётган бунёдкор ишлар билан боғлайдиган бўлсақ, давлат бу тана бўлса, у ҳолда миллий асослар давлатнинг руҳий-маънавий, мафкуравий таянчи эканлиги ойдинлашиди. Зотан, давлат миллий асосларсиз, маданий қадриятларисиз, руҳиятисиз оддий бир жисмдан бошқа нарса эмас. Давлат моҳиятан ўз масъулияти даражасига кўтарилиши мумкин, мумкин эмаслигини билиш учун илмий жамоатчилик “унга маданий-ахлоқий параметрларни киритиш, шундан чиқиб унинг салоҳиятига баҳо бериш ва уни муносабатлар гармонияси деб хисоблашни маъкулламоқда” [15].

Хулоса ва тақлифлар (Conclusion/Recommendations). Хулоса килиб айтганда, давлат самарали бирлаштирувчи нуфуз касб этиши учун, энг аввало бунёдкор миллий асосга таяниши зарур. Миллий таянч ташқаридан сунъий киритилган расмиятчилик, қандайdir назария ёки концепцияларга мослашиш мумкин, эмаслигини билиш учун илмий жамоатчилик “унга маданий-ахлоқий параметрларни киритиш, шундан чиқиб унинг салоҳиятига баҳо бериш ва уни муносабатлар гармонияси деб хисоблашни маъкулламоқда” [15].

қадар мавжудликдаги имманент хусусиятдир. Миллий асос фаол экан – давлат ҳам худди шундай, улар бири-бирини ўзаро тўлдиради, бойитади, давлат фақат шу асосда айнанлик касб этади.

АДАБИЁТЛАР

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари // Ватан саждаоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 7.
2. Де-Шарден П.Т. Феномен человека. – М., 1997. – С. 136.
3. Кутовой Д.А. Сущность государства информационного права: дихотомия властных отношений // История государства и права. – 2018. – №4. – С. 78.
4. Хайдеггер М. Основные теории метафизики // Вопросы философии. – 1989. – №9. – С. 117.
5. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари // Ватан саждаоҳ каби муқаддасдир. – Б. 7.
6. Каримов И.А. Юксак малакали мутахассислар – тараккиёт омили // Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 47.
7. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 78.
8. Федотова Г.П. О национальном покаянии // Федотов Г.П. Судьба и грехи России. В 2-х т. – Санкт Петербург, 1991. – С. 43.
9. Стёпин В.С. Философская антропология и философия культуры. – М., 2015. – С. 451.
10. Кант И. Идея всеобщей истории в плане всемирного гражданского общества. Т. 6. – М., 1966. – С. 19-20.
11. Фихте И.Г. Основные черты современной эпохи. – СПб., 1886. – С. 13.
12. Мизиёев Ш. Тақијидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 233.
13. Мирзиёев Ш. Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 29.
14. Рассел Б. Человеческое познание. – М. «Наука», 1957. – С. 262.
15. Грачинов Е. Становление национальной школы теории МО // Международные процессы. Т. 4. – 2016. – №2. – С. 66.



Malika ULMASBAEVA,
Ўзбекистон халқаро ислом академиси ўқитувчisi
Email: malika.zhd@gmail.com

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, Ўзбек тили кафедраси доценти ф.н. Х.Б.Қодирова тақризи асосида

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENT TOLERANCE IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract

The process of developing student tolerance in the educational process of higher education institutions and the personal experience of teaching the foreign languages of the International Islamic Academy of Uzbekistan have made us realize that we need to identify pedagogical conditions to increase the effectiveness of the educational process. This article discusses what pedagogical conditions are important for the development of tolerance in students and publishes conclusions.

Key words: tolerance, pedagogical conditions, intercultural communication, cognitive and professional communicative competencies.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗВИТИЯ, УЧАЩИХСЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

Процесс формирования студенческой толерантности в учебном процессе высших учебных заведений и личный опыт преподавания иностранных языков в Международной исламской академии Узбекистана заставили нас осознать необходимость определения педагогических условий для повышения эффективности учебного процесса. В статье рассматриваются, какие педагогические условия важны для развития толерантности у студентов, и публикуются выводы.

Ключевые слова: толерантность, педагогические условия, межкультурное общение, когнитивные и профессиональные коммуникативные компетенции.

ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ТОЛЕРАНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТЛАРИ

Аннотация

Олий таълим муассалари ўкув жараённида талабаларнинг толерантлигини ривожлантириш жараёни ва Ўзбекистон Халқаро ислом академияси чет тилларини ўқитишнинг шахсий тажрибаси бизни ўкув жараёни самарадорлигини ошириш учун педагогик шартларни аниқлаб олишимиз кераклигини англаб етишга унади, буларнинг барчаси якуний мақсадимиз - олий таълим муассалари талабаларнинг толерантлигини ривожлантиришимизга имкон беради. Ушбу мақолада талабаларда толерантликни ривожлантириш учун қандай педагогик шарт-шароитлар мухимлиги кўриб чиқилади ва хуносалар эълон килинади.

Калит сўзлар: толерантлик, педагогик шартлар, маданиятлараро муроҷот, когнитив ва касбий коммуникатив компетенциялари.

Кириш. Олий таълим муассалари ўкув жараённида талабаларнинг толерантлигини ривожлантириш жараёни ва Ўзбекистон Халқаро ислом академияси чет тилларини ўқитишнинг шахсий тажрибаси бизни ўкув жараёни самарадорлигини ошириш учун педагогик шартларни аниқлаб олишимиз кераклигини англаб етишга унади, буларнинг барчаси якуний мақсадимиз - олий таълим муассалари талабаларнинг толерантлигини ривожлантиришимизга имкон беради. Қисқа фалсафий лугатга кўра (А.П.Алексеев), шарт - "бу атроф-муҳит, ҳодисалар ва жараёнлар пайдо бўладиган, мавжуд бўлган ва ривожланадиган вазият"дир. "Вазият"ни педагогик категория сифатида талқин қилган холда В.И.Андреев унинг асл маъноси "Мақсадли дизайн, мазмун элементларини танлаш ва қўллаш, ўқитиш ва тарбиялаш усуслари, шунингдек дидактик мақсадларга эришиш учун машғулотларнинг ташкилий шакллари" ни англатишини айтиб ўтади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.

Б.С.Гершунскийнинг сўзларига кўра, ўкув жараёнини лойиҳалашда, педагогик жараённинг мақсадларини тузиш ва конкретлаштириш, илмий билимлар тизимини таълим мазмунига (ўкув ва дастурий хужжат шаклида) ва ўкув материалига (хар хил турдаги ва даражадаги ўкув матнлари шаклида) айлантириш, шунингдек, таълимдаги узлуксизликни фанлараро ва мавзу ичидағи алоқаларни таҳлил килиш керак. Н.В.Шумилонинг таъкидлашича, таълим мазмунининг таърифи, ўкув фаолиятини ташкил этишининг асосий шакллари, педагогик технологиялар ва ўкув жараёнини техник жиҳатдан таъминлаш моддий ва процессал шароитлар ёки услубий-инструментал мажмua хисобланади. А.С.Белкин педагогик жараённи мониторингини ташкил этиш, шу жумладан ўкув жараёни самарадорлигини баҳолаш мезонларини танлаш, шунингдек, ўкув жараёнидаги ижобий ва салбий тенденцияларни аниқлашни ташкил этиш назорат ва тартибга солиш шартларининг асосидир деб билади.

В.В.Кондратиев таъкидлашича, таълим жараёнини лойиҳалашда "ўкув мақсадларини белгилаш, машғулотларнинг мазмунини аниқлаш, мотивация усулларини танлаш, ўқитиш усуллари ва воситаларини танлаш, шунингдек фаолият натижаси" киради.

Рус олимлар университетнинг ўкув жараёнинда талабалар толерантлигини ривожлантиришининг турли шартларини белгилайдилар. Ю.И.Грачева "таълим жараёнини демократлашириш, шунингдек, ўз-ўзини ривожлантириш ва ўқитувчининг толерантлиги учун шарт бўлган субъектив ёндашувни амалга ошириши" таъкидлайди. Л.Р.Слобожанкинага кўра, чет тилларини ўқитиш жараёнинда талабаларнинг толерантлигини ривожлантиришнинг педагогик шартларига бизнеснинг чет тилидан "маданий жиҳатдан белгиланган ўзаро тасирис услублари тўғрисида билим манбай" сифатида фойдаланиш киради, коммуникатив, реал ҳаётий характерга эга бўлган ва "хиссий ва баҳоловчи фонга" эга бўлган тегишли вазиятлардан фойдаланиш, "Интернет ресурсларидан фойдаланиш асосида талабалар ва бошقا маданият вакиллари ўртасидаги толерантлик мулоқот тажрибасини бойитиш"dir.

Тадқиқот методологияси. О.В.Желнович "толерантлик персонификациясини амалга ошириши - ўқувчиларнинг қадр-қимматини баҳолаш билан ўзини ўзи белгилайдиган вазиятларни яратиш", "чет тили маданияти ва она маданияти ўргасидаги мулоқот", шунингдек "ўқитишнинг фаол усулларидан ўзгарувчан фойдаланиш" каби педагогик шарт-шароитларни алоҳида таъкидлайди.

Б.С.Гершунский, Н.В.Шумило, А.С. Белкин фояларини, шунингдек, хорижий тилларни ўқитиш жараёнинда ва чет тилларини ўқитиш назариясида толерантликни ривожлантиришнинг назарий ва услубий асосларига бағишлиган маҳаллий ва хорижий адабиётларни таҳлил килгандан сўнг биз шундай хуносага келдик: толерантликни ривожлантириш жараёни самарадорлигини кафолатлайдиган зарур шартлар куидагилардир:

- интеграцион мақсадга эришиш учун ўкув жараёнининг мақсадларини аниқлашириш - амалга ошириши муайян муаммоларни ҳал қилиш орқали юзага келадиган олий таълим талабаларининг толерантлигини ривожлантириш;
- ўкув жараёнини ташкил этиши асосида ётадиган асосий ёндашувлар ва тамоилларни аниқлаш;

- ўкув таркибини танлаш ва тузиш;
- таълимнинг дифференциацияси ва инсонпарварлашувига, ўқувчиларнинг билим фаоллигини оширишга, мантикий ва танқидий фикрлар, ақл-идрок, тасаввур, хотира, хис-туйғулар, мулоқот қобилиятларини ривожлантиришга, ўкувчи шахсининг потенциал имкониятларини рўёбга чиқаришга ёрдам берадиган таълим технологияридан, ўқитиш ва тарбиялаш усулларидан, ўқитиш воситалари ва шаклларидан мақбул фойдаланиш;

- толерантликнинг микдорий ва сифат динамикасини аниқлаш, шунингдек ўқитувчининг ўзини такомиллашириш учун мезон аппарати ва диагностика воситаларини яратиш.

Таҳлил ва натижалар. Талабаларда толерантликни ривожлантириш жараёнини лойиҳалаштириш педагогик жараённинг мақсадини хисобга олишдан бошланади. Битирувчиларни тайёрлаш учун замонавий ижтимоий буюртмани хисобга олмаган ҳолда таълим натижасини шакллантириш мумкин эмас. А.А.Кирсановнинг сўзларига кўра, "замонавий таълимнинг янги парадигмаси маданиятли инсон моделини амалга оширишга қаратилган бўлиб, у ривожланиш ва касбий ривожланиш учун зарур бўлган

билим ва кўникмаларни конкретлаштирган, шунингдек маданиятли инсон ўрганиши керак бўлган қадриятлар ва етакчи хулқ-атвор меъёрларирид". Унинг кўшимча қилишича, "олий таълим битирувчисининг интеграл сифатлари қаторига илм-фан, технология, ишлаб чиқариш ривожланиш тенденциялари ва асосий йўналишларини англаш, илм-фаннынг турли соҳаларидан ўялар яратиш қобилияти, илмий билимларни синтез қилиш ва улардан фойдаланиш қобилияти, касбий ҳаракатчанлик, коллектив тажрибани қадрлаш, ишдаги ҳамкасларининг фикрларини тинглаш, эришилган натижаларни танқидий баҳолаш қобилияти; доимий шахсий ва касбий такомиллашириш ва ўсишга интилиш, одамлар билан ишлашда ташкилий кўникмалар киради".

Чет тилларни ўқитиш жараёнинда талабаларнинг толерантлигини ривожлантириш учун педагогик шарт-шароитларни ишлаб чиқиши, биз тадқиқотнинг биринчи босқичида Давлат Таълим Стандартларини таҳлил қилдик, шунингдек иккичи босқичда Олий Таълимнинг Давлат Таълим Стандартлари умумий маданий, касбий, умумий касбий компетенциялар нуқтаи назаридан асосий таълим дастурини ўзлашириш натижаларига талабларни ўз ичига олган ва толерантликни ривожлантиришни назарда тутадиган ушбу ваколатлар аниқлаган.

5120600 "Диншунослик" мутахассислиги бўйича ўқитиш соҳасидаги битирувчининг умумий маданий ваколатлари, Давлат таълим стандартига мувофиқ, ҳамкаслар билан ҳамкорлик қилиш ва жамоада ишлаш истаги "ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларида ижтимоий ўзаро муносабатларга, ҳамкорлик ва толерантликка"; "музокаралар олиб бориш, алокаларни ўрнатиш, низоларни ҳал қилиш" қобилияти, "ташаббус кўрсатиш, ташкилий ва бошқарув ечимларини топиш ва улар учун жавобгар бўлиш", "уларнинг шахсий фазилатларини танқидий баҳолаш, йўлларини белгилаш ва афзаликларни ривожлантириш ва камчиликларни бартараф этиш воситаларини танлаш", "ижтимоий, маданий, этник, диний қадриятлар ва фарқларнинг хилмалилигини, замонавий маданият шаклларини, маданий алоқа воситалари ва усулларини тушуниш", "янги иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, маданий вазиятларга, ижтимоий ва касбий фаолият таркибидаги ўзгаришларга мослашиш", "хорижий тилларидан бирида касбий фаолиятига оид хужжатлар ва ишлар моҳиятини тушуниш, гуманитар фанлар бўйича касбий фаолияти доирасида зарурий билимларга эга бўлиши ҳамда улардан замонавий илмий асосда касб фаолиятида фойдалана билиш, чет эл тажрибасини ўрганиш учун, шунингдек бошланғич даражадаги алокаларни ўрнатиш учун етарли даражада билиш" "ижтимоий ва маданий фарқларни толерантлик билан қабул қилиб, жамоада ишлаш қобилияти" каби умумий маданий компетенсияни ўз ичига олади.

Шундай қилиб, маданиятлараро (шу жумладан, лингвистик), таълим ва когнитив ва касбий коммуникатив компетенсияларни эгаллашни назарда тутадиган чет тилининг амалий машғулотларида профессионал йўналтирилган чет тилининг коммуникатив компетенсиясини шакллантириш алоҳида вазифаларни (лингвистик ва лингвокултурал билимларни шакллантириш, ҳамдардлик ва рефлексни ривожлантириш) ўз ичига олади ва тажовузни камайтириш.

Таклиф ва хуносалар. Чет тилини ўқитиш жараёнинда толерантликни ривожлантириш таркибини пухта танлашга, ўқитишнинг аниқ ўйланган ёндашувлари ва тамоилларига асосланган бўлиши керак.

Таълим жараёнининг мазмунли томони минтақавий, тарихий ва маданий характердаги ўкув

материалини мақсадли танлашни назарда тутади, бу табиатда рефлексив бўлиб, ўкувчида ҳиссиётларни ўйғотади, инглиз тилини ўрганиш ва чет тили маданиятини ўрганиш учун ички мотивацияни оширади.

Чет тилларни ўқитиш жараёнида олий таълим талабаларининг толерантлигини ривожлантириш коммуникатив-компетенсия, шахсга йўналтирилган, фаолиятга асосланган, муаммоли ва маданиятларо ёндашувларга асосланган бўлиши керак, деб ҳисоблаймиз.

АДАБИЁТЛАР

1. Алексеев А.П. Краткий философский словарь / А.П.Алексеев, Г.Г.Васильев [и др.] под ред. А.П.Алексеева. –М.: РГ-Пресс, 2017. -496с.
2. Андреев В.И. Педагогика. Учебный курс для творческого саморазвития / В.И.Андреев. –Казань. Центр инновационных технологий, 2012. -608с.
3. Aripova, K. Y. (2020). Methods Of Teaching A Foreign Language As An Independent Theoretical And Applied Science. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(11), 317-322.
4. Asrorov, I. F. (2020). THE CONTENT OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(11), 322-326
5. Avilova KH, Gulyamova M, Akbarova SH. Creating Authentic Reading Materials for EFL Learners In Uzbekistan //PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(1): 2730-2742. p:2731.
6. Barno, S. (2019). BEST APPROACHES TO THE ASSESSING LEARNERS'WRITING. Сўз санъати халқаро журнали, 1(6).
7. Khasanova, D. (2020). IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE ACTIVITIES IN CONDUCTING ENGLISH CLASSES BASED ON ISLAMIC TOPICS. In ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 137-141).
8. Khasanova, D. (2020). Importance of communicative activities in conducting english classes based on islamic topics. in педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 137-141).
9. Moss B. Teaching Tolerance: Resources for Students and Teachers / B.Moss // Voices from the Middle. -2013. -20,3. – P.52-56.
10. Ulmasbaeva, M. (2021). DEVELOPING TOLERANCE THROUGH TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka, 1(1).
11. Qizi, Eshboeva Durdona Alisher. "WAYS AND METHODS OF TEACHING ENGLISH IN KINDERGARTEN." Наука и образование сегодня 2 (61) (2021): 86-88.
12. Шумило Н.В. Педагогические условия формирования актерских способностей младших школьников в образовательном пространстве школьного театра кукол: автореф.дисс.канд.пед.наук: 13.00.01 / Шумило Наталья Викторовна. –Чита, 2012. -24с.



УДК: 371.126

Aksam USMONOV,

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonini tashkil etish bo'limi boshlig'i*

TVChDPI Jismoniy tarbiya va sport kafedrasini mudiri, dotsent A.Abdulaxatov taqrizi asosida

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlaridan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"ni joriy etishda tarbiyalanganlikni baholash indikatorlari sifatida foydalanilgan. Natijada bo'lajak pedagoglarni talabalarda Vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishga tayyorgarligini tashxis etish imkoniyati oshgan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan vatnparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan interfaol shakl, metod va vositalaridan "Tarbiya fanimi o'qitish texnologiyasi" qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur takliflar bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga imkon yaratgan.

Tayanch so'zlar: Vatanparvarlik ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, sport va vatanparvarlik, pedagogika, bo'lajak o'qituvchilar, tarbiyaviy faoliyat, ta'lim, tarbiya, kompetensiya, modernizatsiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Annotatsiya

Данная статья была использована в качестве показателя оценки воспитанности при введении "концепции непрерывного духовного образования" из критериев и показателей развития гражданско-патриотической компетентности будущих педагогов. В результате возросла возможность диагностики готовности будущих педагогов к формированию у студентов компенсации лояльности к Родине. Разработанные в рамках исследования интерактивные формы, методы и средства, основанные на компетентностном подходе развития чувства патриотизма, были использованы при разработке учебно-методического пособия "педагогическая наука и технология обучения". Эти предложения позволили подготовить будущих учителей к воспитательной деятельности, развить в них активную гражданскую позицию.

Ключевые слова: Патриотическое сознание, патриотическое мировоззрение, нравственно-нравственный, гражданско-патриотический, военно-патриотический, спортивно-патриотический, педагогика, будущие учителя, воспитательная деятельность, образование, воспитание, компетентность, модернизация.

THEORETICAL BASES OF DEVELOPING A SENSE OF PATRIOTISM IN FUTURE TEACHERS BASED ON THE COMPETENCE APPROACH

Annotatsiya

This article was used as an indicator of the assessment of upbringing when introducing the "concept of continuous spiritual education" from the criteria and indicators of the development of civil and Patriotic competence of future teachers. As a result, the ability to diagnose the readiness of future teachers to form students' loyalty to the Motherland has increased. The interactive forms, methods and tools developed in the framework of the study, based on the competence-based approach of developing a sense of patriotism, were used in the development of the educational manual "pedagogical science and technology of education". These proposals made it possible to prepare future teachers for educational activities, to develop an active civil position in them. **Key words:** Patriotic consciousness, Patriotic Outlook, moral, civil-Patriotic, military-Patriotic, sports-Patriotic, pedagogy, future teachers, educational activities, education, upbringing, competence, modernization.

Kirish. Zamonitoriy sharoidta kompetensiyaviy ilmiy yondashuv kasbiy-pedagogik ta'lanning zamonitoriy talablariga javob beruvchi innovatsion tavsiifa ega bo'lib, yangi avlod fuqarolarini shakllantirishda tarbiyaning rolini oshirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvnun amalga oshirishning mohiyati ta'limi modernizatsiyalashda (ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligi), uning sifat jihatidan o'zgarishi, tarbiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida yangi insonparvar qadriyatlardan tizimini yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Olyi ta'lim tizimida tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning yangiligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi: kasbiy tarbiyaning o'ziga xosligi; tarbiya nazariyasi va amaliyotida stereotiplardan voz kechish; olyi

ta'larning o'quv, auditoriyadan tashqari, ijtimoiy faoliyatini tizimli tarbiyaning xilma-xil ob'ekt va sub'ektlarini yaratish; tarbiyaning an'anaviy shakllari va innovatsion loyihibaviy texnologiyalarini uyg'unlashtirish; media vositalar va texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish; natijaviylik ko'rsatkichlari (kompetensiyalar) majmuuni ishlab chiqish va ularni har bir ta'lim oluvchining amaliy faoliyatiga tatbiq etish.

Tadqiqitning maqsadi. Vatanparvarlikning umuminsoniyligi va uning ijtimoiy vazifalari uning ko'p darajaliligidan kelib chiqadi. Shaxsiy darajadagi vatanparvarlik – Vatanga muhabbat, Vatanga sadoqat, uning manfaatlariga xizmat qilish, hatto fidokorlikka, uni himoya qilishga intilishdir. Vatanparvarlik insonning dunyoqarashi,

axloqiy ideallari, xulq-atvor normalarida ifodalangan eng muhim, barqaror xususiyati vazifasini bajaradi. So'l darajada vatanparvarlik jamoatchilik ongingin muhim qismi bo'lib, jamoaviy kayfiyatlarda, his-tuyg'ularda, ularning o'z xalqiga, turmush tarziga, tarixiga, madaniyatiga, davlatiga bo'lgan munosabatiga baho berishda va fundamental qadriyatlar tizimida namoyon bo'ldi.

Tadqiqotning usuliyati va tashkil etilishi.

Vatanparvarlik integrativ va murakkab shaxsiy xususiyatlardan yig'indisi sifatida, quyidagi real vatanparvarlik komponentlarini o'z ichiga oladi: vatanparvarlik ongi; milliy o'zlik; vatanparvarlikka yo'naltirilgan dunyoqarash; vatanparvarlik bilimi; vatanparvarlik e'tiqodi; vatanparvarlik munosabati; vatanparvarlik qadriyat yo'nalishlari; vatanparvarlik pozitsiyalar; vatanparvarlik ideallari; shaxsnинг ijtimoiy-ijobiy (vatanparvarlik) xulq-atvori; ijtimoiy-ijobiy (vatanparvarlik) faoliyat va boshqalar. Bu ko'rinishlarning ayrimlarini xarakterlaylik.

Vatanparvarlik ongi – ongning ajralmas qismi, xususiyatlari:

a) rivojlanayotgan insonning ijtimoiy makoniga o'z hayoti (ontologik jihat) sohasida ta'sir ko'rsatadigan jamiyatda sodir bo'ladigan jarayonlar haqiqatlarini ongda aks yettirish);

b) milliy taraqqiyotning madaniy-tarixiy jarayoni natijalarini madaniy mahsulotlar haqidagi g'oyalar majmui (epistemologik jihat) vazifasini bajaruvchi ideallar, ma'naviy hodisalar, ramzlar shaklida bilish);

v) jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarga yo'nalganlik, shaxsnинг ma'naviy qiyofasida sinishi tanlab olinadi va ular hayotining ijtimoiy kontinuumida (aksiologik jihat) inson o'z-o'zini anglashni rivojlantirishga qaratilgan. Vatanparvarlik ongi-bu o'z genetik ildizlari, atrofdagi ijtimoiy voqeqliki, uning rivojlanish tendensiyalarini va istiqbollarini tushunish, ijodiy faoliyat va himoya qilish uchun tayyorgarlik ko'rish haqidagi bilimlar majmuuni birlashtiradigan murakkab integral ta'limdi. Vatan o'z hayotining istiqbollari nuqtai nazaridan hayot faoliyatining ustuvor sababi sifatida;

Vatanparvarlik dunyoqarashi – dunyo va undagi insonning o'rni, atrofdagilarning dunyoga va o'ziga bo'lgan munosabatiga oid vatanparvarlik qarashlari (e'tiqodi, ideallari, bilim va faoliyat tamoyillari) tizimi.

Tadqiqotning natijalari. Vatanparvarlik integrativ

shaxsiy tarbiya sifatida bilvosita, ta'limning boshqa (vatanparvarlikdan tashqari) turlari bilan shakllangan boshqa sifatlar bilan integrativ bog'lanishlar orqali shaxsnинг yaxlit ifodalangan umumiylar tarbiyasini tavsiflaydi shaxsnинг dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqiy ideallari, xulq normalari. Yuqorida aytib o'tilganidek, u insonning Vatanga va Ona yurtga bo'lgan qadriyat munosabatini ifodalovchi va uni vatanparvarlik faoliyatiga da'vat yetuvchi ijtimoiy-axloqiy imperativ vazifasini bajaradi. Haqiqiy vatanparvarlik komponenti bilan birga bilvosita shakldagi vatanparvarlik boshqa tarkibiy qismlar bilan tavsiflanadi:

ma'naviy-axloqiy (ma'naviy va vatanparvarlik) komponent: yuqori ma'naviyat yuksak ma'naviy, axloqiy va aqliy yehtiyojlarining past kishilar ustidan hukmronligidan iborat qalb mulki sifatida va kundalik; axloqiy sifat sifatida qonunga bo'yusunish; qattiq ish; ma'naviy o'z-o'zini rivojlantirish uchun doimiy ehtiyoj va boshqalar.;

fujarolik-vatanparvarlik: fujarolik o'sib borayotgan shaxsnинг qonuniy his qilishiga imkon beruvchi integrativ sifat sifatida, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan qobiliyatli, jamiyatni boshqarishda, muayyan ijtimoiy qimmatli ishlarda, davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida, madaniyatni saqlash va rivojlantirishda, qonun va tartibni saqlash, mamlakatning mudofaa qobiliyatini, mamlakat manfaatlari uchun mustaqil tashabbuskor harakatlarga tayyor bo'lish vakolati va qiziqishini nazarda

tutadi; demokratik o'z-o'zini boshqarish, mehnatga faol munosabat, siyosiy, axloqiy va huquqiy qarorlar va boshqalar.; harbiy-vatanparvarlik: mamlakatimiz harbiy tarixi va zamonaviy Qurolli kuchlariga mas'uliyatlari va ijobjiy munosabat; mamlakat mudofaa qobiliyatini va milliy xavfsizlikni mustahkamlash uchun ijtimoiy mas'uliyat; Qurolli kuchlarning qahramonlik an'analariga sodiqlik hissi, ularni davom ettirish istagi va boshqalar;

sport va vatanparvarlik: jismoniy madaniyat, kuch, qobiliyat, chidamlilik, g'alabaga erishish uchun iroda; sog'lom turmush tarzi turmush tarzi va inson salomatligi o'rtasidagi munosabatlarning jamlangan ifodasi sifatida sog'liq va rivojlanish uchun optimal sharoitlarda professional, ijtimoiy va maishiy funksiyalarni bajarishga hissa qo'shadigan barcha narsalarni birlashtiradi; bolalar va yoshlarda salbiy va zararli odatlarning yo'qligi.

Dissertatsiyaning "Bo'lajak pedagoglarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik tizimi" deb nomlangan ikkinchi bobida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish mazmuni, modeli va pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Vatanparvarlik shaxsiy fazilatlar tizimi sifatida uch asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

1. Hissiy-emotsional:

Vatanga muhabbat;

xalqning kuch va imkoniyatlari ishonish;

milliy g'urur;

tarixiy jihatdan Vatanning buyukligi va o'rni haqida tushuncha;

Vatanni himoya qilishga tayyorlik;

davlat va xalq manfaatlari haqida qayg'uriy;

etnik yoki ijtimoiy guruhga mansublik.

2. Ma'naviy va qadriyatlarga asoslangan, shu jumladan shaxsiy qadriyatlar tizimlarining quyidagi ko'rsatkichlari:

Vatan manfaati uchun jonini fido qilish;

Vatan manfaatlari shaxsiy ehtiyojlaridan ustun qo'yish qobiliyati;

xalqning ma'naviy-axloqiy merosiga chuqur hurmat;

aksiologik yo'nalganlik tizimida milliy qadriyatlarning ustuvorlik kasb etishi;

milliy va konfessiyaviy ma'naviy qadriyatlar tizimiga sodiqlik.

3. Amaliy-faoliyat, shu jumladan shaxsnинг amaliy harakatlari, uning vatanparvarlik ongini aks etishi:

hayot xavfi ostida Vatan manfaatlari chinakam himoya qilishga tayyorlik;

saylov, so'rov, referendumlar jarayonida vatanparvarlik pozitsiyasining aniq ifodasi;

jamiyat, ijtimoiy guruh va shaxsnинг qadriyat yo'nalishlari ro'yxatida milliy darajadagi qadriyatlarning ustunligi;

amaliy harakatlarning e'lon qilingan qadriyatlar va his-tuyg'ularga muvofigligi;

muayyan etnik guruh va milliy birdamlilikning yuqori darajasiga ega bo'lgan shaxsni o'z-o'zini aniqlash;

milliy va davlat manfaatlariidan xabardorlik va ularning jamiyatdagi omamaviy ijtimoiy harakatlarga mosligi.

Xulosa. Vatanparvarlik tarbiyasi o'z navbatida integrativ asoslangan vatanparvarlik tuzilmasi, yana maqsad qo'yish, mazmun va olingan natijalar darajalarida integratsiyalashgan shaklda ta'limning boshqa ko'pgina turlari elementlarini o'z ichiga oladi: ma'naviy-axloqiy, fujarolik, huquqiy, ekologik, jismoniy va boshqalar. Bu umuminsoniylik tavsiqga egalik o'z navbatida vatanparvarlik tarbiyasini ma'naviy-vatanparvarlik, fujarolik-vatanparvarlik, tarixiy-o'lkashunoslik ta'limiga, harbiy-vatanparvarlik, qahramonlik-

vatanparvarlik, sport-vatanparvarlik kabi yo'nalishlarga ajratish orqali ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Ma'naviy-axloqiy (ma'naviy va vatanparvarlik) tarbiya yosh avlod tomonidan eng yuqori qadriyatlar, ideallar va ko'rsatmalar, ijtimoiy ahamiyatga ega jarayonlar va real hayotning hodisalarini haqida xabardorlik, ular tomonidan amalda va xatti-harakatlarda prinsiplar, pozitsiyalarini belgilashga qaratilgan. Eng oliv asosiy qadriyatlarga Vatanga fidokorona muhabbat va sadoqat, buyuk millatga daxldorlik tuyg'usi, uning yutuqlari, sinov va muammolari, milliy qadamjolar va ramzlarga ehtirom, jamiyat va davlatga munosib va fidokorona xizmat qilishga tayyorlik kiradi. Ma'naviy-vatanparvarlik tarbiyasi Vatanga muhabbat, vatanparvarlik ongi, ilmiy dunyoqarashi, ijtimoiy ahamiyatga molik g'oyaviy-axloqiy qarashlari, e'tiqod va e'tiqodlarini shakllantirish va rivojlantirishga, ularning hayoti o'z-o'zini belgilashga qaratilgan.

Ma'naviy-axloqiy rivojlanishning asosiy yo'llari (ma'naviy va vatanparvarlik) bolalar va yoshlar tarbiyasi:

ta'limgartarbiya jarayonining salohiyatidan foydalanib, bolalar va yoshlarga jamiyatning ma'naviy, axloqiy va vatanparvarlik ko'rinishiga bo'lgan talablarini;

talaba va talabalarning vatanparvarlik bilimlarini egallash uchun o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatlari tashkil etish;

axloqiy o'z-o'zini takomillashtirish, yosh avlodning ijobiylar axloqiy va vatanparvarlik idealiga bo'lgan intilishlarini rag'batlantrish;

bolalar va yoshlarning Vatan taqdiri, uning o'tmishi, buguni va kelajagiga axloqiy qadriyat sifatida jalb etilishi haqida xabardorlikka eerishish; bolalar va yoshlarning ijtimoiy-axloqiy jihatdan ahamiyatli faoliyatini maqsadli tashkil etish, bu jarayonda axloqiy tamoyillar va normalarning shaxsiy mazmuni shakllanadi, amalga oshadi;

ta'limgartor natijalari uchun axloqiy histuyg'ular va mas'uliyatni rag'batlantruvchi ta'limgartor usullari, shakllari va axloqiy me'yordan foydalanish;

mehnatga ijobiylar munosabati shakllantirish, atrofdagi ijtimoiy va tabiiy muhitga hurmat va g'amxo'rlik;

san'at buyumlariga, xalqning tarixiy qadriyatlariga estetik munosabat uyg'otish; bolalar va yoshlarni tabiat muhofazasi uchun amaliy faoliyatga jalb etish va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhidida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2001. – 136 b.
2. Балагланов А.Р. Патриотическое воспитание младших школьников средствами изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.
3. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук....автореф. – Алматы: 2004. – 23 с.
4. Галиахметов И.Р. Патриотическое воспитания школьников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.
5. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами турстко-краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.
6. Ильин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.
7. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – Toshkent, O'zbekiston, 1996. – 139 b.
8. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма социальной системы // Социально-гуманитарные знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.
9. Калдыбекова А.С. Интернатиональное воспитание учащихся в старших классах казахской школе в процессе изучения родной литературы (На материале казахских школ Республики Узбекистан): Дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.
10. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности – основа целостного учебно-воспитательного процесса. – М., 1993. – 80 с.
11. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в процессе преподавания литературы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.
12. Кирьякова А.В. Теория ориентаций личности в мире ценностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.
13. Клименко И.М. Формирование патриотизма в процессе обучения истории и внеучебной работы: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Екатеринбург, 1999. – 22 с.
14. Кривых С.В. Педагогические основы патриотического воспитания младших школьников. – Новокузнецк: Изд. ИПК, 2002. – С.8; С.16.
15. Левина Н.А. Типологические особенности развития чувств патриотизма у младших школьников: Автореф. дис. ...канд.псих.наук. – Тамбов, 2004. – 22 с.
16. Матушкин С.Е, Ипполитова Н.В. Сущность и особенности патриотического воспитания в современных условиях. – Курган, 2001. - №1(7). – С.6.
17. Новые ценности образования: Тезаурус для учителей и школьных психологов. / Под.ред. Н.Б.Крылова. – М., 1995. – 20 с.
18. Педагогические технологии: понятия, принципы и методы внедрения: Сборник материалов из Интернета. / Сост. С.Махкамова. – Ташкент, 2003. – с.65.
19. Педагогический энциклопедический словарь / Гл.ред. Б.М. Бм-Бад. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 528 с.
20. Рожков М.И. Организация воспитательного процесса в школе. – М.: Гуманит. Изд.центр ВЛАДОС, 2001. – 256 с.
21. Рындак В.Г. Методологические основы образования. – Оренбург, ОГАУ, 2000. – 192 с.
22. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.



UDK: 37.012.5(512.1)

Ulug'bek XONQULOV,

Farg'onan davlat universiteti dotsenti, (PhD).

E-mail: u_xonqulov@mail.ru

Olimxon AXMEDOV,

Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

Azizbek NISHONBOYEV,

Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent A.Yusupova taqrizi asosida

ABOUT METHODOLOGY OF SOLVING PARAMETRIC EQUATIONS

Annotation

This article presents parametric problems, in particular, parametric equations and their types, methods of solution. Parametric equations related to the science of mathematics were analyzed and on this basis the methods of classification, construction and solution of problems were improved. The classification of parametric equations solved using the symmetry of roots, the properties of numerical inequalities or by evaluating, defining, moving to a new variable, looking at a parameter or a repetitive expression as a function and using the properties of the function. synchronously defined.

Key words: non-standard thinking, parameter, parametric equation, postulate and theorem, methods of scientific research and inference.

О МЕТОДИКИ РЕШЕНИЯ ПАРАМЕТРИЧЕСКИХ УРАВНЕНИЙ

Аннотация

В статье рассматриваются параметрические задачи, в частности, параметрические уравнения и их виды, методы решения. Были проанализированы параметрические уравнения, относящиеся к математике, и на этой основе усовершенствованы методы классификации, построения и решения задач. Классификация параметрических уравнений, решаемых с использованием симметрии корней, свойств числовых неравенств или путем оценки, определения, перехода к новой переменной, рассмотрения параметра или повторяющегося выражения как функции и использования свойств функции.

Ключевые слова: нестандартное мышление, параметр, параметрическое уравнение, постулат и теорема, методы научного исследования и вывода.

PARAMETRIK TENGLAMALARINI YECHISH METODIKASI HAQIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada parametrik masalalar, xususan, parametrik tenglamalar va ularning turlari, yechish usullari keltirilgan. Matematika faniga oid parametrik tenglamalar tahlil qilingan va shu asosda masalalarni tasniflash, tuzish va yechish metodikasini takomillashtirilgan. Ildizlarning simmetrikligidan foydalanan yechiladigan, sonli tengsizlikning xossalari yoki baholash, belgilash orqali yangi o'zgaruvchiga o'tish orqali, parametriga nisbatan yoki takrorlanuvchi ifodalarga nisbatan funksiya sifatida qarash hamda funksiya xossalardan foydalinish orqali yechiladigan parametrali tenglamalar tasnifi mazmuniy va natijaviy birligi didaktik, mantiqiylik, innovatsion tamoyillarga muvofiq ravishda aniqlangan.

Kalit so'zlar: nostandard fiklash, parametr, parametrik tenglama, postulat va teorema, ilmiy izlanish va xulosa chiqarish metodlari.

Kirish. Parametrali algebraik masalalar maktab matematika kursida muhim ahamiyatga ega bo'lib, matematika o'quv dasturlari va o'quv mazmunida muayyan darajada uchraydi. Parametrali algebraik masalalar matematika kursining o'quvchilar tomonidan eng qiyin o'zlashtirishi mumkin bo'lgan tushunchalaridan biri sifatida qaraladi va ularni o'rganishda quyidagi muammolar mavjudligi kuzatilmogda.

-Umumiy o'rta ta'lif matematika kursini o'qitishda parametrali algebraik masalalarining mazmuni yetarli hajmda emas hamda masalalarni yechishning primitiv usullari taqdimgan etilmagan.

-Parametrali algebraik masalalarining tasnifi, tasniflangan har bir ko'rinishni yechish usullari va u bilan bog'liq tavsiyalar berilmagan.

-O'quvchilarni mantiqiy, abstrakt, nostandard fikrashga o'rgatishga yo'naltirilgan parametrali algebraik

masalalar yechish metodikasini joriy etish mexanizmi va metodik-funksional imkoniyatlari tizimlashtirilmagan.

Umumiy o'rta ta'lifda matematikani o'qitishda parametrali algebraik masalalaridan foydalanimi takomillashtirish bo'yicha davlat tilida o'quv va uslubiy qo'llanmalar, metodik ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb muammollardan biridir. Ayniqsa, parametrali algebraik masalalarini tasniflash, tahlil qilish va shular asosida ularni yechish bo'yicha tizimli qoidalar, tavsiyalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi davomli ko'p miqdorda parametrali algebraik masalalarini yechib borishi va ularni tahlil qilish orqali kerakli ma'lumotlarni abstraktsiyalashi, sintezlashi, so'ngra o'quvchilarga sodda tilda ularni taqdim etishi talab etiladi. Bundan tashqari o'qituvchi dars jarayonida masalalar mazmunida qatnashgan o'zgaruvchilar va parametrlar orasidagi farqni aniq ajratib berishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Parametr qadimgi yunon tilidan olingen bo'lib "παραμετρέω -o'Ichayman", "παρά"- bir qator, ikkilamchi, yordamchi, bo'ysunuvchi va "μέτρον- o'Ichov" ma'nosini anglatadi. Matematikada parametr ikki xil ma'noda ishlatalidi [1].

1) Miqdori berilgan masalada yoki berilgan sohada o'zgarmaydi, lekin universal o'zgarmas miqdor (konstanta)

emas. Masalan $y = p e^x$ funktsiyada x, y - o'zgauvchilar, p - universal o'zgarmas miqdor (konstanta), p - parametr [2].

2) Masala shartiga kiritilmagan, lekin uni yechish yoki aniqlik kiritish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'zgaruvchi. Parametr - bu erkli qiymat, uning qiymatlari ma'lum bir to'plam elementlarini bir -biridan ajratishga xizmat qiladi. Parametr berilgan hodisa yoki masala doirasida o'zgarmas bo'lgan, lekin boshqa hodisa yoki masalaga o'tishda uning qiymatini o'zgartirishi mumkin bo'lgan miqdordir. Ba'zan parametrларни boshqa miqdorlarga (o'zgaruvchilarga) nisbatan juda sekin o'zgaradigan miqdorlar deb ham atashadi [3]. Dasturlash sohasida esa funktsiya tomonidan qabul qilingan argument sifatida qaraladi. Texnika sohasida esa - texnik qurilma, tizim, hodisa yoki jarayonning ba'zi xususiyatlarini tafsiflovchi fizikaviy miqdor. Fan va texnikaning masalalari ko'p o'zgaruvchilar va parametrлarning funktsiyalari, shuningdek bu funktsiyalarining hosilalarini o'z ichiga olgan tenglamalardan iborat [4,5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Algebra kursida parametrli tenglama va tengsizliklar to'rtta turga bo'lib o'rGANILADI: 1) Parametrik tenglamalar 2) Parametrik tengsizliklar 3) Parametrik tenglamalar sistemasi 4) Parametrik tengsizliklar sistemasi.

Parametrik tenglamalar. Parametrik tenglamalarda parametrлар bitta va undan ortiq bo'lishi mumkin. Parametrлarning sonidan qat'iy nazar parametrik tenglamalarni

$$-b \cdot \operatorname{tg}(\cos 0) + 1 = 0 \Rightarrow -b \cdot \operatorname{tg}1 + 1 = 0 \Rightarrow b = c \cdot \operatorname{tg}1.$$

$$\text{Berilgan } b^2 x^2 - b \cdot \operatorname{tg}(\cos x) + 1 = 0 \Rightarrow b^2 x^2 + 1 = b \cdot \operatorname{tg}(\cos x) \text{ tenglamani } x = 0 \text{ dan boshqa}$$

yechimlari yo'qligini aniqlaymiz. Buning uchun bu nuqtaning chap va o'ng atrofida tenglamani baholaylik. Ma'lumki, $\forall x$ da $-1 \leq \operatorname{ctg}1 \cdot \operatorname{tg}(\cos x) \leq 1$ bo'lgani uchun $\operatorname{ctg}^2 b \cdot x^2 + 1 \geq 1$ o'rinli va tenglik belgisi faqat $x = 0$ da bajariladi.

Demak, tenglama yagona $x = 0$ yechimga ega.

Javob: $b = c \cdot \operatorname{tg}1$.

2-misol.	a	parametrning	$5 < a < 16$	oraliqdagi	qiymatlari
	$1 + \cos^2 \left(\frac{ax}{2} + \frac{3\pi}{8} \right)$	$= \left(\frac{1}{3} \right)^{\left \cos \pi x - \sin \pi x \right }$			
		tenglama $1 \leq x \leq 2$		oraliqda kamida bitta yechimga ega bo'ladigan	

a ning barcha qiymatlarini toping.

Yechish: Ma'lumki, $1 + \cos^2 \left(\frac{ax}{2} + \frac{3\pi}{8} \right) \geq 1$	$\left(\frac{1}{3} \right)^{\left \cos \pi x - \sin \pi x \right } \leq 1$	o'rinli. Bundan ko'rindaniki $\cos \left(\frac{ax}{2} + \frac{3\pi}{8} \right) = 0$
	va	va
	$\left(\frac{1}{3} \right)^{\left \cos \pi x - \sin \pi x \right } = 1$	
	o'rinli hamda bir paytda	

$\cos \pi x - \sin \pi x = 0$ bo'lishi lozim. Natijada tenglamalar sistemasi hosil bo'лади.

yechishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi:

a) Tenglamaning chap tomoni noma'lumlarga nisbatan funktsiya sifatida qaraladi hamda funktsiyaning juft yoki toqligi aniqlanadi. Agar funktsiya juft bo'lsa, tenglamaning ildizlari biror nuqtaga yoki 0 nuqtaga nisbatan simmetrik bo'lib, tenglama topilgan simmetrik nuqtada yoki 0 nuqtada yagona yechimga ega bo'лади.

b) Sonli tengsizlik xossalari yoki baholash orqali ham parametrli tenglamalarni yechish mumkin masalan, agar $f(ax) = g(ax)$, (a -parametr) tenglamada $f(ax) \geq c$ va $g(ax) \leq c$ o'rinli bo'lsa, u holda $f(ax) = c$ va $g(ax) = c$ bajariladi.

c) Belgilash orqali ya'ni, yangi o'zgaruvchiga o'tish orqali tenglama yechiladi va noma'lum parametr aniqlanadi.

d) Tenglama parametrga nisbatan yoki tenglamada qatnashgan takrorlanuvchi ifodalarga nisbatan funktsiya sifatida qaraladi hamda funktsiya xossalardan foydalanish orqali noma'lum parametr aniqlanadi.

Ildizlarning simmetrikligidan foydalanib yechiladigan parametrli tenglamalar.

$$b^2 x^2 - b \cdot \operatorname{tg}(\cos x) + 1 = 0$$

1-misol.

tenglama yagona yechimga ega bo'ladigan b parametrning barcha qiymatlarini toping.

Yechish: Faraz qilaylik x_0 nuqta tenglamaning ildizi bo'lsin. U holda $-x_0$ nuqta ham shu tenglamani ildizi bo'лади. Tenglama yagona yechimga ega bo'lishi uchun $x = 0$ shart bajarilishi kerak. Demak,

$$\begin{cases} \cos\left(\frac{ax}{2} + \frac{3\pi}{8}\right) = 0 \\ \cos \pi x - \sin \pi x = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \frac{ax}{2} + \frac{3\pi}{8} = \frac{\pi}{2} + \pi n, \quad n \in \mathbb{Z} \\ \pi x = \frac{\pi}{4} + \pi k, \quad k \in \mathbb{Z} \end{cases}$$

$$1 \leq x \leq 2 \text{ bo'lgani uchun} \quad \pi x = \frac{\pi}{4} + \pi k \quad 1 \leq \frac{1}{4} + k \leq 2 \quad \text{tenglamadan} \quad \text{va } k = 1 \text{ bo'lsa,} \quad x = \frac{5}{4}.$$

a parametrini *x* ning aniqlangan qiymati uchun topamiz:

$$\frac{ax}{2} + \frac{3\pi}{8} = \frac{\pi}{4} + \pi k \Rightarrow \frac{a}{2} \cdot \frac{5}{4} = \frac{\pi}{8} + \pi k \Rightarrow a = \frac{\pi}{5} + \frac{8\pi k}{5}.$$

$$5 < a < 16 \text{ bo'lgani uchun} \quad 5 < \frac{\pi}{5} + \frac{8\pi k}{5} < 16 \Rightarrow 25 < \pi(1 + 8n) < 80. \quad \text{Agar } n = 1; 2; 3$$

$$a = \frac{9\pi}{5}; \quad a = \frac{17\pi}{5}; \quad a = 5\pi.$$

bo'lsa,

$$a = \frac{9\pi}{5}; \quad a = \frac{17\pi}{5}; \quad a = 5\pi.$$

Javob:

Sonli tengsizlikning xossalari yoki baholash orqali yechiladigan parametrlı tenglamalar

3-misol. *P* parametrning qanday qiymatlarida

$$\sqrt{(x+3p-3\pi-4)(|x+\pi|+p-2\pi+2)} + \log_{\pi} \frac{\pi^2 + p^2 + 4}{(\pi^2 + p^2 + 4) - (|x+2| - (p-\pi))^2} = 0$$

tenglama kamida bitta butun yechimga ega bo'ladi?

Yechish: Berilgan tenglamada ikkita nomanifiy ifodalarning yig'indisi nolga teng bo'lishi uchun quyidagi munosabat o'rini bo'lishi lozim:

$$\begin{cases} x + 3p - 3\pi - 4 = 0 \\ |x+2| - (p-\pi) = 0 \\ x + \pi + p - 2\pi + 2 = 0 \\ |x+2| - (p-\pi) = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 3(p-\pi) = 4 - x \\ 3|x+2| = 4 - x \\ |x+2| - (p-\pi) = 0 \\ |x+\pi| + |x+2| = \pi - 2. \end{cases}$$

Bundan quyidagi sistemalar kelib chiqadi:

$$\begin{array}{ll} 1) \begin{cases} 3(x+2) = 4 - x \\ x+2 \geq 0 \end{cases} & 2) \begin{cases} -3(x+2) = 4 - x \\ x+2 < 0 \end{cases} \\ 3) \begin{cases} 3(p-\pi) = 4 - x \\ |x+2| - (p-\pi) = 0 \end{cases} & 3) \begin{cases} -\pi \leq x \leq 2 \\ |x+2| - (p-\pi) = 0 \end{cases} \end{array}$$

$$x \text{ butun son son bo'lgani uchun birinchi sistema yechimiga emas.}$$

$$\begin{cases} -3(x+2) = 4 - x \\ x+2 < 0 \end{cases} \quad \text{Ikkinci} \quad \begin{cases} 3(x+2) = 4 - x \\ 3(p-\pi) = 4 - x \end{cases} \quad \text{sistemada} \quad -3(x+2) = 4 - x \quad \text{tenglamaning yechimi } x = -5.$$

Bu yechim $x+2 < 0$ shartni qanoatlantiradi. U holda $3(p-\pi) = 4 - x$ dan $p = \pi + 3$ kelib chiqadi.

Uchinchini $\begin{cases} -\pi \leq x \leq 2 \\ |x + 2| - (p - \pi) = 0 \end{cases}$ sistemada $x = -2$ bo'lsa, $p = \pi$ yoki $x = -3$ bo'lsa, $p = \pi + 1$ kelib chiqadi.

Javob: $p = \pi$; $p = \pi + 1$; $p = \pi + 3$.

$$4\text{-misol. } (3x^2 - 2m^2 + mn)^2 + (3m^2 - mn + 2n^2 - 12x)^2 + 4 = 4x - x^2 \quad \text{tenglama 1 ta}$$

yechimiga ega bo'ladigan m va n haqiqiy sonlar juftligini toping.

Yechish: Berilgan tenglamaga quyidagi tenglama ekvivalent:

$$(3x^2 - 2m^2 + mn)^2 + (3m^2 - mn + 2n^2 - 12x)^2 + (x - 2)^2 = 0$$

Nomanfiy ifodalarning yig'indisi nolga teng bo'lgani uchun ularni har biri nolga teng:

$$\begin{cases} 3x^2 - 2m^2 + mn = 0 \\ 3m^2 - mn + 2n^2 - 12x = 0 \\ x - 2 = 0 \end{cases} \Rightarrow x = 2 \quad \begin{cases} 2m^2 - mn = 12 \\ \frac{2n^2 - mn + 3m^2}{2m^2 - mn} = 2 \end{cases}, \quad a = \frac{n}{m}$$

deb belgilash kiritamiz:

$$2a^2 - a + 3 = 2(2 - a), \quad 2a^2 + a - 1 = 0, \quad a = -1, \quad a = \frac{1}{2}. \quad \begin{cases} n = -m \\ 2m^2 - mn = 12 \end{cases} \quad \text{va}$$

$$\begin{cases} n = \frac{1}{2}m \\ 2m^2 - mn = 12 \end{cases} \quad \text{kelib chiqadi. Demak,} \quad \begin{cases} m = 2\sqrt{2} \\ n = \sqrt{2} \end{cases}, \quad \begin{cases} m = -2\sqrt{2} \\ n = -\sqrt{2} \end{cases}, \quad \begin{cases} m = -2 \\ n = 2 \end{cases}, \quad \begin{cases} m = 2 \\ n = -2 \end{cases}.$$

$$\begin{cases} m = 2\sqrt{2} \\ n = \sqrt{2} \end{cases}, \quad \begin{cases} m = -2\sqrt{2} \\ n = -\sqrt{2} \end{cases}, \quad \begin{cases} m = -2 \\ n = 2 \end{cases}, \quad \begin{cases} m = 2 \\ n = -2 \end{cases}.$$

Javob: Belgilash orqali yangi o'zgaruvchiga o'tish bilan yechiladigan parametrli tenglamalar

$$5\text{-misol. } a \text{ parametrning qanday qiymatlarida } \sin^2 3x - \left(a + \frac{1}{2}\right) \sin 3x + \frac{a}{2} = 0 \quad \text{tenglama}$$

$$\frac{2\pi}{3} \leq x \leq \pi$$

kesmada 3 ta ildizga ega bo'ladi.

Yechish: Tenglananining chap tomonini $\sin 3x$ ifodaga nisbatan kvadrat funksiya sifatida qarash mumkin:

$$f(\sin 3x) = \sin^2 3x - \left(a + \frac{1}{2}\right) \sin 3x + \frac{a}{2}$$

$$\sin^2 3x - \left(a + \frac{1}{2}\right) \sin 3x + \frac{a}{2} = 0,$$


U holda tenglamani shakl almashtiramiz:

$$\begin{cases} \sin 3x = \frac{1}{2} \\ \sin 3x = a \end{cases}$$

$$(\sin 3x - 0,5)(\sin 3x - a) = 0. \quad \text{Bundan kelib chiqadi.}$$

$$\sin 3x = \frac{1}{2} \quad \frac{2\pi}{3} \leq x \leq \pi \Rightarrow 2\pi \leq 3x \leq 3\pi$$

Ma'lumki, sistemaning $\sin 3x = \frac{1}{2}$ tenglamasi sohada ikkita yechimiga ega. Demak, $\sin 3x = \frac{1}{2}$ tenglama bitta echimga ega bo'lishi kerak. Bu holat $a = 1$ bo'lsa o'rini bo'ladi.



Javob: $a = 1$.

Parametrga nisbatan yoki takrorlanuvchi ifodalarga nisbatan funksiya sifatida qarash hamda funksiya xossalaridan foydalanish orqali yechiladigan parametrli tenglamalar

$$5 - 4 \sin^2 x - 8 \cos^2 \frac{x}{2} = 3k$$

6-misol. $\quad \quad \quad$ tenglama yechimiga ega bo'ladigan k parameterning barcha butun qiymatlarini toping.

$$5 - 4 \sin^2 x - 8 \cos^2 \frac{x}{2} = 3k$$

Yechish:

Tenglamani

soddalashtiramiz:

$$5 - 4(1 - \cos^2 x) - 4(1 + \cos x) = 3k, \quad 4 \cos^2 x - 4 \cos x + 1 = (2 \cos x - 1)^2 = 3k + 4.$$

$$\cos x = \frac{1 \pm \sqrt{3k + 4}}{2}, \quad k \in \mathbb{Z}.$$

Bundan bo'lishi lozim. Bu tenglama yechimiga ega bo'lishi uchun $k = -1, k = 0, k = 1$

$$\begin{cases} x = 2\pi l \\ x = \frac{\pi}{2} + \pi n, \quad n, l \in \mathbb{Z} \end{cases}$$

Agar $k = -1$ bo'lsa,

$$x = \pm \frac{2}{3}\pi + 2\pi m, \quad m \in \mathbb{Z}$$

Agar $k = 0$ bo'lsa,

$$x = \pi \pm \arccos \frac{\sqrt{7} - 1}{2} + 2\pi p, \quad p \in \mathbb{Z}.$$

Agar $k = 1$ bo'lsa,

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytish mumkinki, parametrik masalalar o'quvchilardan nostandard fiklashni talab qiladi. Parametrli tenglamalar olimpiada va turli tanlovlardan, olyi o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida uchrab turadi. Lekin parametrler bilan bog'liq nazariy tushunchalar, ayniqsa parametrik tenglamalarning tasnifi, ularni yechish usullari

bo'yicha metodik tavsiyalar maktab darsliklarida juda kam uchraydi. Bizning fikrimizcha, yuqoridaq metodik tavsiyalar maktab o'quvchilarining parametrik tenglamalar yoki nostandard masalalar bilan bog'liq muammolarini hal qilishda, matematik tayyorgarlikni kuchaytirishda samarali yordam beradi.

ADABIYOTLAR

- Козко А. И., Макаров Ю. Н., Чирский В. Г. Математика. Письменный экзамен. Решение задач. Методы и идеи: Учебное пособие. М.: Экзамен, 2007.
- Козко А. И., Панфёров В. С., Сергеев И. Н., Чирский В. Г. ЕГЭ 2013.
- Математика. Задача С5. М.: МЦНМО, 2013.
- Высоцкий В. С. Задачи с параметрами при подготовке к ЕГЭ. М.: Научный мир, 2011.
- Амелькин В. В., Рабцевич В. Л. Задачи с параметрами. Минск: 1996.
- Горнштейн П. И., Полонский В. Б., Якир М. С. Задачи с параметрами. Киев: Евроиндекс, 1995.



УДК: 54:371.3

Чарос ҲАЙДАРОВА,

Тошкент давлат техникауниверситети таянч докторанти

Тошкент давлат техникауниверситети “Умумий кимё” кафедраси мудири к.ф.д. профессор Г.А.Ихтиярова

КИМЁ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ИНТЕРАКТИВ ЭЛЕКТРОН ДАРСЛИКЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ВА АХАМИЯТИ

Аннотация

Мақолада кимё таълим сифатини оширишида интерактив электрон дарслкларнинг афзаликлари ва ахамиятиҳакида маълумотлар келтирилган. Хозирги кимё таълимида 3D технологияларидан турли вазиятларда фойдаланиш имконини берадиган яратилган ва яратилаётган вертуал интерактив электрон дарслклар (ВИЭД) даги Crocodile Chemistry, Hot Potato, Unity 3D, 3D MAX дастурларидан фойдаланиш самараси хакида қисқача тўхталиб ўтилган.

Калил сўзлар: Вертуал интерактив электрон дарслклар (ВИЭД), Crocodile Chemistry, 3D технологиялар, Инновацион электрон дарсллик, Ispring дастури, Hot Potato дастури, Unity 3D, 3D MAX, Nazar программалари.

ПРЕИМУЩЕСТВА И ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНИКОВ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ХИМИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье представлена информация о преимуществах и значении интерактивных электронных учебников в повышении качества химического образования. Дан краткий обзор эффективности использования Crocodile Chemistry, Hot Potato, Unity 3D, 3D MAX в создаваемых и создаваемых виртуальных интерактивных электронных учебниках (VIED), позволяющих использовать 3D-технологии в различных ситуациях современной химии. образование.

Ключевые слова: виртуальные интерактивные электронные учебники (VIED), крокодиловая химия, 3D-технологии, инновационный электронный учебник, программное обеспечение Ispring, программное обеспечение Hot Potato, Unity 3D, 3D MAX, программное обеспечение Nazar.

ADVANTAGES AND IMPORTANCE OF INTERACTIVE ELECTRONIC TEXTBOOKS IN IMPROVING THE QUALITY OF CHEMISTRY EDUCATION

Annotation

The article provides information on the advantages and importance of interactive electronic textbooks in improving the quality of chemistry education. A brief overview of the effectiveness of the use of Crocodile Chemistry, Hot Potato, Unity 3D, 3D MAX programs in the created and being created virtual interactive electronic textbooks (VIED), which allow the use of 3D technologies in modern chemistry education in different situations.

Key words: Virtual Interactive Electronic Textbooks (VIED), Crocodile Chemistry, 3D Technology, Innovative Electronic Textbook, Ispring Software, Hot Potato Software, Unity 3D, 3D MAX, Nazar Software.

Кириш. Фан – техниканинг ривожланиши ва ахборот технологиялари соҳасидаги эришилган ютуклар инсоният олдида турган турли-туман янгидан янги муаммоларни ечишга имкон беради.

Жаҳонда таълим барқарор тараққиётни таъминловчи асосий омил сифатида эътироф этилиб, 2030 йилгача белгиланган барқарор тараққиёт таълими концепциясида «Бутун ҳаёт давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш» долзарб вазифа сифатида белгиланди. Бу эса ўз навбатида ҳам фанни ҳам хорижий тилни ҳам замонавий ахборот технологияларини чуқур биладиган ва уни тажрибада кўллай оладиган кимё ўқитувчиларини тайёрлашга қаратилганлиги билан ахамиятлидир. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатади, ҳозирги кунда таълим тизими ишлаб чиқаришдан анча орқада колиб кетмоқда ва битирувчиларнинг касбий тайёрларигининг етарли эмаслиги кузатилмоқда. Шу сабабли олий таълим муассасаларида ўқитувчиларни замонавий усууларидан кенг фойдаланишин ўйлга қўйиш, бўлажак педагогларни касбий тайёрлашда инновацион ва ахборот технологияларини кенг жорий этишни тақозо этмоқда [1].

Ҳозирги кунда муҳтарам президентимиз ташабbusлари билан халқаро миқёсда табиий фанлардан

кимё фанини ўқитиш сифатини яхшилаш мақсадида самарали тадқиқотлар олиб борилмоқда. Жаҳонда кимё таълимида компьютер технологияларидан турли вазиятларда фойдаланиш имконини берадиган тренинглар тизими ишлаб чиқилган таълим технологияларини ишлаб чиқишига доир халқаро ҳамкорликни амалга оширишнинг ташкилий ва стратегик механизмлари тақомиллаштирилган. Олимлар кимё фанини инновацион ва ахборот технологиялари воситалари асосида ўқитиш жараёнини тақомиллаштириш, таълим жараёнидаги 3D технологияларни кўллашни тавсия килмоқдалар. Кимё таълим тизими тараққиётидаги ахборот тизими ва инновацион технологияларининг, интерактив 3D дан фойдаланиш имкониятлари кенгайтирилиб, айниқса, масофавий таълим сифати ва самарадорлигининг ошишига ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Методлар: Янги 3D технологиялар кун сайин ривожланиб, ахборотлаштириш жараёни тез суръатлар билан ўсиб бораётган ҳозирги даврда кимё таълим соҳасида ахборот ресурсларини ташкил этиш ва таълима фойдаланишга Республикаизда ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда.

“D” атамаси инглизча “дименсионс” сўзидан олинган бўлиб, “ўлчамлар” маъносини беради. 3D

технологияси тасвирни визуал ва товушли узатиб беришнинг дунёдаги энгилғор усули хисобланади.

Айниқса ҳозирги коронавирус пандемияси даврида таълим соҳаси олдига ҳам янги муаммо ва талаблар кўйилди, айниқса 1 йил давомида масоғавий онлайн таълим тизимиға ўтилди, талабаларимиз мустақил тарзда фанни ўзлаштиришига мақбур бўлишиди, интернет орқали маълумотлар тўплашга ва вертуал электрон дарслердан фойдаланишларига тўғри келди. Талабалар кимё фанини табиий фанлар орасидан энг қизиқарли ва ўз навбатида ўзлаштириш кийинроқ фан деб хисоблашади. Бу пайтда вертуал электрон дарслер ёрдам бериши мумкин [2].

Натижалар: Кимё фанидан яратилган электрон дарслер бу фанни осон тушунишга, видеолавҳаларда қизиқарли тажрибаларни кўришга ва керакли маълумотларни тезда босмадан чикаришга фанга хисса кўшган олимлар ҳакида

Инновацион электрон дарслер бу компьютер технологияларига асосланган замонавий таълим методларидан, масоғавий таълим технологияларидан фойдаланишга мўлжалланган ўқитиши воситаси бўлиб, ундан мустақил таълим олишда ва ўқув материалларини ҳар томонлама чукур ва самарали ўзлаштириша фойдаланилади [3].

Охирги йилларда тадқиқотимизда кимё фани (Умумий кимё, Органик кимё, коллоид кимё, биоорганик кимё) [4-7] дан бир-биридан фарқли ўлароқ инновацион электрон дарслер яратилган (1-Расм).

маълумотларга эга бўлишга, тестларни ечиб ўз билимларини мустақил баҳолай олишга мусассар бўлишиди.



Расм 1. Кимё фанидан яратилган интерактив электрон дарслерлар.

Илмий ишимиизда Кимё фанидан вертуал интерактив электрон дарслер (ВИЭД) яратиш мақсад килиб қўйилган. Бу вертуал интерактив Эднинг оддий дарслердан фарқи – уларда матн ва расмдан ташқари аудиофайллар, турли хилдаги мултиплекциялар, Unity программасида 3D моделлар асосида анимациялар, кимёвий масалалар ечиш усуllibарининг видео ҳаволалари, ҳавфли ёки бажарип имконияти бўлмаган тажрибаларни


Crococile Chemistry дастури орқали виртуал кўринишлари, замонавий харакатчан тақдимотлар, талабаларга ўзини-ўзи назорат килиш учун Ispring дастурида ностандарт тестлар, Hot Potato дастурида кросвордлар, кейслар банки, ассисментлар ва гиперматндан фойдаланиб ўқувчидан ахборотни тез, осон, сифатли, кулагай, чиройли ҳамда тушунарли шаклда тақдим этиш мумкин (2-расм).



Расм 2. Кимё фанидан вертуал интерактив электрон дарслерлар (ВИЭД)

Биз куйида кимё соҳасида қўлланиладиган симуляторлар Crocodile Chemistry дастурининг мавжуд имкониятларини кўриб ўтамиз - Crocodile Chemistry дастури орқали Д.И.Менделеев даврий жадвалида мавжуд барча элементларнинг кимёвий ва физикавий хусусиятларини ўрганиш мумкин. Одатда кимёвий реаксиялар рўй бериш вақтида реаксияга катнашетган молекулаларнинг бошқа молекулага айланishi жараёнини (молекуляр даражада) кузатиш иложи йўқ. Бу дастур орқали кимёвий жараёнларни моделлаштириш, турли реаксияларни ўтказиш ва енг асосийси, буни хавфсиз амалга ошириш мумкин.

Мунозара: Ушбу дастур орқали ихтиёрий шаклдаги идишлардан фойдаланиб, турли реактивларни ўзаро аралаштириб кимёвий реакцияни кўзатиш мумкин. Кимёвий реакция вақтида реактивларнинг ранги, моддалар улушини, кимёвий реаксия формулаларни маҳсус ойнада кўриш имконияти дастурнинг кучли педагогик қурол сифатида фойдаланиш имкониятини беради. Crocodile Chemistry дастурининг бундай имкониятлари кимё фанини ўқитишида инқилобий ўзгаришга сабаб бўлди (3-расм).



3-рasm. Crocodile Chemistry дастур муҳитида яратилган кимёвий реакция жараёни

Барча ақлли инсонлар 3 ўлчамли тасвир, уч ўлчамли графика, уч ўлчамли моделлаштириш каби тўлиқ тушунчаларга эгадирлар. Замонавий киноиндустрия, архитектура дизайн ҳатто таълим соҳасини олиб карайдиган бўлсақ, турли хил 3D маҳсус эфектлар орқали реал жараёнларни кузатиш мумкин.

Биз маколада яна бир 3D технологияни ўзида мужассамлаштирган, хозирги кунда кенг оммага таркалган Nazzar.uz дастури ҳакида айтиб ўтмоқчизим. Nazzar.uz- бу кенгайтирилган воқелик элементларини ҳар қандай моддий муҳитга бирлаштира оладиган инновацион дастур хисобланади. Бунда смартфонингизни экрандаги Nazzar.uz белгисига кўрсатганингизда ҳақиқий объект тасвири смартфонда пайдо бўлади ва турли хил эфектлар билан тўлдирилади. Медиядаги статик расм "ҳаётга келади" ва видео бўлакка айланади. Экрандаги

фотосуратлар ва расмлар уч ўлчовли бўлади, уларни ҳар томонлама ва ҳар нукта назардан кўришга имкон беради. Аудио фойдаланувчи смартфони карнайи ёрдамида эшишилади. Расмдан "кўпроқ маълумот олиш", томоша килиши пайтида смартфон экранида пайдо бўлади.

Хулоса. Демак, 3D технологияни кимё таълимида виртуал лаборатория машғулотларини ташкил этишда қўлланилса фанни ўқитишида юкори самарадорликка эришилади. Бунда виртуал кимё лаборатория хоналари веб-муҳитда яратилади ва тажрибалар хоҳлаганча бажариб кўриш мумкинлиги талабаларга тушунтирилади. Портлаш хавфи бор тажрибалар, заҳарли хусусиятга эга бўлган тажрибалар ҳам виртуал кимё лабораториясида бажариб кўриш мумкин.

Айни пайтида биз томонимиздан Кимё фанидан (техника йўналиши талабалари учун) яратилган

интерактив вертуал электрон дарсликни Unity 3D, 3D MAX, Nazzar.uzпрограммалари асосида яратиш ва тайёрланадиган ИВЭД учун ЎзР интеллектуал мулк агентлигидан гувохнома олиш устида илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириши концепцияси.П.Ф.584708.10.2019.
2. Bers M. & Chau C. The virtual campus of the future: stimulating and simulating civic actions in a virtual world. Journal of Computing in Higher Education, 2010. 22, 1–23. doi:10.1007/s12528-009-9026-3.
3. Bronack S., Riedl R., & Tashner J. (2006). Learning in the Zone: A social constructivist framework for distance education in a 3-dimensional virtual world. Interactive Learning Environments, 14(3), 219–232. doi: 10.1080/10494820600909157.
4. Ихтиярова Г.А., Ёриев О.М., Хазратова Д.А. “Умумий кимё” электрон дарслик.// №DGU 03425 2015
5. Ихтиярова Г.А., Ёриев О.М., Нуритдинова Ф.М., Дехконова Н.Ш. “Коллоид кимё” электрон дарслик.// №DGU 0354 2015
6. Ихтиярова Г.А., Нуритдинова Ф.М., Хусенов М. “Органик кимё”дан электрон кўлланма. №DGU2016. 0670
7. Аҳадов М.Ш., Ихтиярова Г.А. “Анорганик кимё”дан электрон дарслик №DGU07819.2020, й.
